# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

## NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

### TARIX KAFEDRASI

**JADIDCHILIK TARIXI**
**fanidan**

# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Bilim sohasi:** 200000 – San’at va gumanitar soha

**Ta’lim sohasi:** 220000 – Gumanitar fanlar

**Ta’lim yo′nalishi:** 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo’nalishlar bo’yicha)

**NAMANGAN – 2023**

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Vazirlikning 2013 yil 2 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy adabiyotlar bilan ta’minlashni takomillishtirish to‘g‘risida”gi 278-sonli buyrug‘i, uning to‘rtinchi ilovasi, ya’ni: “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining DTS asosida fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish Tartibi”ning 2-ilovasi 2-shaklini inobatga olgan holda “Jadidchilik tarixi” fani bo‘yicha bakalavr bosqichidagi talabalarning zaruriy tayyorgarlik darajalari va bilimlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi:** N. G‘ofurov – NamDU “Tarix”kafedrasi dotsenti, t.f.n.

**Taqrizchi:** O. Mamatov - NamDU, “Milliy g’oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi mudiri, f.f.n.

O’quv-uslubiy majmua Namangan davlat universitetining Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.
2023 yil “ ” avgustdagi “1”-sonli majlis bayoni.

# MUNDARIJA

**O'quv materiallari**

a) Ma'ruzalar bo'yicha o'quv materiallari ..............................................4-32
b) Seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'quv materiallari ....................... 32-58

**Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari** ....................................................................... 58-64

**Glossariy** ..................................................................................................... 64-86

**Ilovalar**

a) Fan dasturi ..........................................................................................86-94
b) Ishchi fan dasturi ..................................................................................94-118
c) Tarqatma materiallar .........................................................................119-136
d) Testlar ............................................................................................... 136-150
e) Baholash mezoni .............................................................................. 151-154

## 1-MAVZU: JADIDCHILIK HARAKATINING YUZAGA KELISHI.

**REJA:**

1. **Jadidchilik harakatining shakllanishi uchun shart-sharoitning yetilishi.**
2. **Rossiya mustamlaka o`lkalaridagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar va Turkiston ziyolilari.**

Tarixning o‘z qonuniyatlari bor. Har bir jamiyat o‘z tarixi davomida tug‘i lish, o‘sish , avj nuqtaga yetish va sekin - asta tanazzulga yuz tutish jarayonlarini boshidan kechiradi. Bu holning obyektiv sabablari ko‘p.

O‘zbek xalqining o‘tmishi, boshqa xalqlar tarixidek, turli qabila va urug‘larning bir beklikka, bekliklarning esa xonliklarga birlashishidan, bu xonliklarning muayyan tarixiy muddatda yashab, rivojlanishi, so‘ng istilo azobini ko‘rishi va nihoyat, qullik kishanlarini yanchib, o‘z mustaqilligiga erishishidan iborat bo‘ldi. Bu hayotiy haqiqat asrlar davomida turli shaklda yuz ko‘rsatdi. Ijtimoiy -siyosiy fikrning eskirishi va yangisining tug‘ilishi ham xuddi shu jarayon bilan bog‘liq.

O‘zbek davlatchiligi tarixida, nafaqat harbiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jixatdan ham qudratli saltanatning barpo etilishida sohibqiron Amir Temurning tarixiy xizmati beqiyosdir. Shu davrdan e’tiboran o‘zbek xalqining jahon tarixidagi o‘rni aniqlanib, jamiyatning siyosiy va huquqiy asoslari shakllanib bordi. Ijtimoiy, ilmiy va badiiy tafakkur o‘zining olamshumul samarasini izchil bir shaklda bera boshladi. Bu tarix sahnasiga ko‘tarilgan buyuk shaxsning jamiyatni yangilash uchun qudratli davlat barpo etish, mamlakatni xarob etayotgan ichki kurashlarga barham berish, mayda beklik va xonliklarni birlashtirish, yangi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy g‘oyalarni hayotga tadbiq etish lozimligini tushunganligi tufayli yuz berdi.

Mo‘g‘ullar X III asrda Xorazm shohlaridan g‘olib chiqib, turkiy xalqlar yashaydigan zaminni zabt etgan bo‘lsalar, Amir Temur 1370 yilda chig‘atoylar hukmronligiga barham berdi. Sohibqiron Chindan to O‘rta Yer dengiziga qadar bo‘lgan hududda buyuk saltanat bunyod etishga muvaffaq bo‘ldi. Afsuski, XVIII asrga kelib, uning ayrim ko‘rinishi (Xiva, Qo‘qon xonliklari va Buxoro amirligi) mavjud edi, xolos. Xiva xonligi XVII asrda Amudaryodan Xurosonga qadar bo‘lgan hududni o‘z ichiga olardi. 1740-1747 yillar orasida Eron hukmdori Nodirshoh qo‘li ostida bo‘lgan xonlik mustaqillikka erishdi-yu , ammo uzoq vaqt ichki kurashlar avjiga chiqib, bu hol chor Rossiya istilosiga qadar davom etdi.

Amudaryoning o‘ng sohilidan tortib to Xiva xonligi sarhadlariga qadar uzangan Buxoro amirligi 1752-yildan e’tiboran mang‘it sulolasining vakili bo‘lmish Muxammad Raximxon hukmronligi ostida yashadi. Uzoq vaqt bu yerda ham tinchlik qaror topmadi. Faqat Shoh Murod davrida (1785 — 1800) bir qadar osoyishtalik qaror topib, madrasalarda ta’lim-tarbiya berishga e’tibor ortdi. O‘sha vaqtda madrasalarda o‘ttiz mingga yaqin talaba tahsil olar edi.

Qo‘qon xonligi Amir Temurning nevarasi Umar Shayx tomonidan 1467-yilda bunyod etilib, sharqda Qashqar, g‘arbda Samarqand, janubda Badaxshon tog‘lari, shimolda esa Olmaota shahri bilan chegaradosh bo‘lgan. Har uch xonlik XIX asrga kelib, o‘zaro kelishmovchilik va ichki nizolar natijasida kuchsizlanib, parokanda va tashqi dushmanga dosh bera olmaydigan axvolga tushib qolgan edi.

Mashhur mojor olimi Arminiy Vamberi (1832— 1913) 1863-yili darvesh qiyofasida Eron orqali Turkistonga kelgan. Xatarli safardan eson-omon vataniga qaytgach, o‘z taassurotlarini e’lon qiladi. Unda olimning ko‘xna hudud geografiyasi, iqtisodi, tarixi, madaniyati va ijtimoiy munosabatlari borasidagi muhim kuzatishlari o‘z aksini topgan. Tadqiqotchi o‘z kuzatishlarida asrlar davomida din aqidalari asosida boshqarib kelinayotgan jamiyatning tashqi olamdan ajralgan xolda, ya’ni “yopiq ijtimoiy tuzum” sifatida

rivojlanayotganini ham alohida ta'kidladi. A.Vamberi ning asari tez orada dunyo axlining nazariga tushadi va bir necha tillarga tarjima qilinadi. Uning ilk tarjimasi o'sha kezda harbiy harakatlarni boshlab yuborgan chor hukumati tomonidan amalga oshiriladi. Ma'lumotlarga qaraganda, istilochi qo'shin qo'mondonlariga muhim manba hisoblangan ushbu asar bilan yaqindan tanishib chiqish yuzasidan maxsus ko'rsatma ham berilgan. Shu tariqa ilmiy kuzatishlar strategik ahamiyat kasb etgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Turon zamini ustidan umumiy hukmronlik o'rnatish uchun kuchli Yevropa davlatlari o'rtasida raqobat boshlandi. Inglizlar Afgoniston va Janubiy Turkiston bilan qiziqishlarini yashirmay, 1839-yilda Pomirgacha yetib kelishdi. Ularning Turkiston janubiy chegaralari bilan ovora bo'lib turganidan foydalangan Rossiya shu yilning o'zida Xivani qo'lga kiritishga harakat qiladi. Ammo general Pyerovskiy qo'mondonligi ostidagi olti ming kishilik chor qo'shinlari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi va Qo'qon sari harakat boshlanadi. Qo'qon xonligiga qarashli, Sirdaryo yaqinida qad ko'targan Oqmasjid qal'asi 1853-yilda zabt etilsa-da, qo'shinlarning Turkiston ichkarisiga yopirilib kelishi vaqtin cha to'xtaydi.

1856-yilda Parij sulhi imzolanganidan so'ng, Rossiya harbiy harakatlardan bo'shagan qo'shinlarini Kavkaz va Turkistonga yo'llaydi. 1858-yilda general Ignatyev (keyinchalik rus hukumatining Istanbuldagi elchisi) Buxoroga elchi qilib yuboriladi va o'z faoliyatini amirga tazyiq o'tkazish asosida tashkil etadi. 1860-yilda Yettisuvdan tajovuz boshlagan general Kolpakovskiy Qo'qon xonligi qo'shinlarini mag'lub etadi. To'qmoq va Pishpyek qal'alarini ishg'ol etib, Sharqiy Turkistonga olib boruvchi yo'llarni o'z nazoratigi oladi. 1863-yilda Prussiya bilan shartnoma imzolanganidan so'ng, Rossiya Qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarini davom ettirib, 1864-yilda Avliyo ota, Turkiston (Yassi) va Chimkent shaharlarini bosib oladi. Shundan keyin general Kaufman uch ming besh yuz askar bilan 1868-yilning 2 mayida Samarqandga kirib keladi. Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi sharoit taqozosi bilan Rossiya himoyasiga o'tadi. 1873-yil 12-avgustda Xiva xonligi ham bu "taklif "ni qabul qilishga majbur bo'ladi. 1876-yil 19 fyevralda Qo'qon xonligi o'rnida "F arg'ona viloyati" paydo bo'ladi. Bosib olingan yerlarga mamlakat ichkarisidan aholi ko'chirilib, ko'plab rus qishloqlari barpo etiladi. Oqibatda, Vamberi vahima bilan ta'riflagan jamiyat yangi shaklga ega bo'lib, ayn i chog'da rus mustamlakasiga aylanadi.

Qirq yil davom etgan bosqinchilik urushi mahalliy xalqning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotini butunlay izdan chiqardi. Xonlik va amirliklar davrida iqtisodiy nochor yashagan, ijtimoiy ongi va madaniy darajasi faqat nadomat tuyg'ularini uyg'otadigan tub aholi mustamlakachilik tufayli tanazzulga yuz tutdi. Bu xol nafaqat madaniy va ijtimoiy jihatdan o'sish, balki kundalik ro'zg'or tebratishda mislsiz mushkulliklar tug'dirdi.

"Chor Rossiyasining O'rta Osiyoda, shu jumladan, hozirgi O' zbekiston hududida olib borgan siyosati, - deb yozadi yuridik fanlari doktori Jo'raqul Toshqulov, - uzoq yillar davomida har tomonlama puxta o'ylangan, rejalashtirilgan - o'lkaning bitmas-tuganmas moddiy va madaniy boyliklarini shafqatsiz talash, uning mehxnatsevar xalqlarini ezish, ularning mehnati evaziga mustamlakachilarning boyishini ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan bosqinchilik siyosati edi. Lekin bu siyosatni amalga oshirish osonlikcha bo'lmadi. O'rta Osiyo xalqlari chor qo'shinlari bosqinchilik yurishlarini boshlagan dastlabki daqiqalardan e'tiboran o'z yurtini dushmandan himoya qilish, uning mustaqilligini saqlab qolish uchun jon-jahdlari bilan kurashdilar, har bir qal'a, qishloq, har bir qarich yer uchun jon olib, jon berdilar. Shunga qaramasdan, qurollanish jihatidan ustun bo'lgan chor qo'shinlari, yuqorida bayon qilganimizdek, O'rta Osiyoning shahar va qishloqlarini birin-ketin bosib oldilar, ularning kulini ko'kka sovurdilar, himoyachilarini va tinch aholisini shafqatsiz qirdilar. Keyingi ma'lumotlarga ko'ra, chor qo'shinlarining O'rta Osiyoni bosib olishi jarayonida qo'shin va tinch axoli orasidan jami 598 ming odam nobud bo'lgan".

Qayta qurish va oshkoralik, ayniqsa, mustaqillik yillarida e’lon qilingan bir qator kitob gazeta va jurnal maqolalarida mustamlakachi rus hukumati va sho‘rolar hokimiyatining o‘zbek xalqiga keltirgan jabrlari xususida asosli fikrlar bayon etildi. Zero, bunday chiqishlarning bir qismi chorizm davriga oid bo‘lgani uchun ular jadidchilik harakatining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy omillarni tahlil etishga imkon yaratadi. Shunday masalalardan biri ruslashtirishdir. Ruslashtirish deganda, eng avvalo, XIX asrning 70 -yillaridan boshlab Rossiyadan ko‘plab mujiklarni ko‘chirib, ularga mahalliy xalqdan sug‘oriladigan, unumdor yerlarning 55 foizini tortib olib berish, hokimiyat idoralarini o‘zga millat vakillari bilan to‘ldirish nazarda tutiladi. Bu holat ham oddiy xalqning ezilishiga olib keldi. Bozorlar ham sekin-asta rus manufaktura sanoati mollari bilan to‘lib, mayda hunarmandlar, masalan, bo‘zchilar, kosiblarning bozori kasod bo‘ldi. Ishsizlik avj oldi. Qishloq aholisi borgan sari qashshoqlashib, mardikorlik, chorikorlik, aniqrog‘i rus mujiklari qo‘lida korandalik qilishga majbur bo‘ldi.

Tarix fanlari doktori Haydarbek Bobobekovning “O‘rta Osiyo Rossiyaga qo‘shib olinganmi?” maqolasida vaziyatni yaxshi bilgan bir rus olimining quyidagi fikrlari keltirilgan:

«O‘lkani ruslar egallagandan keyin axolining axvoli va’da qilingan yaxshi imkoniyatlar va qulayliklar, farovonliklar o‘rniga, aksincha, kundan-kunga yomonlashib va og‘irlashib bordi. Axolidan biz ko‘p narsani talab qilmoqdamiz, ulardan soliq olishda esa biz yuksaklikka ko‘tarilmoqdamiz, lekin biz xalqqa nima qildik? Biz unga tinchlik, osoyishtalik berdik, qo‘shinlar o‘rtasidagi talon-taroj urushlarga chek qo‘ydik, o‘lim j azosini muttasil kamaytirganimiz aniq, le kin biz shu bilan cheklandik. Toshkentda turli komissiyalarda chiroyli aytilgan so‘zlardan tashqari, xalq xo‘jaligi uchun biz hech narsa qilmadik».

Ko‘chirmada keltirilgan soliqlar masalasiga oid fikrga e’tiborni qaratmoqchimiz. Afsuski, shu paytgacha nafaqat tarixchilar, balki boshqa soha tadqiqotchilari ham mustamlakachilik yillarida olingan soliqlar tufayli xalqning iqtisodiy sharoiti yanada og‘irlashgani bilan shug‘ullanishmagani bois masalaning bu muhim tarafiga e’tibor berilmagan. Holbuki, xalqning qashshoqlanishi, mardikor va korandalikning avj olishi, bolalarning bachchaxonalarga, qizlarning esa islovotxonalarga tushishi, avvalo, ana shu nochorlikning xunuk oqibati edi. Qo‘qon xonligi xali tugatilmay turib, Rossiyaga behisob soliqlar xazina hisobidan emas, balki oddiy xalqni shilish evaziga to‘langan. Har ikki xonlik mustamlakaga aylantirilib, Buxoro amirligi esa yarim vassal maqomiga ega bo‘lgan xolda ikki xonlikdan Rossiyaning bevosita o‘zi aholini shilib, yangi soliq tizimini joriy etdi. Buxoro amirligi ham mustamlakachilarga to‘lashi lozim bo‘lgan soliqni xalqdan yig‘di.

Bunday mustamlakachilik zulmi tub aholini har tomonlama kamsitilishiga yo‘l ochgan. Birinchi o‘zbek kinorejissyori Sulaymon Xo‘jayevning “Tong oldidan” filmi, shuningdek, Abdulla Qaxxorning “Tomoshabog‘” hikoyasida Toshkent va boshqa shaharlardagi bunyod etilgan madaniyat va istirohat bog‘lariga mahalliy xalq vakillari kiritilmagani tasvirlangan. Rus bo‘lmaganlar gubernatorlikdagi bal va boshqa rasmiy marosimlarga yaqin yo‘latilmagan. Toshkent markazidagi sobiq chor tomoshabog‘ining oldida esa “Sartam i sobakam vxod zapreshayetsya” (“ Sartlar va itlarga kirish taqiqlanadi”) yozuvi osig‘liq turgan .

Bir qator manbalarda chor amaldorlari cheksiz haq-huquqlarga ega ekanliklarini namoyish qilish maqsadida masjidga ham it bilan kirganligi bayon etilgan. Hatto Toshkent ko‘chalarida shu yerlik axolining milliy libosda yurishi taqiqlanib, o‘sha vaqtdagi yo‘lovchi tashish transportida ruslar bilan yonma- yon o‘tirmasligi uchun alohida o‘rindiqsiz joy ajratilgan. Shu o‘rinda tarix fanlari doktori Hamid Ziyoyevning «Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash » kitobiga murojaat etish o‘rinlidir. «Rus hukumati, - deb yozadi olim, - Turkiston o‘lkasini uch qismga bo‘lgan holda mustamlaka bo‘g‘uvida ushlab turardi. O‘lkani bu tarzda parchalashdan maqsad o‘zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar va qoraqalpoqlarning birdamligiga va katta bir oilaga birlashishlariga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat edi. Xuddi shu maqsadni ko‘zlagan xolda bosqinchilar milliy nizo urug‘larini sochib turdilar.

O‘lkada rus tiliga davlat maqomi berilib, milliy tillar burchakka siqib qo‘yildi. Oqibatda rus tilini targ‘ib qilish va o‘rganish zarurati tobora kuchaydi. O‘lkada rus-tuzem maktablari ochildi. Ularga Rossiyaga sodiq kishilarni tarbiyalab yetishtirish vazifasi qo‘yildi.

Rus xukumati ruslashtirish va ulug‘ davlatchilikka asoslangan siyosat yurg‘izdi. Bu haqda 1870 yilgi Rossiya xalq maorifi vazirligining ko‘rsatmasida: “Tub joy xalqlarni ruslashtirish maorifning asosiy vazifasi bo‘lmog‘i lozim”„ deb ta’kidlangani ham guvohlik beradi. Shuning uchun rus hukumati imkoni boricha milliy til va milliy madaniyatni rivojlantirishga ongli ravishda to‘sqinlik qilib, maktablar ta’minotiga mablag‘ ajratishni xayoliga ham keltirmadi».

Bosqinchilik zulmi bunday davom etishi xalqning sabr kosasini to‘ldirib yubordi. Shu bois joylarda mahalliy millat vakillarining noroziligi kuchaydi. Dastlab 1856-yili Sirdaryo viloyatida xalq ko‘tarilgan bo‘lsa, 1864-yili Yettisuvda dunganlar, 1869-yili Samarqandda tub axoli bosh ko‘tardi.

Bunday xalq g‘alayonlari aytish mumkinki, bir-biriga ulanib tursada, chor armiyasi tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilaverdi. Uning faol ish tirokchilari dorga tortildi, Sibirga surgun qilindi. “ Russkiy invalid” jurnalining 1898-yilgi 127-sonida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, birgina Andijondagi Dukchi eshon qo‘zg‘oloni bostirilgandan keyin uning qatnashchilaridan 777 kishi xibsga olinib, bor-yo‘g‘i 32 kishi oqlangan. 380 kishi o‘lim jazosiga hukm qilinib, 1 kishi umrbod qamoq jazosiga, 3 kishi esa tarbiya lageriga yuborildi. Nadomatlar bo‘lsinki, jurnal bu baxti qarolarning ma’lum bir qismi oq podsho “ marxamatiga” muyassar bo‘lgani xususida yozgan. Ammo tergov jarayonida qanchadan - qancha begunohlarning kaltaklanganligi, qiynoqlar ostida o‘lganligi, rus ma’muriyatining buyrug‘i va sud hukmi bilan Qutchi, Tojik va Qashqar qishloqlaridagi tub axoli ko‘chirilib, ular yashagan uylar kultepaga aylantirilgani borasida lom-mim demagan. Bundan tashqari, qo‘zg‘olonchilarga madad bergan Mingtepa va Andijon oralig‘idagi 29 qishloqni yer bilan yakson qilish masalasi ham o‘rtaga qo‘yilgan. Ammo bosqinchilar “marxamat”i bilan “atigi” 700 xonadondan iborat besh qishloqning kuli ko‘kka sovurilgan. 1898-yil 12 iyun kuni Dukchi eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilarni dorga osish chog‘i nochorlik azobini tortayotganlarni tahlikaga solish maqsadida tinch axoli jazo maydoniga majburan to‘planadi. O‘limga hukm qilinganlar yig‘ilganlarning ko‘z o‘ngida qatl qilinib, qabrlari toptaladi. Betofiq chor korchalonlari xunrezlikni bir umr yodda saqlab qolish uchun hatto yosh go‘daklarni ham o‘limga tik boqishga majbur qilishgan.

## 2-mavzu . Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va taraqqiyoti

**REJA:**

1. Jadidchilikning vujudga kelishi.
2. Dastlabki jadid jamiyatlari faoliyati.

Jadidchilik (arabcha»***jadid***»-yangi)-yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo`llari tarafdorlarining umumiy nomidir. Jadidchilik XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida turkiy-musulmon o`lkalarida (Qrim, Kavkaz, Volgabo`yi-Bulg’or va Janubiy O`rol havzasi, Turkiston) shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitida vujudga kelgan. U o`sha davrdan Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining mafkurasi-Turkiston milliy mustaqillik mafkurasi vazifasini bajardi.

Jadidchilikning asosiy g’oya va maqsadlari: Turkistonni o`rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, «Usuli qadim»ni isloh etgan holda o`lkani, xalqni, millatni zamonaviy mutaraqqiy yo`lga olib chiqish, milliy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi va milliy qo`shin tuzish. Bu g’oya va

maqsadlar 1917-1920 yillarda «Turkiston muxtoriyati», Buxoro va Xorazm xalq respublikalari davrida, qisqa muddatda va qisman bo`lsa-da amalga oshirildi.

Jadidchilikning mintaqaviy-hududiy tarixiy shakllari: Qrim, Kavkaz, Volgabo`yi-Bulg'or va Janubiy O`roldagi jadidchilikka Gasprali Ismoilbey, Jovid Husaynzoda, Muso Jorulloh Qozoniy, Rizouddin ibn Faxriddin rahnamolik qilishgan; Turkistonda-Munavvar Qori, Behbudiy va boshqalar etakchilik qilishgan; Buxoroda «¨sh Buxoroliklar» hukumati, Jumhurrais Usmonxo`ja, Fitrat va boshqalar yo`lboshchilik qilishgan; Xiva jadidlariga «¨sh Xivaliklar» hukumati, Jumhurrais Xoja Pahlavon Niyoz Hoji etakchilik qilgan.

O`lkada milliy matbuot yuzaga kelgunga qadar Bog'chasaroydan chiquvchi «Tarjimon», Qozondan chiqadigan «Vaqt», «Yulduz» va boshqa gazeta va jurnallar Turkiston jadidlari faoliyatida o`zining sezilarli ta`siriga ega edi. Ushbu nashrlar orqali taraqqiyparvarlar dunyo xalqlarining milliy uyg'onish g'oyalari bilan tanishib borganlar. Masalan, Farg'onaning peshqadam taraqqiyparvarlaridan Is'hoqxon Ibrat ham 1883-1885 yillarda Qo`qonning Tunqator madrasasida ta`lim olib yurgan paytlarida «Tarjumon» gazetasi bilan muntazam ravishda tanishib borgan. Adabiyotchi olim U. Dolimovning bergan ma`lumotlariga ko`ra, Ibrat tomonidan tashkil etilgan «Is'hoqiya» kutubxonasida «Tarjumon» gazetasining hatto 1884 yilgi boylamlari ham bo`lgan.

Turkistonlik ko`pchilik jadidlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshishida o`lkaga kirib kelgan chet el adabiyotlaridan tashqari, jadidlarning ilg'or mamlakatlarda bo`lib, ulardagi mavjud tuzum va tartiblar bilan tanishganliklari ham katta rol' o`ynaydi. M.Behbudiy, A.Fitrat, O. Mahmudov, I. Ibrat, M. So`fizoda, A. Ibodiy, H. H. Niyoziy va boshqa jadidlar Rossiyaning markaziy hududlari, Turkiya, eron, Hindiston, Misr, Xitoy, Arabiston, Frantsiya, va Italiya kabi mamlakatlarda bo`ldilar. U erlardagi kishilarning turmush-tarzi, mamlakatlarning taraqqiyotga erishuv darajasi va sabablarini o`rgandilar. Ularning barchalari taraqqiyotning negizi ilm va ma`rifatda ekanligini o`z sayohatlari natijalarida angladilar va buni omma orasida tashviq qilish uchun faoliyatga kirishdilar.

O`lkadagi ijtimoiy adolatsizlik, yerlilarni jaholat botqog'ida, qashshoqlikda qoldirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan mustamlakachilik siyosati, mahalliy xalq ilg'or fikrli ziyolilarining tabiiy ravishda noroziligini keltirib chiqarar edi. Turkiston Rossiyaning bevosita mustamlakasi bo`lganligi bois, markaziy hududlardagi siyosiy o`zgarishlar bu erlarga ham sezilarli ta`sirini o`tkazar edi.

Ilg'or ziyolilar Turkiston metropoliyaning xom-ashyo bazasiga aylanishi bilan birga, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabhalarda jahon taraqqiyotidan ortda qolayotganligini sezdilar. Vatan taqdiri haqidagi bunday o`ylar oxir-oqibatda mustaqillik uchun kurashning o`ziga xos yo`llarini izlab topishni taqozo etdi. Mavjud vaziyatda, ya`ni kuchli siyosiy-harbiy tayanchga ega bo`lgan mustamlakachi hukumat bilan millat kelajagi yo`lida bellashishning yagona yo`li, xalqni dunyoviy ilm-fan bilan qurollantirish, xalqaro talablar doirasidagi mutaxassislar tayyorlashdan iborat edi. Bu esa o`z o`rnida jadidchilik harakatining kelib chiqishiga sabab bo`ldi. Rossiya musulmonlari orasida bu harakatni g'oyaviy rahnamosi bo`lib I. Gasprali(1851-1914) chiqdi.

Jadidchilik dastlab haqli ravishda ma`rifatparvarlikdan boshlandi. Turkistonda Muftiy Mahmudho`ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o`g'li, Fayzulla Xo`jayev, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo`jayev A. Zohiriy, O. Mahmudov, I. Ibrat, Hamza, CHo`lpon, A. Ibodiy va boshqalar bu harakatning boshida turdilar.

Rus amaldorlaridan biri, Turkiston general-gubernatori A. N. Kuropatkin: «Biz erli xalqni taraqqiyotdan 50 yil orqada ushlab turdik»,-deb xaqli ravishda tan olgan edi. Lekin bunday «ushlab turish»lar erksevar Turkistonliklarni ozodlik yo`lidagi harakatlarini yo`qqa chiqara olmas edi. Turkiston xalqlari hech qachon bosqinchilar qo`l ostida abadiy qolib ketgan emas.

SHu bois rus mustamlakachiligiga qarshi kurash turli ko`rinishlarda bo`lsa-da, davom etdi. Bu kurash boshida millatning ilg'or fikrli ziyolilari turdilar. Dastlab maktab-maorif, yosh avlod ta`lim va tarbiyasini isloh etish g'oyasidan boshlangan bu harakat, keyinchalik o`z ichiga siyosiy muammolarni ham keng ko`lamini qamrab oldi.

Turkiston tarixiga nazar tashlar ekanmiz, mintaqa xalqlari hayotida hech qaysi harakat jadidchilik singari ulkan ta`sir kuchiga ega bo`lmaganiga guvoh bo`lamiz. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston mintaqasi, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy va ma`rifiy harakat hisoblanadi. Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek G'aspirali (1851-1914) rahbarligida Qrim tatarlari o`rtasida vujudga kelgan. Bu harakat namoyandalari ko`pincha o`zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. ¤sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruratini tushunib etgan edilar. Jadidchilik mohiyat e`tibori bilan, avvalo, siyosiy harakat bo`lgan. Uning shakllanish, rivojlanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo`lib, ularni shartli ravishda to`rtga bo`lish mumkin. Turkiston o`lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududida bu davrlar: 1-davr (1895-1905); 2-davr (1906-1916); uchinchi davr (1917-1920); to`rtinchi davrni (1921-1929) o`z ichiga oladi.

I.1885-1895 yillar: G. Ismoilbeyning «Tarjumon» gazetasi ta`sirida Qo`qonda yangi-jadid usulidagi maktablar ochish harakatlari boshlanib, ular asta-sekin rus-tuzem maktablari bilan raqobatlasha boshlagan.

II.Qrimdagi Gaspra shahridan G. Ismoilbeyning Buxoro va Samarqandga tashrifi, Buxoro amiri bilan uchrashishi natijasida 1895 yilda jadid maktablarini tashkil etish davri-Buxoroda Jo`raboy, Samarqandda A. SHakuriy, S. Aziziy, A. Munzim, Mulla Qilich, Toshkentda Munavvar Qori, A. Avloniylar, Qo`qonda Hamza, Namanganda Is'hoqxon Ibrat, So`fizoda va boshqa siymolarimiz ochgan jadid maktablari o`z faoliyatlarini olib bordilar.

III. 1905-1914 yillar jadidchilikning maktab-maorifdan kengroq gazetachilik, ya`ni ro`znomalar va jaridalar chop etish, matbaa ishlarini yo`lga qo`yish, ilm-fan, adabiyot, madaniyat-maorifni milliylashtirish bosqichi.

IV. 1914-1917 yillar jadidchilikning o`ta ijtimoiy-siyosiy yo`nalish kasb etishi, jadidchilik siyosiy firqalarining tuzilishi va ularning uch xil turli talablar qo`yishi:

1) Rossiyadan to`la ajralib chiqish; 2) Rossiya Federatsiyasi tarkibida «milliy-hududiy muxtoriyat» tuzish; 3) Rossiya unitarizmi tarkibida faqat ma`naviy-diniy muxtoriyat huquqlari kafolotiga ega bo`lish.

V. 1917 yil oktyabri-1918 yil Qo`qonda» Turkiston muxtoriyati» ning tuzilishi va uning qonga botirilib, mahv etilishi davri.

VI. 1918-1924 yillar- sho`ro tizimi tarkibida, maorif-matbaa ishlarida «Chig'atoy gurungi»ni tuzish bilan ajralib turadi.

VII. Turkiston parchalanib (1924), jadidchilikning keyingi taraqqiyoti «milliy jumhuriyatlar» doirasida bordi. Jadidchilik asosan madaniyat-maorif, maktab va matbaa ishlarida «Chig'atoy gurungi» g'oyalarini zimdan amalga oshirishga, milliy-ozodlik harakatini jonlantirishga urindi.

VIII. 1931 yildan to 1937-38 yillar orqali 50-yillarning birinchi yarmigacha qatag'onga uchrash davri.

Umumiy diniy va milliy maqsadlar yo`lidagi mushtaraklik Rossiyaning ilg'or musulmon ziyolilarini yagona g'oya tevaragida jipslashishga chorladi. Va nihoyat 1905 yilning 15 avgustida Nijniy Novgorodda Rossiya musulmonlarining I syezdi chaqirildi. S`ezdga Rossiyaning turli mintaqalaridan 150 ga yaqin delegatlar tashrif buyurdilar. Birinchi musulmon syezdi Butunrossiya musulmonlari ittifoqi («Ittifoqi muslimin»)ni tuzilganligini e`lon qildi. Ittifoq Nizomi esa, «Kaspiy» va «Hayot» gazetalarining muharriri bo`lgan Alimardonbek To`pchiboshev tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib, 1906 yil yanvar oyida Sankt-Peterburg shahrida bo`lib o`tgan musulmonlarning II syezdida tasdiqlandi.

«Ittifoq« dasturi esa, 1906 yil 16-21 avgust kunlari Nijniy Novgorodda bo`lib o`tgan Butunrossiya musulmonlarining III syezdida qabul qilindi. «Ittifoqi muslimin»ning tuzilishi Rossiya musulmonlari ijtimoiy-siyosiy harakatlari rivojida katta ahamiyatga ega bo`ldi.

1904-1905 yillardagi Rus-yapon urushida Rossiyaning mag'lubiyati, imperiyadagi barcha ezilgan xalqlar oldida podsho mustabid tuzumining keskin obro`sini tushishiga olib keldi. Bu

esa, siyosiy fikrlar rivojiga turtki berib, milliy ozodlikka erishish orzularini ushalishiga ishonch uyg’otdi. SHarqdagi inqiloblar va o`lkaga u erlardan kirib kelgan turli xil g’oyaviy oqimlar, bu erlardagi muholif kuchlarning birlashishi, milliy-siyosiy tashkilotlar holiga kelishi va rivojlanishi uchun muhim omil bo`lib xizmat qildi.

Turkistonning jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidan orqada qolayotganligini ilg’or fikrli musulmon ziyolilari anglab etgan edilar. Turkiston jadidlari ijtimoiy va mustamlaka zulmidan xalos bo`lishning bosh omili deb, ma`rifatni bildilar. Bu sohada ular faqat nazariy asoslar bilangina cheklanmadilar, balkim yangi usul maktablari, hayriya jamiyatlari ochdilar. Omma orasida ma`rifatni keng yoyish, millatning siyosiy ongini yuksaltirish borasida ommaviy nashrlar, bosmaxonalar ochdilar, teatr tomosholari tashkil etdilar. Bu borada Munavvar Qori Abdurashidxon o`g’li, Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo`jayev, Toshpo`latbek Norbo`tabekov, Abdurauf Fitrat va boshqalarning xizmatlari beqiyos bo`ldi.

Turkiston o`lkasidagi dastlabki taraqqiyparvar jamiyatlar, ma`lumotlarga ko`ra, 1905-1907 yilgi birinchi rus inqilobidan so`ng, eron va Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar ta`sirida vujudga kelgandir. Osiyo mamlakatlaridagi inqilobiy harakatlar, musulmon dunyosidagi, xususan, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va diniy fikrlarning taraqqiyotida muhim bosqich bo`lib xizmat qildi.

Turkistonning uyg’onishi podsho hukumatini, rasmiy doiralarni befarq qoldirmadi. Viloyatda tuzilgan har qanday jamiyat va tashkilotlar mustabid hukumat ma`muriyati tomonidan qo`yilgan ayg’oqchilarning kuzatuvi ostida bo`lgan.

Birinchi jahon urushi yillarida o`lka ziyolilari ham ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralasha boshladilar. Urushda Rossiyaning ketma-ket mag’lubiyatlari nafaqat xalqaro maydonda, balki imperiyaning mustamlaka o`lkalaridagi omma o`rtasida ham uning obro`sini tushirib yubordi. Xuddi shu davrda Turkistonda ham milliy nashrlar va jamiyatlar soni ortib borib, jadidlar tomonidan qoloqlikdan qutulish va milliy taraqqiyot sari dadil qadamlar tashlana boshladi.

Ushbu harakatlarning samarasi o`laroq, 1916 yil Qo`qon shahrida taraqqiyparvarlar tomonidan «G’ayrat» jamiyati tuziladi. Bu jamiyatning o`z oldiga qo`ygan maqsadlari avvalom bor, yangi usul maktablarini darslik, daftar va o`quv qurollari bilan ta`minlash bo`lgan bo`lsa, ikkinchi tomondan erli xalq orasida kitob, gazeta va jurnallarni mahalliy tilda chop etib tarqatishdan iborat bo`lgan. Qo`qonning eski shahar qismida joylashgan jamiyatga qarashli do`konda, o`sha davr mahalliy aholi orasida mashhur bo`lgan Orenburgdan chiqadigan tatar tilidagi «Vaqt», Moskvadan chiquvchi tatarcha «So`z» gazetasi, Bokudan chiqadigan «Ochiq so`z» gazetalarininng savdosi qizg’in bo`lgan. Bundan tashqari jamiyat tomonidan rus tilidagi gazetalardan faqat Andijonda nashr etiladigan «Turkestanskiy Golos’» gazetalari tarqatilgan.

1916 yil 9 oktyabrda Qo`qon shahrida taniqli jadid, Obidjon Abduholiq o`g’li Mahmudov xonadonida jamiyat nashr afkorini tashkil etish, xususiy bosmaxona masalalarini hal qilish uchun navbatdagi yig’ilish bo`lib o`tadi. Nashr uchun Qo`qonning mahalliy boylari mablag’ ajratajaklarini bildiradilar. Obidjon Mahmudov bu borada faollardan hisoblangan. Mahfiy politsiya ma`lumotlariga ko`ra, «G’ayrat» jamiyati «yosh sartlarning to`ng’ich tashkilotlaridan» bo`lgan. Uning tashkil topish jarayoni 1914 yilga borib taqaladi.

Mustamlakachilar tomonidan Toshkentda chop etiladigan jadidlarning «Sadoyi Turkiston» gazetasi yopib qo`yilgach, taniqli jadid Ubaydullaxo`ja Asadullaxo`jaev Andijonga kelgan edi. Uning Andijonga kelishi ham hukmron mustabid hukumatning milliy taraqqiyparvarlarga qarshi olib borgan ta`qib va tazyiqlar o`tkazish siyosatining natijasidir. Milliy matbuotimizning qaldirg’ochlari «Taraqqiy», «Hurshid», «SHuhrat» va boshqa gazetalarning hech qancha soni chiqmasdan yopib qo`yilishi, chor ma`murlarining o`lka halqlarini har jihatdan asoratda saqlashga intilib olib borgan siyosatining bir ko`rinishi edi. Xuddi shunday ayanchli qismat «Sadoyi Turkiston» gazetasi boshiga ham tushdi. SHundan so`ng muharrir U. Asadullaxo`jaev gazetani Andijonda chiqarishga harakat qildi. Biroq Farg’ona viloyati harbiy gubernatori U. Asadullaxo`jaevning gazeta chiqarishiga ruxsat bermaydi.

1916 yilga kelib, bir guruh mahalliy jadidlar tomonidan Andijon shahrida «Taraqqiyparvar» jamiyati tuzildi. Bu davrga kelib o`lka jadidlarining siyosiy faolligi ancha oshgan bo`lib, o`z yig'ilishlarida, gazeta va jurnallardagi maqolalarida nafaqat ma`rifiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni ham ko`tarib chiqa boshlagan edilar. Andijondagi bu jamiyat taniqli jadid U. Asadullaxo`jaev rahbarligida tuzilgan bo`lib, bu haqda chor ayg'oqchilari ham tez orada xabar topadilar.

Andijonlik jadidlar o`zlarini «taraqqiyparvarlar» deb ataganlari holda, omma orasida ularni «Padarkush»lar deb ham yuritilgan. Bu nom ular tomonidan sahnaga qo`yilgan Mahmudxo`ja Behbudiyning «Padarkush» pyesasi tufayli qo`yilgandir. Bu pyesa Turkiston o`lkasining ko`plab shaharlarida yangi usul maktablarining o`qituvchilari tomonidan ijro etilgan. Teatr tomoshasi eski usul maktablari tarafdorlari-qadimchilar tomonidan yaxshi kutib olinmagan va shu sababli ham ular barcha taraqqiyparvar yangi usulchilarni ya`ni, jadidlarni shu nom bilan atay boshlaganlar.

Butun Turkiston o`lkasida bo`lgan kabi, Andijonda ham mustamlakachi ma`murlar jadidlarni o`zlarining eng xavfli dushmanlari deb bilar edilar.

Andijonda ilg'or fikrli yoshlar jamiyatining paydo bo`lishi, ularning o`lka ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol aralashib borishi, mustamlaka hukumat ayg'oqchilarining e`tiborini o`ziga tortgan.

Taraqiyparvarlar xalq orasida tashviqot-targ'ibot ishlarini yaxshi yo`lga qo`yganlar. Ular uezd ma`murlarining poraxo`rligini tovlamachiligini omma orasida oshkor etganlari uchun ham mustamlakachi ma`muriyat ulardan qutilish choralarini izlay boshlaganlar, Andijon uezdi boshlig'i polkovnik Brjezitskiyning 1916 yil 17 oktiyabrda Turkiston rayon muhofaza bo`limi boshlig'i nomiga yuborgan ma`lumot xatini fikrimizni tasdig'i sifatida keltirish mumkin: «...Hozirda yuqorida ko`rsatilgan CHaykin va Xo`jayev guruhi o`lkadan chiqarib yuborilmas va ularning «Turkestanskiy Golos» gazetasi yopilmas ekan, ularning(taraqqiyparvarlarning-muallif)zararli faoliyati bilan kurashimiz kuchsizligicha qolaveradi...».

Uyezd ma`muri ta`kidlagan yuqoridagilar kimlar edi? Ular halq orasida o`z nufuziga ega bo`lgan mahalliy boylardan Ahmadbek Hoji Temirbekov, Poshshaxo`ja Umarxo`jayev, uezd sud'yasi tarjimoni Akbarali Boytursunov va boshqalar edi.

Mustamlakachi amaldorlarga «Taraqqiyparvar» jamiyati g'oyalarini Andijon shahri fuqorosi Mirza Ahmad Qushbegiyev quyidagicha sharhlab beradi:- «Taraqqiyparvar» jamiyatining bosh g'oyasi yosh turklarga o`xshashlikka harakat qilishlikdir. Boshqa mamlakatlarda bo`layotgani kabi go`yoki xalqqa ichki va siyosiy ozodlik berishga harakat qilish uning rejasiga kiradi. Aholi orasida o`zlarining ommabopligini ko`tarish uchun ular siyosiy - diniy asosga tayanishga intilmoqdalar. Masalan: ular kishilar to`planib siyosiy mavzudagi yig'inlar quradigan joylarda o`z suhbatlarini olib boradilar. Bugungi kunda musulmonlar orasida keng tarqalgan «Vaqt» gazetasi habarlaridan foydalanadilar. Ayni paytda bu jamiyat xalq orasida ikki tomonlama ta`sirga ega, keksa kishilar ulardan urf-odat va diniy tartiblarni buzuvchilar deb shubha qiladilar. Rus ma`lumotiga ega bo`lgan va rus tilini biladigan ko`pchilik yoshlar esa ular bilan hammaslakdirlar va ularni g'oyalarini tarqatishda yordam beradilar. Mahalliy ma`muriyat amaldorlari ulardan juda qo`rqadilar, duch kelib qolganda esa, birinchi bo`lib, hurmat ehtirom ko`rsatadilar. Ilgarilari esa ularga past nuqtai-nazar bilan qarar edilar. Agar bu jamiyat shu zaylda jazosiz amalda mavjud bo`lsa, u holda u o`z ichidan shafqatsiz, zolim unsurlarni etishtirib chiqaradi. Xalq qo`rquv tufayli ularning tuzog'iga ilinib, ularning irodasiga qarshiliksiz bo`ysunuvchi bo`lib qoladi.

Yuqoridagi hujjatdan «Taraqqiyparvarlar»ning omma orasidagi mavqeini tobora ortib borishi mustabid hukumatni nihoyatda tashvishga solgani, ularni nafratini qo`zg'ab, keskin choralar ko`rishga undagani namoyon bo`ladi.

«Taraqqiyparvar», «G'ayrat», «Ko`mak», «Tarbiyai atfol», «SHamsinur» jamiyatlari o`lkadagi ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralashgan, omma orasida o`z obro`si va sezilarli ta`siriga ega bo`lgan tashkilotlar edi.

**3-MAVZU: JADID MILLIY XALQ MAORIFI**

**REJA:**

1. **Dastlabki yangi usul maktablarining paydo bo`lishi.**
2. **Rus-tuzem maktablari va milliy ziyolilarimizning unga bo`lgan munosabatlari.**
3. **Mustamlaka ma`murlarining yangi usul maktablariga bo`lgan munosabatlari.**

Turkiston jadidlari o`zlarining dastlabki faoliyatlarini ma`rifatparvarlikdan boshlagan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka etaklashdek muqaddas g’oya eng ilg’or qarashli jadid ziyolilarning fikrida bo`lgani holda, mavjud sharoitda unga etishuv iloji yo`q edi. Unga faqat tinimsiz ma`rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan etuk mutaxacsislarsiz tasavvur eta olmaganlar. SHu munosabat bilan ular asosiy e`tiborni mahalliy xalq bolalaridan ilg’or fikrli, bilimli kadrlar tayyorlashga qaratganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktab-maorif ishlarini yaxshi yo`lga qo`yishni va yosh avlod ta`lim-tarbiyasini birinchi navbatdagi masala, deb bildilar. Shu maqsad yo`lida o`tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda, yangi usul maktablari ochish uchun harakat boshladilar.

Shunday maktablarning tashkil topishiga bir tomondan chor ma`murlari, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqelikka o`zining tor dunyoqarashi nuqtai-nazaridan baho beruvchi kishilar to`sqinlik qildilar.

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma`murlar nazaridan chetda qolmagan. XX asr bo`sag’asida o`lkamizda yangi usul maktablarining paydo bo`lishi ham ularni g’oyatda tashvishga sola boshladi.

Turkiston bosib olingach, bu erda mustamlakachilar o`zlarining rus-tuzem maktablarini ocha boshladilar. Xalq maorifi sohasida hukumat rus-tuzem maktablari bilan yonma-yon, yangi usul maktablarining paydo bo`lishi sira ko`z yumib bo`lmaydigan hol ekanligi, bu maktablar zamon talablari asosida kelib chiqqanligini podsho ma`murlari ham yaxshi anglar edilar.

Eski usul maktablari bolalarga asosan diniy tarbiya berish bilan cheklanganligi, zamonaviy ilm-fanlarning o`qitilishi bu maktablar uchun yot hodisa ekanligini va shu sababli ham bu maktablar mustamlakachilar uchun unchalik xavf tug’dirmasligini chor ma`murlari yaxshi tushunib etgan holda, yangi usul maktablariga jiddiy e`tibor qarata boshladilar. Shu sababli ham Turkistonda maktab ishlarini asosiy vazifalardan biri bo`lishi kerak deb bildilar.

Yangi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik karta va o`qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o`qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablari eski usul maktablaridan ta`limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e`tiroflar o`sha davr matbuotida ham o`z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo`lib, 1 chi sinfda bolalarga o`qish va yozish, 2 chi sinfda tajvid, hisob, 3 chi sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o`rgatilgan. 1900 yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o`quvchilaridan imtihon olingan. O`quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekovning yozganidek: «...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma`lum va ravshan bo`ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to`g’ridur...».

Jadid maktablarining soni ortib borgan sari, ulardagi ta`lim tizimi ham takomillashib borgan. Imtihonlar keng xalq ommasi ko`z o`ngida, qishloq yoki shaharlarning ilg’or ziyoli va ulamolari davrasida «Imtihon majlisi» nomi bilan o`tkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul maktablari o`zining afzallik tomonlarini to`liq namoyish eta olgan. Aksariyat omma imtihondan mamnun bo`lgan holda tarqalganlar.

Ilg’or fikrli kishilarning sayi-harakatlari bilan ham ko`plab yangi maktablar ochilgan. Ba`zan muallimlik uchun chetdan kishilar taklif etilgan. Masalan, O`sh uezdiga qarashli Qurshob qishlog’ida qishloq boshqaruvchisi erali Mingboshi 1914 yil yanvar oyida yangi usul maktabi ochib, Toshkentdan G’ulom Zafariyni muallimlik uchun olib keladi.

Ayrim adabiyotlarda Turkistondagi dastlabki yangi usul maktabi sifatida Is’hoqxon Junaydulloxon Xo`ja o`g’li (Ibrat)ning maktabi eslatiladi. Is’hoqxon Ibrat (1862-1937) 1878-1886 yillari Qo`qonning Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida ta`lim oladi. O`sha kezlari u Bog’chasaroyda nashr etiladigan «Tarjumon» gazetasi sonlari bilan ham muntazam tanishib turgan. Ushbu nashr orqali u yangi usul maktabining afzalliklari, ta`lim usullari, darsxonalarning tuzilishi va darsliklari haqida ma`lumotlar olib borgan. Madrasani tamomlagach, 1886 yil To`raqo`rg’onga qaytadi va tovush usuliga asoslangan yangi maktab ochadi. Lekin maktab tez orada yopib qo`yiladi. U 1907 yilga kelib, ikkinchi bor maktab ochadi. Uning maktabida Evropa tillaridan ham darslar o`tilgan.

CHor ma`murlari yangi usul maktablaridagi darsliklar, ularning siyosiy-mafkuraviy yo`naltirilganligiga ham e`tiborni qaratib borganlar. O`quv inspektsiyasi tomonidan ushbu maktablar qattiq nazorat ostiga olingan.

Usuli savtiya maktablari sonining ortib borishi ularni darslik va boshqa o`quv qo`llanmalari bilan ta`minlash muammosini keltirib chiqardi. Bu vazifalarni ham yangi maktab muallimlari o`z zimmalariga oldilar. Turkiston taraqqiyparvalaridan Said Rasul Azizov, Munavvar qori, M.Behbudiy, A. Ibodiy, A. Zohiriy va boshqalar maktablar uchun darsliklar yozdilar. Masalan, A.Zohiriy 1916 yili «Imlo» kitobini yozdi va kitobni Qo`qondagi «G’ayrat» kutubxonasi tomonidan nashr ettirdi. H. H. Niyoziy esa, maktablar uchun «Engil adabiyot», «O`qish kitobi», «Qiroat kitobi» kabi kitoblarni yozadi. SHuningdek, Namangan taraqqiyparvarlaridan Dadamirza qori «Muftoh ul-avval» deb nomlanuvchi darslik yozgan edi.

YAngi usul maktablaridagi o`qituvchilarning ko`pchiligi madrasalarda tahsil olgan bo`lib, ba`zilari esa xuddi shunday maktablarni tamomlagan kishilar edilar. Darslar o`quv jadvali asosida, tsenzura ko`rigidan o`tgan darsliklar bo`yicha olib borilgan. Maktablarda o`quvchilar soni 50 tadan 145 tagacha etgan. Barcha maktablarda har oyiga o`qish uchun 50 tiyindan 1 so`m 50 tiyingacha haq olingan. Kambag’al oilalarning bolalari esa ba`zan to`lovdan ozod etilganlar.

O`quv inspektsiyasi tomonidan davlat tilini bu maktablarda o`qitish tavsiya etilgan. YAngi usul maktablarida tabiiy fanlarning o`qitilishi chor ma`murlarini g’oyat tashvishga solar edi. YAngi usul maktablari o`zining keng ko`lamliligi, o`qitish sifati bilan eski usul maktablaridan ustin bo`lib, mahalliy aholi ishonchini qozongan va hukumat rus-tuzem maktablariga nisbatan erli xalq hayotiga tezroq kira boshlagan edi.

Mustamlakachilar imperiya manfaatlarini ko`zlab, o`lkada rus va mahalliy xalq bolalari uchun rus-tuzem maktablarini tashkil etdilar. Bosqinchilar tomonidan mahalliy xalq turmushiga kiritilgan har qanday yangilikda xoh yashirin bo`lsin, xoh oshkora qandaydir siyosiy maqsadlar yotadi. Rus-tuzem maktablarining Turkistonda joriy etilishi ham bunday maqsadlardan xoli emas edi.»...Ulkan ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat kasb etishi lozim» degan nuqtai nazar bilan ish tutuvchi general-gubernator Rozenbax davrida o`lkada dastlabki rus-tuzem maktablari ochildi. Ilg’or ziyolilarimiz o`sha davrdayoq bu makkorona siyosatni to`g’ri anglab etgan edilar. Bunday maktablarni Ismoilbek Gasprinskiy ham o`z vaqtida tanqid qilgan bo`lsa, M. Behbudiy:»...Russkiy-tuzemniy maktablarig’a o`qig’onlar ziyoli tugul, hiyoli hisoblanmaydurlar. Ular faqat ruscha chalasavod kishilardir»,- degan edi.

Jadidlar davriy matbuotda ham rus-tuzem maktablariga nisbatan aholining qarashlarini ifoda etuvchi maqolalarni uchratish mumkin: «...Iskobelev uezdiga tob`e Oltiariq qishlog’ida birgina tuzemniy shko`l bor. Lekin bu maktabning o`qituv jihati butunlay tartibsiz...Qarilarni qo`yaylik yoshlar ham bunga hech bir diqqat qilmaydurlar...aytur so`zlari shko`lga bola bersang yo`ldan ozadur demakdin iboratdur...».

Musulmon o`quv yurtlariga qarama-qarshi qo`yilgan rus-tuzem maktablari aholini ozchilik qismi orasida biroz e`tibor qozongan bo`lishiga qaramay, bu maktablar hech qachon ommaviy bo`la olmasligini chor ma`murlari yaxshi anglab etgan edilar. Mustamlakachilar qanday qilib

bo`lmasin, o`lka xalqlarini tashqi dunyo bilan aloqa qilishlariga yo`l qo`ymaslik, ular diqqatini jahon miqiyosidagi o`zgarishlardan chetga tortishga harakat qilar edilar.

Podsho ma`murlarining ta`qiblariga qaramay jadid maktablarining soni ortib boraverdi. Masalan, ularning soni Qo`qon shahrida 1914 yil yanvariga kelib 18 taga etdi.

Asrimiz boshlariga kelib Turkistonning ko`pgina shahar va qishloqlarida usuli jadid maktablari mavjud edi. Samarqand, Toshkent, Qo`qon, Namangan, Andijon, O`sh, Marg'ilon kabi yirik shaharlarda jadid maktablari bo`lgani holda, kichik shahar va qishloqlarda ham maktablar ochila boshladi.

Turkiston taraqqiyparvarlarining ommaviy nashri hisoblanmish «Sadoyi Turkiston», jadidlar ma`rifatparvarlik g'oyalarini tarqatishdagi asosiy vosita bo`ldi.

Turkiston jadidlari Evropa xalqlarining bu qadar taraqqiy qilishlarining bosh sababi, ularda maktab-maorif ishlari yaxshi yo`lga qo`yilganligida ekanligini anglab etib, bu fikrlarini o`z maqolalari orqali gazeta sahifalarida aks ettirdilar.

Namanganning faol taraqqiyparvarlaridan Dadamirza qori «Sadoyi Farg'ona» gazetasidagi maqolalarining birida yurtdoshlarini asosiy e`tiborni ilm va maktabga qaratishga chaqirgan edi: «...Hamma keraklardin ortuqroq kerak maktabdur...Islomiyat har bir musulmonga ilm o`qumoqni farz qilub, qobiliyati bo`lgan insonga ilmni taklif qildimu? ¨ki ba`zi kishilarning o`qumoqlari ila boshqalar ozod etildilarmu? Éo`q, mundog' emas». Ko`proq vaqtini bolalar tarbiyasiga bag'ishlovchi ayollar-onalarning ilmiy-ma`rifiy saviyasi bolani qay yo`sinda kamol topishiga o`zining ulkan ta`sirini ko`rsatadi, albatta. SHu bois ma`rifatni xalq orasiga keng yoyishning yana bir yo`li, o`g'il bolalar bilan birgalikda qiz bolalarning ta`lim va tarbiyasiga ham jiddiy ahamiyat berish edi.

Turkiston taraqqiyparvarlari maorif sohasida asosiy e`tiborni boshlang'ich ta`lim islohiga qaratdilar. Ularning ma`rifatparvarlik harakatlari zoe ketmadi.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarida ta`lim olgan o`quvchilardan keyinchalik ilm-fan, texnika, adabiyot va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida nom taratgan arboblar etishib chiqdilar.

Yangi usul maktablari jadid ma`rifatchiligining ilk ko`rinishi bo`lishi bilan birga to taraqqiyparvarlik harakati sof siyosiy qiyofa kasb etgunga qadar ham o`z ahamiyatini yo`qotmadi.

## 4-MAVZU: JADID MILLIY MATBUOTI

**REJA:**

1. **Jadid matbuoti jadidchilik g'oyasining targ'ibotchisi.**
2. **Jadid matbuotining o`z davridagi ahamiyati.**
3. **Jadid teatri.**
4. **Adabiyot va san'at**

Jadidlar ma`rifatchilik faoliyatining yana muhim bir tarmog'i - teatr san`ati edi. XX asrning 10-yillari Turkiston madaniyati tarixiga yangi o`zbek milliy teatrining ham vujudga kelish davri bo`lib kiradi. Millatni ma`rifat nuri bilan uyg'otib, ozodlik va taraqqiyot tantanasini orzulagan jadid ziyolilari, teatrni o`z maqsadlar yo`lidagi buyuk amallardan biri deb tushundilar. Millatning najotini ma`rifatda ko`rgan jadid taraqqiyparvarlari o`z qarashlarining keng miqyos kasb etishida teatrning benazir ahamiyatini tobora chuqurroq his etmoqda edilar. Qolaversa, spektakl namoyishlaridan tushadigan mablag' joylarda moddiy qiyinchilikdan qiynalib va yopilib qolayotgan «usuli jadid» maktablarini kerakli o`quv anjomlari bilan ta`minlash uchun ham zarur edi.

Joylardagi sahna ishlarining eng oddiy tafsilotlaridan tortib tashkiliy, ijodiy muammolarigacha «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona» gazetasining sahifalarida yoritib borildi. Gazeta jamoasi teatr san`atining ham ma`rifat g'oyasi, milliy ijtimoiy ong va pirovardida istiqlol tuyg'ularini shakllanishi va mustahkam qaror topishi uchun katta minbar

ekanini, maktab, matbuot va turli jamiyatlar qatoridagi g'oyat zarur maydon ekanini yaxshi anglab ish tutardilar.

Turkiston teatr san`atining to`ng'ich sahna asari muftiy M. Behbudiyning «Padarkush» dramasi edi. Bu asar Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda ijro etilgach, 1914 yilning fevral oyi oxirlarida muallif boshliq samarqandlik havaskorlar va mahalliy yoshlar hamkorligida Qo`qonda ham sahnaga qo`yiladi.

Teatr orqali ma`rifat tarqatish g'oyasiga e`tibor qaratib, Andijon jadidlari ham 1914 yilning 6 iyunida «Padarkush»ni sahnaga qo`ydilar. Asar muvaffaqiyat bilan ijro etildi. Teatrdan so`ng, taraqqiyparvar yoshlar A. Avloniyning «O`qusun yoshlarimiz» she`rini o`qib, xaloyiqni olqishini olganlar. Teatr tomoshasidan bir yarim ming so`m sof foyda tushadi. Daromadning 20% ini Andijondagi quriladigan qizlar gimnaziyasi hisobiga o`tkaziladi.

Ma`rifatparvarlikning bu sohasida ham Turkiston jadidlari o`zaro hamkorlikda ish yuritganlar. Ushbu davrda teatrchilik harakati Toshkentda anchagina tez taraqqiy etmoqda edi. «Sadoyi Turkiston»ning moddiy jihatdan ta`minlash maqsadida gazeta qoshida sayyor teatr truppasi tuziladi. Mazkur guruh 1915 yilning yanvar oyida Farg'ona viloyatiga safar uyushtirib, shu erlik jadidlar bilan hamkorlikda teatr va adabiyot kechalari tashkil qilishni o`z rejalariga kiritadilar. Bundan ko`zlangan maqsad milliy matbuotning ravnaqi uchun xolis xizmat qilish edi. Farg'onaga safar qilgan guruh tarkibida A. Avloniy, Abdulla qori erg'oziev, Boyazidskiy, N. Xo`jayev, Qudratulloh Ahmatullaev, Qudratulloh YUnusovlar bo`lganlar.

Keyinchalik Turkistonning boshqa shaharlarida ham mahalliy havaskor yoshlar tarafidan teatr tomoshalari qo`yiladi.

Taraqqiyparvarlar xalq ommasini milliy urf-odatlarni yo`lga qo`yish borasida ham ma'rifatli bo`lishga chorlaganlar. Kundalik turmushimizda to`y-tomosha, ma`raka va yig'inlar alohida o`rin tutadi. Bularsiz kishilar turmushini tasavvur etish qiyin. Lekin asosiy masala ushbu marosimlarning qay yo`sinda o`tkazilishiga bog'liqdir. Millatimiz ichidan etishib chiqqan taraqqiyparvarlar avvalo xalqni ma`naviy-ma`rifiy saviyasini yuksaltirishni maqsad qilib olgan edilar. Albatta ma`naviy taraqqiyot iqtisodiy taraqqiyot poydevori ustiga quriladi. Keng ijtimoiy - milliy islohatlarni amalga oshirish uchun sarmoya kerak bo`ladi. Sarmoyani ozod etishning birdan bir yo`li maishiy hayotdagi isrofgarchiliklarga barham berish orqali bo`lar edi. Shu bois jadidlar o`z nashr afkorlari orqali hashamdor to`ylar, serharajat va sermashaqqat azadorlik marosimlari, to`y va azalarni riyokorlik, dabdababozlik bilan o`tkazishga jiddiy ravishda qarshi chiqdilar. Taraqqiyparvarlar maishiy turmushga e`tibor qaratib, xususan, milliy to`ylar va ularning o`tkazilishiga doir qimmatli fikrlar berdilar.

«Sadoyi Farg'ona» ning 1914 yilgi 2-may sonida «Hatna to`yi» maqolasi berilgan. Maqola jarayonida muallif o`z davri to`ylaridan shikoyat qiladi. Maqolada hatna to`ylaridagi ortiqcha sarfu-harajatlardan kuyungan holda, bu to`ylarimiz hayr-ehson va savoblar umidida o`tkaziladi, lekin hayr-sahovat avvalom bor muhtojlarga ko`rsatilishi kerak, deyiladi. Muallif ba`zi kishilarning o`z moddiy imkoniyatlarini hisobga olmay manmanlikka berilib to`y o`tkazib, so`ngra qarzga botib, nochor ahvolga tushib qolganliklari, tomosha va uloq o`yinlari uchun qancha mablag' sarflab va qancha kishilarni ishdan qo`yayotganliklari haqida ham salbiy fikrlar bildiradi: «...Agar shul hatna to`ylarimizdan maqsad: oxirotda foydasi tegadurgon savoblik bo`ladurgon bo`lsa: bu tariqa hayr-ehson qilmoqni oxirotga foydasi bormu va savoblik bo`lurmu?»

Gazetaning 1914 yil 30-dekabr sonida yana to`y haqida fikrlar bildiriladi. Kuz kelib dehqonlar hosilni yig'ishtirib olgach, dabdabalar bilan boshlanadigan to`y marosimlari, ulardagi uloq o`yinlari, isrofgarchiliklar, to`y qiluvchilarning chor-nochor holda bo`lsa ham tomoshalar berishi qattiq tanqid ostiga olinadi. Atoqli adibimiz CHo`lpon o`zining «Sadoyi Farg'ona»dagi maqolalarining birida to`ylardagi isrofgarchilik ilgari bo`lmagani, bu holat so`nggi yillarning mahsuli ekanligini bayon etgan edi: «...Avvallari qandog' yaxshi bo`lsa, so`nggi kunlarda va so`nggi yillarda kundan-kun orqaga qarab qadam qo`ymoqdadur...Ul vaqtlarda bundog' behuda isroflik to`ylar ham bo`lmas edi...».

Farg'onaning mashhur jadidlaridan Is'hoqxon Junaydullaxonxo`ja o`g'li Ibrat o`zining maqolalarida to`ylardagi isrofgarchiliklar, ortiqcha sarf-surflar, yoshlarning ilm olishdan ko`ra ko`pkari, ya`ni uloq chopishga bo`lgan ishqibozliklari haqida o`z mulohazalarini bildiradi. U o`zining «Turkiston viloyatining gazeti»dagi maqolalarining birida bu xususidagi fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: «...Hali ham biz qadimgi, eski aqidamizda ma`lumlarki, siqilub o`z dinimizga harakat qilmay, aqcha topsak xoyu-havas ovloq to`ylarga o`n ming so`m behuda isrof uchun. Qaysi ulamo bularga fatvo bergan halol deb. Halol desa bundan zarur halollar bor, ular qolibdur. Hech kimda xalqqa nasihat yo`q, bo`lsa ham quloqqa olmaydilar. Éigitlar esa kuvkari ila yuradurlar...».

Shuningdek, Namangan jadidlarining peshqadami bo`lgan Is'hoqxon Ibrat o`z fikrlarini rivojlantirib, xalqni har-xil illatlardan saqlovchi kuch sifatida ilmni ko`rsatadi. U shunday deb yozadi: «...Bu ahvoli ba`dlarni, bu maraz dardni dorusi ilmdur...Ilmsiz kishi, asossiz devor degani. Asossiz devor g'oyatda bee`tibor bo`lur. Ilm o`qung-o`qutung ahloqi funun, zamonaga darkorlik ilmlar zarur...». Ibrat ushbu fikrlari bilan zamona yoshlarini o`z davri dunyoviy bilimlaridan ham to`liq xabardor bo`lishga undaydi.

Jadidlar ma`rifat o`choqlari hisoblanmish masjid, madrasa, maktablar xarob ahvolda ekanligi, ularning ta`miri ham ulkan savoblar qatorida ekanligini ta`kidlaydilar: «...Mana hozirdagi zamonda masjid, madrasalar kabi ibodatxonalarimiz, maktab kabi ilm va ma`rifatxonalarimiz xaroba holda, bunlarni ta`miri binosi va islohi uchun sarf qiladurgon zotlar yo`q hisobinda... To`y ishlariga o`n, yigirma, o`ttiz minglarini sarf qilganlari savob bo`lsa, maktab, madrasa, qiroatxona va shifoxona kabilarga sarf qilinsa, oning savobi shundoq hatna to`yining savobiga barobar bo`lmasmu?».

Turkiston jadidlari ma`rifatni omma orasida keng yoyish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldilar. Maktab-maorif, matbuot, badiiy asarlar, teatr san`ati orqali o`z g'oyalarini targ'ib qildilar. Millatni iqtisodiy, siyosiy maishiy turmush sohasida ma`rifatli qilishga intilib faoliyat olib bordilar. Ular o`z ma`rifiy faoliyatlari bilan bid`at va hurofotga, jamiyat taraqqiyotiga to`siq bo`layotgan har qanday holatga qarshi murosasiz kurash olib bordilar.

Mahmudxo`ja Behbudiy. (1874-1919) Turkistonda jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri, yozuvchi, jurnalist va jamoat arbobi.1874 yil 10 martda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. U 1904 yil Samarqandda birinchilardan bo`lib usuli-jadid maktabini tashkil etdi. Jadid maktablari uchun bir necha darsliklar yozdi va o`zining xususiy nashriyotida ularni chop etdi. Jumladan, «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» (qisqacha umumiy geografiya), «Kitob ul-atvol»(Bolalar uchun kitob), «Muxtasari tarixi islom»(Islomning qisqacha tarixi), «Amaliyoti islom» va boshqa darsliklar, juda ko`plab maqolalar yozdi. 1919 yil Qarshi shahrida qatl etilgan.

Munavvarqori Abdurashidxon o`g'li(1917-1931) Turkistonning taniqli jadidlaridan, pedagog, ma`rifatparvar va siyosatchi, «Sho`roi Islomiya» tashkiloti(1917-1918) mafkurachisi va rahbari. 1878 yil Toshkent shahrida tug'ilgan. 1919 yil nohaq millatchilikda ayblanib qamaldi va 1931 yilda otib tashlandi. Toshkentdagi YUnusxon madrasasida ta`lim olgan. 1901 yildan jadid maktablari ochib dars bergan. SHunday maktablar uchun «Adibi avval»(«Birinchi adib, 1907») alifbe kitobi,»Adibi soniy»(«Ikkinchi adib»,1907) o`qish kitoblari bir necha bor nashr qilingan.1908 yil uning» Sabzazor» (to`plam),» Er yuzi» (geografiyadan), «Tajvid» (Qur`on o`qish usuli) kitoblari bosilib, yangi usuldagi maktablarda darslik sifatida qo`llanilgan. 1906-1917 yillarda jadid gazetalarida muharrirlik qilgan.

Abdulla Avloniy (1878-1934)Davlat va jamoat arbobi, shoir va dramaturg. Mehnat Qahramoni(1925), professor(1930), eski maktab va madrasada o`qigan(1884-1890). Toshkentda yangi usuldagi maktablar ochgan (1904);» Turon»(1913; 1914 yildan «Turkiston») teatr truppasini,»Nashriyot» (1914), «Maaktab»(1916) kitob nashr qilish shirkatlarini tashkil qildi; «SHuhrat»(1907), «Turon»(1917) gazetalarini nashr etdi. «Ishtirokuyun» gazetasining tashkilotchisi va muharriri(1918). «Kasabachilik harakati « jurnali muharriri(1921). eski shahardagi xotin-qizlar va erlar maorif bilim yurtlari (inpros)larda mudir(1922-1929), Maorif xodimlari eski shahar soyuzi raisi(1923), Turkfront huzuridagi milliy harbiy maktab(1924-1929),

O`rta Osiyo kommunistik universiteti(SAKU; 1925-1929), O`rta Osiyo davlat universiteti(1930-1934) o`qituvchisi. Avloniy yangi usuldagi maktablar uchun darsliklar yozgan; uning she`riy to`plamlari, dramatik asarlari nashr etilgan.

Is'hoqxon Junaydulloxonxo`ja o`g'li (Ibrat) (1862-1937)__Farg'onaning mashhur taraqqiyparvarlaridan, atoqli jadid, tarixchi olim, jamoat arbobi. 1862 yil Namangan yaqinidagi To`raqo`rg'on qishlog'ida tug'ildi. 1878-1886 yillarda Qo`qondagi Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida tahsil oladi. Madrasani tugatgach o`z qishlog'iga kelib usuli-savtiya maktabini ochadi. Uning maktabida Evropa tillaridan ham darslar o`tilgan. 1908 yilda To`raqo`rg'onda «Matbaai Is'hoqiya» bosmaxona ochadi. «Xodim» taxallusi bilan she`rlar yozgan. «Lug'ati sitta al-sina» , «Jome` ul-xutut», «Tarixi Farg'ona» kabi ilmiy asarlar uning qalamiga mansubdir. 1907 yili ochgan maktabida chet tillaridan ham ta`lim berilgan. Oktyabr to`ntarishidan keyin Sovet idoralarida ishladi. 1937 yil «Xalq dushmani» sifatida qoralanib, hibsga olindi va o`sha erda vafot etdi.

Muhammadsharif So`fizoda (1869-1937) Muhammadsharif egamberdi o`g'li, So`fizoda uning taxallusidir. O`zbekiston xalq shoiri(1926). Farg'onaning taniqli taraqqiyparvarlaridan CHust shahrida tug'ilgan. Vahshiy taxallusi bilan hajviy she`rlar va g'azallar yozdi XX asr boshlaridagi milliy matbuotda ko`plab maqolalari bilan ishtirok etdi. Tiflis, Boku shaharlarida bo`lib, taraqqiyparvar adiblar bilan tanishdi. Turkiya, Arabiston, Hindiston, Afg'oniston kabi mamlakatlarda yashadi. Vatanga muhabbat ruhi bilan sug'orilgan, ona yurtni madh etuvchi she`rlar yozib, «Turkiston viloyatining gazeti», «Sadoi Turkiston» kabi gazetalarda chop ettirdi. Xalqni ma`rifatli qilish maqsadida o`z sa`i-harakatlarini ayamadi. To`raqo`rg'on tumanidagi SHaxand qishlog'ida yangi-usul maktabi ochib yosh avlodga saboq berdi. Bugungi kunda u tashkil etgan maktab uning nomi bilan yuritiladi.

Abdulvahhob Ibodiy (1877-1942) Farg'ona taraqqiyparvarlarining yirik namoyandalaridan biri Qo`qonlik jadid, maorif jonkuyari, qatag'on qurboni Abdulvahhob Ibodiydir. U o`z davrida Farg'onaning mashhur jadid muallimlaridan edi.

Abdulvahhob Ibodiy O`zbekistonda xalq maorifini rivojlanishiga munosib hissa qo`shgan, ko`plab taniqli ziyolilarni etishtirib chiqargan insondir.

Ibodiy 1877 yil Qo`qon shahrining eski aravabozor mahallasida kosib oilasida dunyoga keladi. Maktab yoshiga etgach, mahalla maktablarida ta`lim oladi. So`ngra, uni 14 yoshida madrasaga o`qishga berishadi. Keyinchalik Mulla SHoazim (No`g'oy domla) ning yangi usul maktabini tamomlagan Mulla Abdulvahhob 1901 yil o`zi ham So`fi Badal eshon Xonaqohida «Maktabi Vahobiya» nomli yangi usul maktabini ochadi.

H. H. Niyoziyning o`z kundaliklarida qayd etishicha, o`sha kezlari Qo`qon ma`rifatparvarlari tomonidan tashkil etilib turilgan ittifoq majlislari (Jamiyati hayriya)larda shaharning mashhur muallimlari, ilm-fan fidoiylari ishtirok etganlar. Jumladan, ular orasida Raimjonhoji, Ashurali Zohiriy, Mahmudjon qori va boshqalar bo`lib, bular qatorida Abdulvahhob Ibodiy ham bo`lgan.

Ibodiy o`zining ma`rifatparvarlik faoliyati jarayonida xalqimiz uchun ko`plab ilm-fan, adabiyot namoyandalarini etkazib berdi. Farg'ona jadidlari tomonidan 1914-1915- yillarda chop etilgan «Sadoyi Farg'ona» gazetasida uning bir necha maqolalari bosilib chiqqan. Abdulvahhob Ibodiy ayni paytda mazkur nashrning tashkilotchilaridan biri bo`lgan.

Bizga ma`lum arxiv ma`lumotlariga ko`ra Farg'ona vodiysidagi usuli savtiya maktablarida Ibodiy tomonidan tuzilgan darsliklardan foydalanilgan. Farg'ona vodiysidagi yangi usul maktablarida Fotih Karimov, Munavvar qori Abdurashidxonov, Said Rasul Azizov va boshqalar tomonidan tuzilgan darsliklar bilan bir qatorda Ibodiyning ilmiy meros sifatida qolgan 1912 yil Toshkentda chop etilgan «Tashil ul-alifbo» darsligi, Toshkentda 1913 yil chop etilgan, ilohiyot fani bo`yicha va diniy tarbiyaga oid «E`tiqodoti Islomiya» asarlaridan keng foydalanilgan.

Lekin 30-yillarning mudhish voqealari maorif jonkuyarini ham chetlab o`tmadi. Fidoiy inson «xalq dushmani» tamg'asi bilan 1937 yil 10 sentyabrda hibsga olindi.

1937 yil 27 noyabrda O`zbekiston SSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligining «Uchlik» komissiyasi A. Ibodiyni o`n yil xat olmaslik sharti bilan mehnat tuzatish lageriga jo`natish yuzasidan hukm chiqardi.

Obidjon Mahmudov. (1858-1936) Turkistonning yirik sarmoyadorlaridan biri, birinchi tog'-kon sanoatchisi, taniqli jadid Obidjon Abduxoliq o`g'li Mahmudov (1858-1936.) Farg'ona taraqqiyparvarlarining peshqadami. Uning tashabbusi va bo`evosita rahbarligi ostida 1914 yil aprel' oyidan e'tiboran Qo`qon shahrida Farg'ona vodiysidagi o`zbek tilidagi birinchi gazeta «Sadoi Farg'ona» nashr etila boshladi. Bungacha Farg'ona viloyatida milliy ruhdagi biron-bir nashr yo`q edi. Obidjon Mahmudov ushbu gazetaning noshiri va muharriri edi.. U Peterburg universitetini tamomlagan, xalqimiz orasidan etishib chiqqan birinchi tog'-kon injeneri edi. U 1914 yilning boshlarida Qo`qonda bosmaxona tashkil qiladi. Unda dastlab o`zbek tilida «Sadoi Farg'ona», ikki oydan so`ng, rus tilida «Ferganskoe exo» nomli gazetalarni nashr ettira boshlaydi. Gazeta nafaqat Turkistonda balki, Rossiya musulmonlari orasida ham mashhur bo`lgan. Turkiston Muxtoriyati hukumati tarkibida O. Mahmudov oziq-ovqat noziri vazifasiga saylanadi. Oradan ko`p o`tmay 1918 yil fevral' oyida Turkiston Muxtoriyati bol'sheviklar tomonidan zo`rlik bilan ag'dariladi. SHundan so`ng, jadidlarning bir qismi o`z g'oya va maqsadlarini Sovet hokimiyati idoralaridagi amaliyotlari orqali amalga oshirmoqchi bo`ldilar. O.Mahmudov xam shu kezlarda Sovet davlati idoralarida xizmat qilib, o`z faoliyatini davom ettirdi

Atoqli jadid ma`rifat fidoyisi, butun umrini el-yurt ravnaqi yo`lida baxshida etgan ajoyib inson O. Mahmudov 1936 yilning 21 noyabrida 78 yoshida vafot etdi.

Cho`lpon (1897-1938) Abdulhamid Sulaymon o`g'li YUnusov (taxallusi; Cho`lpon) o`zbek shoiri, yozuvchi, tarjimon, san`atshunos, 1897 yil Andijonda tavallud topdi. Dastlab eski maktabda, so`ngra Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil oldi. Ufadagi «Oliya» madrasasini tamomladi. Ilk maqolasi «Adabiyot nadir?» «Sadoi Turkiston» gazetasida chop etilgan. «Sadoi Farg'ona» gazetasida uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma`rifiy mavzularga oid ko`plab maqolalari e`lon qilingan. Oktyabr to`ntarishidan keyin «Turk ROSTA», «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq», «Turkiston», «Buxoro axbori» kabi gazetalarda xizmat qildi. Ko`plab she`r va qo`shiqlar yaratdi. «Kecha va kunduz» (1936y.) romaning va bir necha pe'salarning muallifidir. Gor'kiy, Lohutiy, Tagor, SHekspir asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan. 1938 yil Stalin istibdodining qurboni bo`ldi.

Abdulla Qodiriy (1894-1938) O`zbek romanchiligining asoschisi, atoqli yozuvchi (asosiy taxallusi Julqunboy). Toshkentdagi eski maktabda(1904-1906), rus-tuzem maktabida (1908-1912), Abulqosim shayx madrasasida (1916-1917) ta`lim olgan. «Mushtum» jurnalining asoschilaridan(1923-1926) Ilk ijodini 1914 yildan boshlagan. «O`tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlarining, ko`plab hikoya, pyesa, maqolalar muallifidir. Gogol, CHexov va boshqa g'arb yozuvchilarining asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan. 1937 yil qamoqqa olinib, 1938 yil otib tashlangan.

Fitrat (1886-1937) Abdurauf Abdurahim o`g'li (taxallusi: Fitrat) o`zbek olimi, shoiri, yozuvchisi, dramaturgi. Professor(1924) Buxorodagi Mir Arab madrasasida va Istambuldagi universitetda o`qigan. ¨sh Buxoroliklar harakatining so`l radikal qanotiga boshchilik qilgan(1914). «CHig'atoy gurungi» ishida ishtirok etgan (1919-1921). BXSR Xalq maorifi noziri(1921). Xalq nozirlar sho`rosi raisining o`rinbosari(1922). Moskva, Toshkent, Samarqand va Buxorodagi juda ko`plab ilmiy tadqiqot institutlarida ishlagan. Ko`plab maqolalar, pyesalar, qissalar, drama va ocherklar muallifidir. Milliy til va madaniyat rivoji uchun kurashdi. 1937 yil Stalin istibdodining qurboni bo`ldi.

Fayzulla Xo`jayev (1896-1938) Davlat va siyosat arbobi. 1896 yil Buxoroda tug'ilgan. 1913 yildan jadidchilik harakatida ishtirok eta boshlagan. 1916 yildan esa, ¨Yosh buxoroliklar safida faoliyat olib bordi. 1917 yilda ¨sh buxoroliklar partiyasi MK a`zo bo`lib saylandi. 1920-1924 yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar kengashi raisi, ayni vaqtda tashqi ishlar komissari, keyinchalik harbiy komissar, Turkiston fronti Revolyutsion harbiy Kengashi raisi lavozimlarida ham ishladi. Buxoro KP MK a`zosi, 1922 yildan RKP(b) MK O`rta Osiyo byurosi

a`zosi. 1925 yildan O`z SSR XKS raisi. O`zbekiston KP MK a`zosi. Ko`plab maqola va asarlar yozgan. 1938 yil Stalincha qatag'on qurboni bo`ldi.

Ashurali Zohiriy (1885 - 1937) Ashurali Muhammadzohidov (taxallusi: Zohiriy) Farg'onalik taniqli ma`rifatparvar jadid, publitsist, tilshunos olim. 1885 yil Qo`qon yaqinidagi Oyim qishlog'ida dunyoga keladi. U dastlab Qo`qondagi Madalixon madrasasida ta`lim oladi, arab va fors tillarini yaxshi o`rganadi. 1907 yildan boshlab Qo`qon rus-tuzem maktabida o`zbek tili va adabiyotidan dars bera boshlaydi. 1910 yildan boshlab gazetalarda o`z asarlari, zamon ruhiga mos maqolalari bilan qatnasha boshlaydi. U «Sadoi Farg'ona», «Xalq», «El bayrog'i», «YAngi Farg'ona» gazetalarida xodim bo`lib ishladi. 1917 yilda Qo`qonda «Dorulmuallimun» pedagogika o`quv yurti maktabini tashkil etadi va kelajakka intiluvchi, ma`rifatparvar malakali mutaxassislar tayyorlash yo`lida harakat qiladi. 1916 yilda o`zbek o`qituvchilari uchun «Imlo» kitobini, 1918 yilda esa, A.Navoiyning «Muhokamatul-lug'atayn» nomli asarini, shuningdek 1925 yil o`zbek olimlarining ichida birinchi bo`lib, «Ruscha-o`zbekcha mukammal lug'at» nashr ettirdi. 1923 yil «Mehnat Qahramoni» unvoniga sazovor bo`ldi. 1937 yil turli siyosiy ayblar bilan nohaq qamoqqa olinib, otib tashlandi.

Ubaydulla Xo`jayev (1880-1938) Ubaydullaxo`ja Asadullaxo`ja o`g'li 1880 yil Toshkent shahrida tug'ildi. Rus-tuzem maktabini tamomlagach davlat muassasalarida tarjimonlik bilan shug'ullanadi. Keyinchalik Saratov universitetining huquqshunoslik fakul'tetini muvoffaqiyat bilan tamomlaydi. Ushbu davrda u rus tili va adabiyotiga bo`lgan ulkan qiziqishini namoyon etdi. Rus siyosiy, jamoat va adabiyot namoyondalari bilan yaqindan aloqa bog'lashga harakat qildi. U dastlabki o`zbek advokatlaridan biri edi. Saratovdan qaytib kelgach u, Toshkent okrug sudida advokat bo`lib xizmat qila boshlaydi. O`z atrofiga musulmon yoshlari to`plagan holda, «Umid» yashirin jamiyatini tuzadi. Keyinchalik bu tashkilot «Taraqqiyparvar» deb nomlanib, jadidlarning asosiy tashkilotlaridan biriga aylanadi. 1914 yil mahalliy sarmoyadorlarning ko`magiga tayangan holda «Sadoi Turkiston» gazetasini o`z muharrirligi ostida chop eta boshlaydi. Gazeta sahifalarida milliy o`zlikni anglashga da`vat etuvchi, mahalliy xalqning siyosiy ongini oshirishga xizmat qiluvchi ko`plab maqolalar e`lon qilindi. Podsho hukumati tomonidan ushbu gazeta yopib qo`yilgach, U. Xo`jayev Andijonga keladi va Vadim CHaykin bilan birgalikda «Turkestanskiy Golos'» chop eta boshlaydi. Fevral inqilobidan keyin u Turkistondagi milliy harakatning faol rahnamolaridan biriga aylanadi. Toshkent «Sho`roi Islomiya»siga rais, Butunrossiya musulmon sho`rosiga esa a`zo etib saylanadi. U 1917 yilda bo`lib o`tgan barcha o`lka va Butunrossiya musulmon syezdlarida ishtirok etdi. IV-favquloddagi o`lka musulmonlarining syezdi uni Turkiston Muxtoriyatining harbiy noziri etib sayladi. Turkiston Muxtoriyati tugatilgach, U.Asadullaxo`jaev Orenburgga boradi va A. Z. Validiy bilan birgalikda Boshqird Avtonomiyasini tuzishda faol qatnashadi. 1920-1938 yillarda siyosiy qarashlari uchun uni bir necha bor so`roq qiladilar. 1938 yil barcha taraqqiyparvarlar qatori u ham qatag'onga uchradi.

Munzim (1875-1934) Mirzo Abdulvohid Burhonov-Munzim Buxorolik mashhur taraqqiyparvarlardan. «Munzim» taxallusi bilan she`rlar yozgan. 1875 yil Buxoroda tavallud topadi. Dastlabki ma`lumotni eski maktabda oladi. Buxorodagi dastlabki jadid maktabining ochilishi ham uning nomi bilan bog'liqdir. 1908 yil Samarqandga borib, yangi-usul maktablarida o`qitish uslubini o`rganib, Abdulqodir SHakuriy, M. Behbudiy bilan yaqindan tanishadi. Natijada o`zi ham 1908 yilning 5-noyabrida o`z hovlisida yangi-usul maktabini ochadi. 1909 yilda katta yoshdagilar uchun kechki maktab ochadi. 1910 yil Buxoroda «Tarbiyai atfol» jamiyatini tuzishda faol qatnashdi. Fevral inqilobi arafasida Buxoro jadidlari Munzim boshliq eski, F. Xo`jayev va A. Fitrat boshliq yangi jadidlarga bo`linib ketdi. Bu ikki guruhning birlashuvi natijasida yosh buxoroliklar partiyasi tuzilib, Munzim unga rais etib saylandi. 1918 yildan 1920 yilning sentyabrigacha Munzim Toshkentda muhojirlikda bo`ldi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, Munzim avval markaziy ijroiya qo`mitasi raisining o`rinbosari, keyinchalik xalq maorifi noziri, sog'liqni saqlash noziri lavozimlarida ishladi. Abdulvohid Munzim 1934 yil uzoq davom etgan kasallikdan so`ng vafot etdi.

Tavallo (1882-1939) To`lagan Xo`jamiyorov (taxallusi: Tavallo) shoir, publitsist, ma`rifatparvar. Toshkentda 1882 yil ziyoliy oilasida dunyoga keladi. Boshlang’ich ta`limni tugatgach, Beklarbegi madrasasida tahsil ko`radi. O`zbek va fors klassiklarini ijodini shuningdek, arab va fors tillarini o`rganadi. 1905 yildan boshlab, «Turkiston viloyatining gazeti», «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg’ona» kabi gazeta va jurnallarda she`r va maqolalari bilan muntazam qatnashib turadi. Uning «Ravnaq ul-islom»(1914) va «Sabzazor» (1915) she`riy to`plamlari mavjud. U o`z she`rlari orqali ommani Turkistonning iqtisodi, fani va umuman taraqqiyotini rivojlantirishga da`vat etgan. SHu bilan birga u «Mushtum» jurnalining asoschilaridan biri edi. Ko`plab taraqqiyparvarlar qatori uham 1939 yil qatag’on qurboni bo`ldi.

Polvonniyoz Hoji YUsupov (1863-1936) 1863 yil Xiva shahrida mayda savdogar oilasida dunyoga keladi. O`zbek taraqqiyparvari, Xiva jadidlari va ¨sh xivaliklar partiyasining a`zosi va rahbarlaridan biri. 1871 yillarga qadar ota-onasi oldida, ular vafotidan keyin amakisi YUsufboy qo`lida tarbiyalangan. 13 yoshida eski maktabda o`qib savod chiqargan. Maktabni bitkazgach, savdo ishlari bilan shug’ullangan. 1877 yilda amakisi bilan Moskvada bo`ladi. Keyinchalik 1885 yilda yangi-usul maktabini ham tugatadi. U arab, fors va rus tillarini yaxshi bilgan. 1904 yilda Turkiya, Misr, Suriya mamlakatlarida va Makka shahrida bo`ladi. Polvonniyoz 1917 yil 4 aprel Xiva xonligidagi manifest tashkilotchilaridan biri ham edi.1918-1920 yillarda Toshkentda muhojirlikda bo`lib, «¨sh xivaliklar» qo`mitasini tashkil qilib rais sifatida ish olib borgan.Xiva xonligi tugatilgach, 1920 yil 30 aprelda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi nozirlari kengashi raisi lavozimiga saylanadi. 1926 yil 10 yanvardan Xorazm viloyat Ijroiya Qo`mitasi raisining xo`jalik bo`limi bo`yicha o`rinbosar bo`lib ishlagan. Keyinchalik Ichanqal`a muzeyida ishlaydi. Polvonniyoz YUsupov 1936 yil vafot etadi.

Bobooxun Salimov(1874-1929) 1874 yil Gurlan bekligida qozikalon Salimoxun oilasida dunyoga keladi. Asli ismi Muhammad bo`lib, hurmat yuzasidan keyinchalik Bobooxun deb taxallus beriladi. Boshlang’ich ta`limni olgach, Xiva shahridagi Olloqulixon madrasasini tugatadi.Arab, fors, rus tillarini yaxshi bilgani holda, she`rlar ham yozgan. 1910-1918 yillarda Xiva xoni Asfandiyorxon sariyida otasi o`rnida SHayxulislomlik lavozimida ishlaydi. 1917 yil 4-5 fevral voqealarida faol ishtirok etib, «Majlis» a`zoligiga saylanadi. 1918-1920 yillarda To`rtko`lda yashab, «¨sh xivaliklar» inqilobiy qo`mitasiga a`zo bo`lib kiradi. 1920 yil xalq vakillarining Butun Xorazm I-qurultoyida XXSRning adliya noziri lavozimiga saylanadi hamda, inqilobiy sud va harbiy tribunalga raislik qiladi. 1920 yil 3 avgustda III-kommunistik internatsionalning II-kongressida ishtirok etib, nutq so`zlaydi. Keyinchalik u, vohadagi maktab-maorif ishlarida ishlaydi.1923-24 yillarda Xorazmda adliya nozirining muovini va raisi lavozimlarida mehnat qildi. 1924 yil Xorazm ruhoniylaring I- qurultoyini chaqirilishi va o`tkazilishiga rahbarlik qildi. U adliya noziri sifatida uzoq ishlamadi. Davlat va firqa ishlaridan chetlashtirildi. 1929 yil 10-may kuni kechqurun noma`lum kishilar tomonidan uyi o`rab olindi va sudsiz, so`roqsiz otib o`ldirildi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) Farg’ona vodiysining atoqli jadidlaridan, O`zbekiston xalq shoiri(1926), jamoat arbobi. Madrasa(1899-1906) va rus-tuzem maktabi(1908)da tahsil ko`rgan. O`qituvchilar uchun darslik va qo`llanmalar tuzgan. 1917 yilgacha ham Qo`qonda yangi-usul maktablari ochib bolalarga dars bergan. Oktyabr to`ntarishidan keyin ham pedagogik faoliyatini davom ettirgan holda Qo`qon va Farg’onada o`qituvchilik bilan shug’ullandi, hamda sayyor truppa tuzib, aktyorlik va rejissyorlik qildi. 1914-1915 yillarda chop etilgan Farg’ona vodiysida jadid matbuot-«Sadoi Farg’ona»da ko`plab dolzarb mamvzularni ko`tarib chiqdi. U ko`plab she`riy to`plamlar, «YAngi Saodat» povesti (1915), «Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari» (1916), «Boy ila xizmatchi» (1918), «Maysaraning ishi»(1926), «Paranji sirlari» (1927) pyesalari va o`nlab qo`shiqlar muallifidir.

## 5-MAVZU: JADIDCHILIK HARAKATIDA TARIX, TARIX TA`LIMI VA FALSAFASI MASALASI

**REJA:**

1. **Jadid va Qadimchilar o`rtasidagi ahloqiy mavzudagi munozaralar.**
2. **1917 yil fevral inqilobi va umumiy diniy-milliy masalalardagi mushtaraklik.**
3. **Siyosiy bo`linishlar va ularning oqibatlari.**

Millat istiqbolini o`ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar, mulkdorlar va ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizm (podsho Rossiyasi hukmronligi)ga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg’otish — siyosiy-ma`rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o`ziga qulay zamin topdi.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo`nalishlar ustuvor bo`lgan: yangi usul maktablari tarmog’ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o`qishga yuborish; turli ma`rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilik harakatining asosiy g’oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o`rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma`rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o`rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo`shin tuzish. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg’ona va Xivada hur fikrli, taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma`rifiy yo`nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga samarqandlik taraqqiyparvar Mahmudxo`ja Behbudiy asos solgan.

Ma`lumki, Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati tarqalish joyi va yo`nalishiga ko`ra uchga bo`linadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidchiligi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o`rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o`lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qilgan. Ular chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, Rossiya imperiyasining xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so`ngra mustaqil davlat bo`lishini yoqlab chiqdilar.

Turkistonda jadidchilik harakatining kuchayishi natijasida undan Buxoroda Yosh buxoroliklar (1910) va Xivada Yosh xivaliklar (1914) partiyalari ajralib chiqdi. Bundan tashqari, Toshkentda bir guruh taraqqiyparvarlar Yosh sartlar jamiyatini tuzishdi. Bu tashkilotlarning a`zolari nafaqat yoshlar bo`lgan, balki fikr va g’oyalari bir ekani uchun ham o`zlarini shunday atashgan. Bu yoshlar harakatlari o`z tarkibiga ziyolilar, savdogarlar, sarmoyadorlar va hunarmandlarni birlashtirib, jadidchilik g’oyalari bilan qurollangan edi. Ularning maqsadi Turkistonni Rossiya mustamlakachiligidan ozod qilish, qoloqlik va jaholatga barham berish, istibdod o`rnida demokratik tuzum o`rnatish, yurtimizni rivojlangan davlatlar safiga qo`shish bo`lgan.

Fransiya bosh shtabi harbiy razvedkasi topshirig’i bilan ikki yilcha Turkistonda bo`lgan mayor Lyakostning hisoboti (1906)da ham bu holat yaqqol ifodalangan edi. Mayor Lyakostning Frantsiyadagi maxsus jurnalda hisobot tarzida e`lon qilingan maqolasi Evropada katta qiziqish uyg’otgan. U Turkiston o`lkasidagi eng e`tiborli va kelajagi porloq tashkilot Yosh sartlar degan xulosaga kelgan. Bu firqa 1906 yil 13-23 yanvarda Sankt-Peterburgda bo`lgan Butunrusiya musulmonlarining II-qurultoyiga vakil yuborganini ta`kidlab, ular xuddi Qozon tatarlari kabi

o`zining milliy dasturiga ega ekani va podsho hukumatining mustamlakachilik zulmiga jiddiy zarba berishi mumkinligiga ishora qilgan.

Ma`lumki, Buxoroda jadidchilik harakati Turkiston o`lkasidagiga nisbatan og’ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga kelgan edi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do`kondorlar va ma`murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o`rtasida nufuzi avvaliga past bo`lgan. Jadidlar (ular dastlab o`zlarini taraqqiyparvarlar deb atashgan) iqtisod va davlat boshqaruvi sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishgan edi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo`lishdi. Buxoroda jadidchilik harakatining taniqli namoyandalari Abdulvohid Burhonov (1875-1934), Mukommil Burhonov (1884-1937), Sadriddin Ayniy (1878-1954), Fitrat (1886-1938), Fayzulla Xo`jayev (1896-1938), Usmon Xo`ja (1878-1968), Otaulla Xo`jayev (1880-1937), Abdulqodir Muhiddinov (1892-1934), Musojon Saidjonov (1893-1937) bo`lishgan. Buxoro amirligi hududida ilk yangi usul (jadid) maktabini Mulla Jo`raboy ochgan.

Tarixchi va davlat arbobi Mirza Salimbek (1850-1930) o`zining «Tarixi Salimiy» asarida yozishicha, Mulla Jo`raboy Vardonzeda tug’ilgan. Biroq Mulla Jo`raboy tug’ilgan joy xususida turli fikrlar mavjud. Atoqli davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo`jayevning fikricha, Mulla Jo`raboy Vobkentda dehqon oilasida tavallud topgan5. SHarqshunos olimlar A. Samoylovich (1880-1938) va I. Umnyakovning yozishicha, u Pirmast tumanida dunyoga kelgan. Mulla Jo`raboy XIX asr oxirlarida Istanbulda tahsil olgan, Rossiyada ham ma`lum muddat yashagan. Mulla Jo`raboy Buxoroga qaytgach, 1900 yilda Buxoro amirligi hududidagi dastlabki jadid maktabini o`z tug’ilgan qishlog’ida, ba`zi manbalarda yozilishicha esa, Po`stindo`zon qishlog’ida ochgan.

Turkistondagi yoshlar partiyalari o`sha paytda SHarqda mavjud bo`lgan turli yoshlar harakatlari bilan uzviy aloqadorlikda faoliyat ko`rsatgan. Xususan, Yosh buxoroliklar partiyasi o`z amaliy faoliyati va dasturida Yosh turklar (Turkiyadagi «Ittihod va taraqqiy» partiyasining a`zolari) harakatidan ta`sirlangani sezilib turadi. Buning sababi avvalo shundaki, Buxoro jadidlarining eng yirik namoyandalari (Mulla Jo`raboy, Fitrat, Usmon Xo`ja, Otaulla Xo`jayev, Homidxo`ja Mehriy va boshqalar) Istanbulda tahsil olishgan va yosh turklarning g’oyalaridan bahramand bo`lishgan edi. Ular Istanbulda «Buxoro ta`limi maorif jamiyati»ni tashkil qilishib, Turkistonda maorif tizimini rivojlantirishda katta ishlar qilishdi. Jamiyatning ko`magi bilan Fitrat va boshqa ma`rifatparvarlarning ko`plab asarlari Istanbulda bosilib, Turkiston mintaqasiga tarqatildi.

Bu o`rinda shuni alohida ta`kidlab o`tish lozimki, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Usmonli turk sultonligidagi inqilobiy harakatning qatnashchilari — yosh turklarning g’oyalari Buxoro yoshlariga katta ta`sir ko`rsatgan. Yosh turklarning asosiy maqsadi sulton Abdulhamid II (1842-1918)ning mustabid hokimiyatini konstitutsion tuzum bilan almashtirish, Turkiyada ajnabiylar hukmronligiga qarshi kurash va demokratik jamiyat qurish bo`lgan. Ziyo Go`kalp (1876-1924) yosh turklarning asosiy mafkurachisi edi. 1908 yil yozda mamlakatda yosh turklar inqilobi g’alaba qozondi. Sal keyin yosh turklarning yo`lboshchilari Anvar Posho (1881-1922), Jamol Posho (1872-1922), Tal`at Posho (1874-1921)dan iborat uchlik (triumvirat) Usmonli turk sultonligini boshqarishga kirishdi. Ular turkchilik va islomchilik siyosatini izchil davom ettirib, tashqi faoliyatda Germaniyaga yaqinlashdilar. Turkiya Germaniya tomonida turib, Birinchi jahon urushiga tortildi.

Istanbulda tahsil olgan Usmon Xo`ja (u 1908 yilda do`sti Homidxo`ja Mehriy bilan bu erga kelgan edi; keyinchalik Usmon Xo`janing ukasi Otaulla Xo`jayev ham Istanbulda o`qigan)

bu erda «Ittihod va taraqqiy» partiyasi — yosh turklarning rahbarlari Anvar Posho va boshqalar bilan uchrashdi. 1912 yil boshlarida Usmon Xo`ja Buxoroga qaytgach, jadid maktablaridan birini qayta tashkil qildi. «Tarbiyai atfol» (1908 yilda tuzilgan) maxfiy tashkilotining faol a`zolaridan biri sifatida jadid maktablarini moddiy jihatdan ta`minlab turgan. Bundan tashqari, u turkchilik g'oyalarini targ'ib etgan.

Rossiya imperiyasining YAngi Buxoro (Kogon)dagi xufiyasi Bel'man tomonidan yo`llangan maxfiy maktub (1912 yil 24 fevralda yozilgan)da ko`rsatilishicha, «Usmon Xo`ja Istanbuldan ko`plab siyosiy risolalar olib kelgan. U turkchilik va islomchilik g'oyalarini targ'ib qilish bilan shug'ullangan, yashirin siyosiy tashkilot hayotida faol qatnashgan».

Istanbulda ta`lim olgan ko`plab buxoroliklarning yurtga qaytishi bilan maorif ishlari kuchayib ketdi. XX asr boshlarida bu taraqqiyparvarlar Turkiston mintaqasida jadidchilik bilan birga turkchilik (turkizm), turonchilik (turonizm), islomchilik (islomizm) g'oyalarining tarqatuvchisi va tashviqotchisi bo`ldilar.

«Buxoro ta`limi maorif jamiyati»ning hijriy 1327 (milodiy 1908) yilda Istanbulda qabul qilingan Nizomi (Ustavi)da jamiyatning asosiy siyosiy maqsadi Buxoro xalqi o`rtasida maorifni tarqatish ekani ta`kidlangan9.

Turkiston rayon muhofaza bo`limi (chor Rossiyasi oxrankasi) va Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentligi hujjatlarida ko`rsatilishicha, turkchilik va islomchilik g'oyalari Turkiston va Buxoro xalqlari o`rtasida juda tez tarqalmoqda hamda taraqqiyparvarlar (jadidlar) va ulamolar o`zaro hamkorlikda faoliyat ko`rsatishmoqda.

Yosh buxoroliklar bu paytda Buxoroda «Ma`rifat» kutubxonasi va «Barakat» shirkatini tuzishib, kitoblar nashr qilish va xorijda chiqarilgan turli adabiyotlar, gazeta-jurnallarni Buxoroda tarqatish bilan shug'ullanganlar. Bu adabiyotlarda turkchilik va islomchilik g'oyalari o`z aksini topgan edi. Masalan, Usmonli turk sultonligida turk tilida nashr qilingan «Hikmat», «Sirotil mustaqim», «Ta`rifi muslimin» jurnallari, Rossiyada chop etilgan «Tarjimon» (muharrir — Ismoilbek o`aspirali), «Irshod», «Vaqt» gazetalari va «Sho`ro» jurnalida islomchilik g'oyalari bo`rtib turgan maqolalar e`lon qilingan.

Yosh buxoroliklar partiyasi vakillari faqat Turkiya, Afg'oniston, Hindiston, eron, Misr mamlakatlaridagi yoshlar harakatlari vakillari bilan o`zaro aloqada bo`lish bilan cheklanmasdan, Rossiya imperiyasida mavjud bo`lgan turli musulmon partiyalari va tashkilotlari bilan ham munosabat o`rnatishgan. Tarixiy adabiyotlarda yosh buxoroliklar bilan Qrim va Qozonda faoliyat ko`rsatayotgan qrim-tatar hamda tatar jadidlari o`rtasidagi mushtarak aloqalar bir qadar yoritilgan. Biroq yosh buxoroliklar bilan yosh xivaliklar, yosh buxoroliklar bilan Turkistondagi boshqa taraqqiyparvar kuchlar o`rtasidagi o`zaro aloqalar hozirgacha jiddiy tadqiq qilinmagani taajjublanarli holdir. SHuningdek, Buxoro ulamolarining Turkiston mintaqasida tutgan kuchli nufuzi, ularning din arboblariga ko`rsatgan ta`siri masalalari ham nazardan chetda qolmoqda.

Farg'ona vodiysida ham jadidlarning ko`plab tashkilotlari mavjud bo`lgan. Masalan, Andijonda «Taraqqiyparvar» va «Padarkush» yashirin tashkilotlari (chor Rossiyasi oxrankasi hujjatlarida yashirin siyosiy partiyalar deb nomlangan) ham faoliyat ko`rsatgan11. Bu jihatdan olganda taraqqiyparvar Mirza Abdulqodirbek Mirza Ahmad Qushbegievning «Taraqqiyparvar» jamiyati g'oyalari ocherki» (1916 yil 22 noyabrda yozilgan) deb nomlangan ma`lumotnomasi diqqatga sazovordir. Unda ko`rsatilishicha, «Taraqqiyparvar» jamiyatining bosh g'oyasi yosh turklarning taraqqiyotiga taqlid etishdir. Ularning maqsadi xalqqa siyosiy va ichki erkinliklar berishdan iborat. Aholi o`rtasida ular o`z e`tiborini siyosat va din sohasida harakat qilish bilan amalga oshirishni rejalashtirganlar.

Buxoro va Turkistondan Turkiyaga kelib ta`lim olayotgan yoshlar o`z yurtiga qaytgach, ma`rifatparvarlik faoliyati bilan shug’ullanishlari lozim bo`lgan. SHuningdek, buxorolik ayrim yoshlarning Usmonli turk sultonligidan tashqari boshqa mamlakatlarda tahsil olishi va o`arb madaniyati bilan tanishuvlari ham muhim o`rin tutadi. Mashhur sayyoh, tabib va ma`rifatparvar Mirzo Sirojiddin Hakim (1877–1914) XX asr boshlarida Tehrondagi Amerika tibbiy kolleji va SHveytsariyadagi Bern universitetida tahsil olgan dastlabki o`zbek yoshlaridan bo`lgan. U o`zining 1912 yilda YAngi Buxoro (Kogon)da nashr etilgan «Tuhfai ahli Buxoro» («Buxoro ahliga tuhfa») asarida Evropa va SHarq mamlakatlariga qilgan sayohatini tasvirlab, Buxoroni ham shunday madaniyati rivojlangan davlatlar safida ko`rishni istaydi. U eronda inqilob bo`lgan paytda Tehronda edi va Tabrizdagi fidoyilar harakatida faol qatnashgan. Aynan Mirzo Sirojiddin Buxoroga qaytgach, zamonaviy Evropa madaniyatini targ’ib etish bilan shug’ullangan. U Buxoroda 1912–1913 yillarda nashr qilingan dastlabki jadid gazetalari «Buxoroyi sharif» va «Turon»ni moddiy jihatdan ta`minlab turgan shaxslardan biri bo`lgan. Bundan tashqari, u «Buxoroyi sharif» gazetasida o`zining 30 dan ortiq maqolalari bilan qatnashgan.

Yosh buxoroliklar 1914 yildan, yosh xivaliklar 1916 yildan boshlab ma`rifatchilikdan siyosat sohasiga o`tdilar. Ular yakka boshqaruvga asoslangan xonlik tuzumlarini dastlab isloh qilish, keyinchalik respublika tuzumi bilan almashtirish to`g’risida dadil fikrlar bilan maydonga chiqishdi. Ularning ijtimoiy, siyosiy, ma`rifatparvarlik faoliyati Yosh buxoroliklar va Yosh xivaliklar partiyalari mazmunida yangicha maqsad va yo`nalish kasb etdi.

Asrimiz boshlarida Turkiston ziyolilarining jamiyat islohiga oid qarashlarini tahlil qilishdan avval, mustamlakachilarning islom diniga bo`lgan munosabatlarini va sovet tarixshunosligida ulamolarga berilgan bahoni yoritib berish maqsadga muvofiqdir.

Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirilgach, mahalliy xalqning milliy va diniy qadriyatlari oyoq osti qilindi.

Dinsizlik shior qilib olingan sotsialistik jamiyatda har qanday diniy ulamo johil, dindorlar esa jamiyat taraqqiyotini orqaga tortuvchi qora kuchlar sifatida talqin etildi. Aslida esa, milliy-ozodlik kurashi tarixida Turkiston ulamolarinig ham o`z o`rinlari bor. O`lkamizdagi jadid-qadim munosabatlari yoritilgan adabiyotlarning deyarli barchasida ulamolarga nisbatan salbiy fikrlar bildirilgan. Jadid dramaturgiyasi masalalari yuzasidan tadqiqot olib borgan olim SH. Rizaevning fikricha: «...Vaholanki, jadid taraqqiyparvarlari qarashlarini aniq tasavvur etib, ijobiy baholaganimiz holda, «qadimchi»larni taraqqiyotga to`sqinlik qilgan qora guruhlar sifatida uch-to`rt jumla va bir-ikki jismoniy tahdidlarga oid dalillar bilan «ta`riflab» o`tilgan. Zero, «qadimchi» lar birinchi navbatda konservativ nuqtai nazarni puxta nazariy asosga suyanib ilgari surgan mafkuraviy muxoliflar edi...».

Masalaga yaqindan yondashib qaralsa, jadidlarning islohotchilik g’oyalari anchagina keng o`rganildi. Biroq, qadimchilar to`g’risida xali ham faqat salbiy fikrlarni o`qish mumkin xolos. Vaholanki, XX asr boshlaridagi Turkiston qadimchilari tarixiga oid biron-bir tadqiqot e`lon qilingani yo`q.

Sovet tarixshunosligida Rossiya imperiyasi musulmonlari ijtimoiy-siyosiy harakatlaridagi islom bilan bog’liq bo`lgan har qanday ko`rinishga «qoloqlik» va diniy mutaassiblik belgisi deb baho berishga harakat qilindi. Agar «jadidchilik» «mahalliy burjuaziyaning millatchilik, panturkistik g’oyalarini o`zida mujassamlashtirgan mafkurasi» sifatida qoralansa, «qadimchilik» jaholat va diniy mutaassiblikni, feodalizmning og’ir asoratlarini o`zida ifoda etgan oqim sifatida baholandi. «Qolaversa, bugungi kunda ham aksariyat mualliflar tomonidan Rossiya va O`rta Osiyo islomiy fikrlari tarixidagi har qanday «diniy» nuqtai nazarga «qadim» tamg’asini yopishtirmoqdalar», -deydi xorijlik tadqiqotchi Stefan A. Dyuduan’on.

Biroq qadimchilikning mohiyati haqidagi masala tadqiqotlarda amaliy tarzda o`rtaga qo`yilmadi. Vaholanki, qadimchilar shariat me`yorlarini xalq turmush tarzida qat`iy ravishda saqlab qolishni-rus ma`muriyatining shovinistik siyosatiga va pravoslav missionerlik harakatiga qarshi muhim to`siq deb bilardilar.

SHuni alohida ta`kidlash mumkinki, shariatni milliy- an`anaviy qadriyatlarni saqlovchi vosita deb bilish haqidagi fikr faqatgina «qadimchi»lar orasida mavjud bo`lgan g’oya bo`lmay, balki bunday fikr-g’oyalarni ba`zi jadid namoyandalarining qarashlarida ham ko`rish mumkin. SHuningdek, ayrim jadidlar ham ayni paytda, o`z faoliyatlarini shariatdan chetga chiqqan holda tasavvur etgan emaslar.

Bizga ma`lumki, maishiy turmushni, milliy urf-odatlarni isloh qilish borasida jadidlar talaygina ishlarni amalga oshirdilar. Marosimlardagi dabdababozlik va isrofgarchiliklarni keskin tanqid qildilar. Hatto «Sho`roi Islomiya» 1917 yil bu xususida maxsus qarornoma ham chiqardi. Manbalarning ko`rsatishicha, Turkistonning taraqqiyparvar ulamolari ham islohotchilikning bu yo`nalishida jadidlar bilan hamfikr bo`lganlar.

Qo`qonning mashhur ulamolaridan Kamoliddin qozining bu xususdagi qarashlari e`tiborga loyiqdir. 1914 yil 6 mayda Qo`qon savdogarlaridan Tojiddinboy xonadonida tashkil etilgan yangi usul maktabida imtihon-majlisi bo`lib, unga Kamoliddin qozi ham taklif etiladi. SHu davrdagi to`y va marosimlarning dabdababozligiga taqlidan imtihon majlislariga ham katta sarf-harajatlar qilish odat tusiga kirmoqda edi. Bunga Kamoliddin qozi o`z e`tirozini va usuli jadidaga o`z munosabatini bildirgan: «Min ba`d imtihon majlislarini imkoni boricha soddalashdirulsun, hech kimga to`n va boshqa narsa berilmasun. Agar bul to`g’riga yoki usuli jadidg’a e`tiroz etguvchi bo`lsa, shariatga muvofiq jazosini berurman...». Qozi majlis ishtirokchilariga usuli jadid haqida ham va`z qilgan. Kamoliddin qozi shuningdek, zamonaviy texnika vositalarining kirib kelishini hech bir yomonlik tomoni bo`lmasdan, aksincha, bu ham davr taqozosi ekanligini bayon qiladi va kishilarni «Zamon senga boqmasa sen zamonga boq» zaylida ish yuritishga chorlaydi: «...Mana! ikki yilda ham borib kelib bo`lmaydurg’on haj sharafig’a, poezd va paraxodlar soyasida ikki oyda borib kelsa bo`lur, bul ham usuli jadid. O`lturg’on o`rnimizda turub dunyoning narigi chetidan telegraf vositasi birla xabar olamiz, shul joyda turub telefo`n vositasi birla Andijon, Namangandagi bilish, tanishlarimiz bilan so`zlashamiz, bul ham usuli jadid. Qani buning yomonlig’i? YA`ni usuli jadid insonning umrini bo`lur bo`lmasg’a zo`e qilmaslik uchun chiqorilg’on usuldur...».

Til mustaqilligi muammosi jadidlar qarashlarida o`zining qat`iy ifodasini topgan. A. Avloniy, SH. Muxtorov, A. Zohiriy, A. CHo`lpon va boshqalar o`z vaqtida bu haqda kuyunib yozdilar. Jumladan, A. Avloniy: «Har bir millatning dunyoda borligini ko`rsatadurg’on oinai hayoti tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo`qotmak, millatni ruhini yo`qotmakdur», degan bo`lsa, A. Zohiriy: «...qachonki bir millat tilini yo`qotsa, ul vaqt dinini va millatini ham yo`qotur...», degan edi. Turkiston «qadimchi» lari bu borada qay fikrda edilar? Manbalarning ko`rsatishicha, ularning qarashlari ham jadidlarning qarashlariga hamohang bo`lgan.

Ma`lumki, asrimiz boshlarida ham ilmiy asarlar uchun asosan fors va arab tillaridan foydalanilar edi. Bu esa keng aholi qatlamini bunday asarlardan foydalanish imkoniyatini cheklar edi. Masalaning bu tomoni taraqqiyparvar ulamolarning nazaridan chetda qolmagan. Turkistonning mashhur ulamolaridan muftiy Maqsudxo`ja ibn Mansurxo`ja o`lkamiz xalqlari uchun milliy tildagi fiqhiy kitoblar deyarli yo`qligini inobatga olib, «Muxtasar ul-viqoya»ni turkiychaga tarjima qiladi. SHuningdek u, 1912 yilda «...Alhol o`zimizning o`rgangan turkiy tilimiz o`zimizga rahbarlik qilg’ay...», deb milliy til mustaqilligi haqida dadil fikr bildira olgan edi.

Turkiston jadidlari va qadimchilari munosabatiga nazar solsak, ayrim muammolarda bu ikki guruh o`rtasida yakdillikni, boshqa ba`zi muammoli mavzularda esa qarama-qarshiliklar bo`lganligini ko`ramiz. Bir jamiyat yohud bir tashkilot a`zolari ichida ham dunyoqarash va ijtimoiy-siyosiy saviyaning turli darajada bo`lishligini inobatga olsak, qadimchilar orasida ham ayni bir masalaga turlicha yondashilganligining guvohi bo`lamiz. CHunonchi, ayrim qadimchilar usuli jadidani maqbul ko`rsalar ham, uni ushbu nom bilan atalmasligini talab qilganlar: «...ba`zi diyorimiz ulamolari usuli jadid tartiblari ijro qilinsun, ammo «usuli jadid» unvoni ila atalmasun, debdurlar..». Albatta, ushbu toifa qadimchi ulamolarni taraqqiyparvar ulamolar bilan bir safga qo`yib bo`lmaydi.

YAngi usuldagi ta`limni joriy qilish, texnika Fanlarini ham o`rganish zamona taqozosi tufayli zaruratga aylanganligini Farg’ona taraqqiyparvarlarining peshqadami Obidjon Mahmudov ham o`z maqolalarida isbotlashga harakat qilgan: «...Usuli jadida maktablari har nechuk foida va manfaat ko`rsatib tursalarda, ba`zi durust va tamom aqllik odamlar har xil iroda etkurub, shikoyatg’a til ochmoqdadurlar...».

O. Mahmudov yozadiki, turmushimizga bank, veksel, bosmaxona, zavod kabi yangiliklar kirib keldi. Hayotiy zarurat yangi usuldagi ta`limni talab qilmoqda. endilikda bundan boshqa yangiliklar ham hayotimizga kirib kelmoqda. SHu bois zamonaga qarab ish yuritmoq lozim, deydi.

CHor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida o`lka xalqlarining diniy e`tiqodini buzish, ularni doimiy qullik asoratida saqlab turish yo`lida rus missionerlari ham bor imkoniyatlarini ishga soldilar. Jumladan, 1913 yilning oxirlarida Peterburgda Davlat Dumasida zabh (hayvon so`ymoq) masalasi ko`tariladi. Bunga ko`ra, butun imperiya xalqlari uchun hayvon so`yishning yagona tartibini joriy qiluvchi qonun qabul qilinmog’i rejalashtirilgan edi. Qonun loyihasiga ko`ra hayvon so`yishda shariat talablari inobatga olinmasligi lozim edi. Vaholanki, shariat buyurganicha so`yilmagan hayvon haromdir, deb e`tiqod qiluvchi Turkiston musulmonlari uchun bu g’oyat tashvishli holat edi. SHunday paytda Farg’ona ulamo va jadidlari umumiy manfaat yo`lida bir yoqadan bosh chiqardilar. Bunday qonunning qabul qilinishiga Vodiydagi musulmonlar qattiq e`tirozlari bilan qarshi turdilar. Farg’onaning ilg’or taraqqiyparvarlaridan A. Zohiriy bu xususda o`z fikrlarini «Sadoyi Farg’ona» gazetasi sahifalari orqali bayon etib, kishilarni hushyorlikka chaqirdi. SHuningdek, Namangan ulamolari ham bu masalaga jiddiy yondashgan holda, 1914 yil 18 may kuni Davlat Dumasining raisi va musulmon fraktsiyasiga maxsus telegramma yo`llab, bu qonunni qabul qilmaslikni talab qiladilar. Unda agar shu qonun qabul qilinsa, Rusiyadagi 30 millionga yaqin musulmonlar go`sht emoq va go`sht bilan tijorat qilmoqdan mahrum bo`lib qolishi, buning oqibati esa yomon hodisalarga olib kelishi mumkinligi ta`kidlanadi.

Jadid va qadimchi munosabatlaridagi asosiy munozarali masalalarda qadimchilar, qo`yilayotgan muammoga Qur`on va Hadisdan kelib chiqqan holda yondashar edilar. Lekin jadidlar ham o`z qarashlarini shar`iy nuqtai nazardan himoya qilishga harakat qilganlar. Agar o`sha davr vaqtli matbuotiga nazar solinsa, bu ikki guruh o`rtasidagi bahslar 1917 yil fevral inqilobigacha asosan axloqiy-ma`naviy, qisman siyosiy mavzular atrofida aylanganli gini guvohi bo`lamiz.

Podsho hukumatining ag’darilishi, Rossiyadagi siyosiy o`zgarishlar natijasida bevosita turli guruh, oqim va firqalarning siyosiy faolligini oshuviga va ular o`rtasidagi siyosiy munozaralarga ham keng yo`l ochildi.

Rossiyadagi fevral inqilobini Turkiston ulamolari ham zo`r quvonch bilan kutib oldilar. Mavjud imkoniyatdan milliy va diniy ishlar rivoji uchun foydalanish zarurligini targ’ib qildilar: «...Bu inqilob va o`zgarish bizning foydamizg’a bo`lub, diniy-milliy ishlarimizda komil darajada erkinlikda bo`lmakimizg’a yo`l va imkon berdi».

1917 yil yoziga kelganda Turkistondagi ichki siyosiy vaziyat milliy jamiyatlar misolida murakkab ahvolni o`zida aks ettirar edi. Ayrim muammolar yuzasidan qarashlarning turlichaligi bois, milliy harakatda bo`linish jarayoni tezlashdi. Bu muammolar: diniy islohotlar, ayollar yuzini ochish, urushga Rossiya va Turkistonning bo`lajak siyosiy tuzilmasi va Muvaqqat Hukumat tomonidan olib borilayotgan Milliy siyosatga munosabat va boshqalar xususida edi .

Ma`lumki, buning oqibatida 1917 yil iyun oyiga kelib, «Sho`roi Islomiya» tashkilotidan xalq orasida katta nufuzga ega bo`lgan «Sho`roi Ulamo» jamiyati ajralib chiqdi. Jamiyatning dastur va Nizomi iyul oyi boshlarida Toshkentda Beklar-begi madrasasida bo`lib o`tgan 25 000 kishilik mitingda tasdiqlandi.

Tez orada Turkistonning ko`plab shaharlarida, xususan, Farg’ona vodiysida ham «Sho`roi Ulamo»ning sho``balari tuzila boshladi.

1917 yil 28 avgustda Qo`qon shahrining «Jome`» madrasasida bo`lib o`tgan yig'ilishda «Ulamo Jamiyati»ning Qo`qon sho``basiga asos solindi. Jamiyatning boshqaruv hay`ati quyidagi tartibda tuzildi:

1) Rais: Mulla Muhiddinxon mulla Ulug'xon To`raev; 2) Kotib: Imomnazar ernazar Mirzaev; 3) YOrdamchi: Solijon Ashur Muhammedov; 4) Hazinachi: Ahmadjon Isoqboyhojiyev; a`zolari: Komiljon Rahimboboyev, Alijonxo`ja Ismoilboyev, A`zamjon Ahmadjonov.

Ayni paytda g'oyaviy qarashlar ortodoksalligiga qaramay, «Ulamo» tashkiloti a`zolari o`lka mahalliy aholisining ozodlikka intilishlarini faollashtirishga o`z hissalarini qo`shdilar.

Sho`roiulamochilarning ustivor vazifalari haqida aniq tasavvurga ega bo`lish uchun, masalan, Qo`qonda tashkil etilgan «Ulamo» jamiyatining nizomi bilan tanishib chiqish lozim. Unda, xususan, quyidagi maqsadlar qo`yiladi:

1. Musulmonlarni umumiy tashkil etish munosabati bilan mutaraqqiy-ma`rifiy asoslarda milliy-diniy tafakkurni ommaviylashtirish va ichki siyosiy hayotni qurish.
2. Millatlar va musulmonlar axloqiy asoslarini vaqtli nashrlar hamda doimiy bosma organlar yo`li bilan muhofaza qilish.
3. Musulmon fuqarolar orasida diniy zaminda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan har xil shikoyat va anglashilmovchiliklarni hal etish va tushuntirish.
4. Madrasalarni qo`llab-quvvatlash va tartibga solish, o`qituvchi va o`quvchilarni muhofaza qilish, ularning taraqqiy etishi haqida g'amxo`rlik qilish va muhtojlarga yordam berish.
5. Ilmiy-ma`rifiy faoliyatda o`zini ko`rsatgan munosib kishilardan o`qituvchilar tanlash va tayyorlash.

Ko`rinib turibdiki, «Ulamo»chilar 1917 yilning dastlabki oylarida diniy ma`rifatchilik doirasida faoliyat ko`rsatishgan. Keyinchalik esa, «Sho`roi Islomiya» va «Sho`roi Ulamo» tashkilotlari o`z faoliyatlarida demokratik erkinliklar va yangi boshqaruv uslubini tatbiq etishni talab eta boshladilar. Biroq «Sho`roi Ulamo» ning vakillari fikriga ko`ra, Turkiston jamiyatining bo`lajak ichki siyosiy tuzilmasida shariat qonunlariga qat`iy ravishda amal qilinishi kerak edi.

1917 yil sentyabr oyining o`rtalariga kelganda milliy-ozodlik harakatlarda birlashish jarayonlari ko`zga tashlanadi. 1917 yil 17-20 sentyabr kunlari Toshkentda «Sho`roi Ulamo» tashabbusi bilan Turkiston va qozoq musulmonlarining syezdi bo`lib o`tdi. Bu syezdda Turkistonning deyarli barcha hududlaridan shuningdek, Ural va To`rg'ay viloyatlaridan kelgan 500 delegat ishtirok etadi. S`ezdda butun Turkiston uchun yagona bo`lgan «Ittifoqi muslimin» deb nomlanuvchi siyosiy partiyani tuzishga qaror qilindi.

«Ulamo» jamiyatida ham siyosiy qarashlarning turlichaligi hukmron edi. Masalan, Toshkent «Sho`roi Ulamo» si Turkiston Muxtoriyatiga ishonchsizlik bilan qaragan bo`lsa, Farg'ona «ulamo»lari esa, ularni umumiy maqsadlar yo`lida birlashishga chaqirganlar .

Farg'ona «ulamo»chilari muxtoriyat uchun kurashda, keyinchalik esa istiqlolchilik harakatida jadidlar bilan yonma-yon izchil amaliy faoliyat ko`rsatdilar. Agar masalaga yaqindan yondashib qarasak, Farg'ona jadidlari va qadimchilari o`rtasida o`ta keskin kelishmovchiliklar bo`lmaganligining guvohi bo`lamiz. SHu o`rinda ulamo tushunchasiga izoh berib o`tishni joiz deb topdik. XX asr boshlarida ulamo tushunchasi ijtimoiy ma`no kasb etar edi. Bunday paytda ulamo deyilganda, asosan madrasalarni tamomlagan, diniy va dunyoviy ilmga ega bo`lgan ziyoli kishilar tushunilgan. Biroq, siyosiy maqsadlar sari intilishlar ham kuchayib borgach, jadidlar bilan ayrim masalalarda muxolifatda bo`lgan o`lka ziyolilari «ulamolar» deb atala boshlandi. Bu davrga kelib, ulamo tushunchasi siyosiy ma`noda qo`llaniladigan bo`ldi. Sovet davrida esa, ulamo tushunchasi «millatchi», «vatan xoini», «xalq dushmani», atamalari bilan bir qatorda, faqat salbiy ma`noda qo`llanildi.

Tadqiqot natijalariga ko`ra shunday xulosaga kelsa bo`ladiki, barcha ulamolarni «qadimchi» lar toifasiga kiritish maqsadga muvofiq emas. Ma`lumki, deyarli barcha jadidlar madrasalarni tamomlagan edilar. SHuning uchun ularni ham aslida ulamo deb hisoblasa bo`ladi. Ulamolar ichida shunday qatlam bor ediki, ular tom ma`noda taraqqiyparvar ulamolar edilar. Masalan, demokratik davlatchilikning nazariy asosini ko`rsatib bergan «Turk Adami

Markaziyati» federalistlar firqasining maromnoma va nizomnomasini yozishda vodiyning mashhur ulamolari qatnashdilar. Istiqlolchilik harakatining faol a`zolari va g'oyaviy rahnamolari ham xuddi mana shu ulamolar bo`ldilar. Lekin ulamolar doirasida har bir yangilikkka bid`at deb baho beruvchi, Evropa Fan va texnikasi yutuqlarini o`lkaga kiritilishiga mutlaqo qarshi bo`lgan guruh ham mavjud bo`lgan. Ayni paytda ushbu ulamolar guruhini qadimchi ulamolar tashkil etgan.

Farg'onada jadid-qadimchilar munozarasi turli xil ko`rinishlarda 10chi yillardan keyin kuchaya borgan. Dastlabki bunday munozaralar maktab ta`limi sohasidan boshlangan. Zamona taqozosi bilan kirib kelgan yangiliklarni «bid`at» deb rad etuvchi shaxslarga nisbatan jadidlar ham o`z vaqtida javob berganlar.

Xulosa qilib aytganda, taraqqiyparvar ulamolar bilan jadidlar o`lka taraqqiyoti yo`lida o`zaro hamkorlikda ish tutganlar. Masalan, Sayyid Nosirxonto`ra jadidlarga o`z g'oyalarini tarqatishda ko`maklashgan. Ashurali Zohiriy ham taraqqiyparvar ulamolar faoliyatini o`z maqolalari orqali qo`llab-quvvatlaydi. Farg'ona ulamolari 1917 yil fevral inqilobidan keyingi demokratik jarayonlarda, Turkiston Muxtoriyatini tashkil etishda faol ishtirok etdilar. O`lka ziyolilari siyosiy faolligining oshuvi ular orasidagi bo`linishning tezlashuviga ham olib keldi.
Bir maqsad yo`lida kurash olib borayotgan millat ziyolilarining jadid va qadimchilar guruhiga ajralishi erk va ozodlik uchun bo`lgan kurashga o`zining salbiy ta`sirini ko`rsatdi.

## 6-MAVZU: JADIDLARNING MILLIY DAVLATCHILIKNI TIKLASH UCHUN KURASHI

### Reja

**1. Jadidlarning 1916-yilgi xalq qo`zg'olonida tutgan o`rni**

**2. 1917 yil fevral inqilobi va uning Turkiston o`lkasiga ta`siri.**

**3. Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi va unda jadidlarning ishtiroki.**

**4. Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi.**

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma`rifatni qilish jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o`tkazish, pirovarida, milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o`z oldiga qo`ygan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi. Bu harakat o`zining shakllanish yo`lini bosib o`tar ekan, asr boshlaridan 1917 yil fevral inqilobiga qadar bo`lgan dastlabki bosqichlarida milliy ozodlik harakati sifatida uzil-kesil rasmiylashdi.

Jadidlar orasidan etuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarini zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari etishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko`rishni orzu qildilar va shu yo`lda fidoiylarcha kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo`nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o`qishga yuborish; turli ma`rifiy jamiyatlar va teatr gruppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o`rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma`rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o`rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo`shin tuzish. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan olingan madaniy-ma`rifiy yo`nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo`ja Behbudiy, Abduqodir SHakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munnavarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla xo`ja Asadullaxo`jaev (Ubaydulla Xo`jayev), Toshpulatbek Norbutabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo`jayev, Usmon Xo`ja (Usmonxo`ja Po`latxo`jaev), Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhitdinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, CHo`lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So`fizoda (Farg'ona vodiysi), Polvonniyoz Hoji, YUsupov, Boboxun Salimov (Xorazm) turardi.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va o`ynalishiga ko`ra uchga bo`linadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlari o`rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o`lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qilgan. Ular podsho Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom ashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so`nga mustaqil davlat bo`lishini yoqlab chiqdilar.

D. Alimovaning yozishicha jadidlar mafkurasida hozirgi kunda jamiyatni tashvishiga solayotgan-dinning inson ma`naviy kamolotidagi o`rnini to`g'ri tushunish, bozorni shakllantirish, jarayonlarini faollashtirish, taraqqiyparvar demokratik institularni vujudga keltirish, o`lkada o`ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish kabi tarixiy vazifalar jamlangan edi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun muhim shartlar bo`lib, islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan yutuqlari va ilg'or texnologiyani egallash muammolarini hal etish lozim edi. Jadidlar islomning taraqqiyparvar rolini tushun-tirish bilan ta`lim, iqtisod, madaniyat va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etish zaruriyatini tushun-tirishga intilganlar. Qurg'on va uning tafsirini juda yaxshi bilgan muftiy Mahmudxo`ja Behbudiy o`z maqolalaridan birida Qur`on oyatlari va payg'ambarimiz hadislaridan namunalar keltirish, bilan islom ta`lim maorif va barcha fanlarga, shu jumladan tarix faniga qay darajada katta ahamiyat berganligini isbotlab bergan. U islom tarixini bilmasligi oqibatida aksariyat hollarda o`ng'aysiz vaziyatga tushib qoladigan din peshvollarini tanqid qiladi.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo`lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi turli taraqqiyparvar oqimlar dasturlaridan xabardor bo`lganlar, o`zaro safarlar va muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906 yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o`z ta`sirini ko`rsatdi. Progressiv kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma`rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar.

Jadidlar Rossiyadagi siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar, vujudga kelayotgan rus siyosiy partiyalari dusturlarini o`rgandilar. Lekin milliy mentalitetning o`ziga xos xususiyati bo`lgan o`zbek xalqining tinchliksevarlik, bosiqlikka moyilligidan kelib chiqib, ular tinchlik yo`li bilan, jamoatchilikning murojaatlari, Davlat Dumasidagi ommaviy bahslar va boshqa legal vositalar bilan podsho hokimiyatidan o`z maqsadlarini amalga oshirish yo`lida yon berishga erishishga intildilar. Behbudiyning 1906 yil 11 oktyabrda «Xurshid» gazetasida chop etilgan maqolasida ta`kidlanishcha, jadidlar birlashib yagona musulmon partiyasi tuzish va Butunrossiya musulmonlari ittifoqi tarkibiga kirishlari zarur. SHu bilan ular Rossiyadagi barcha turkiy xalqlar orasidagi progressiv kuchlarga taxnishga intildilar. Behbudiy ushbu maqolasida sotsial – demokratlar partiyasiga nisbatan o`zining salbiy munosabatini bildiradi va bol'sheviklar partiyasi dasturining musulmonlar turmushi talablariga muvofiq kelmaydigan xayoliy (utopik) qarash ekanligini 1906 yildayoq bashorat qilgan edi. XX asr tarixi Behbudiy fikrlari to`g'ri ekanliginini to`liq isbotlab berdi.

XX asr boshqaridayoq milliy ozodlik harakati bayrog'ini dadil ko`tarib, milliy kuchlar birligini ta`minlash borasida salmoqli faoliyati ko`rsatgan Turkiston jadidlari jahon jamoatchiligi e`tiborini o`ziga tortganligini alohida ta`kidlab o`tish kerak. Taniqli adabiyotshunos olim N. Karimovning yozishicha, Turkistonda siyosiy partiyalar faoliyatini yaxshi o`rgangan frantsuz razvedkachisi mayor Lyakosta, 1906 yilda o`z mamlakatiga yo`llagan yashirin ma`lumotiga bunday yozgan edi: «Turkiston o`lkasidagi eng e`tiborli va kelajagi porloq siyosiy kuch sotsial demokratlar (bol'sheviklar va men'sheviklar) yoki sotsial inqilobchilar (eserlar) yohud kadetlar va liberallar emas, balki o`zbek jadidlaridir».

O`z oldilariga Turkiston xalqlarining taqdiri uchun muhim ahamiyatga molik vazifani qo`ygan jadidlar 1906 yil yanvar oyida Peterburgda bo`lib o`tgan Butunrossiya musulmonlar Burultoyiga (o`z vakillarini yuborib, Rossiya tasarrufida yashagan boshqa msulmon xalqlar va ularning peshqadam arboblari bilan aloqa o`rnatganlar. Xususan, Rossiya Davlat dumasiga Turkistondan saylangan birinchi deputat Toshkentlik Abduvohidqori Abduraufqorievning bu sohadagi katta tashkilotchilik qobiliyati diqqatga sazovordir. U keyinchalik Munavvarqori Abdurashid-xonov bilan birgalikda «SHuroi Islom» jamiyatini tashkil qilgan edi.

Rossiyaning Turkistondagi maxfiy politsiya idorasi ham jadidlarni o`zbek savdo–sanoat ahli qo`llab - quvvatlashi va ular shakllanayotgan o`sh avlodga yomon ta`sir ko`rsatiyotganidan xavotirlanib, Markaziy jadidlar bilan jiddiy hisoblashishga chaqirgan edi. 1916 yildagi milliy ozodlik qo`zg'oloni va 1917 yilgi Rossiya Fevral inqilobining o`lkadagi jadidchilik harakatining yanada keng avj olishida va jadidlar faoliyatida keskin sifat o`zgarishi yuz berishida o`rni va roli katta bo`ldi. Jadidlarning ma`rifiy–mafkuraviy jabhadagi kurashi aniq ifodalangan siyosiy kurash tusini oldi va bu harakat sifatidan yangi bosqichga ko`tarildi. Buxorodagi jadidchilik harakati Turkiston o`lkasiga nisbatan og'ir ijtimoiy – siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do`kondorlar va ma`murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va sarbozlar o`rtasida nufuzi avvaliga past bo`lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo`lishdi. 1900 yili Buxoroda vobkentlik dehqon Jo`raboy ilk yangi uchun maktabini ochdi.

Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo`lgan qadimiylar oqimi qarshi chiqdi. Sadriddin Ayniyning yozishicha, XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiylarga bo`lingan edi. 1908 yilda «Buxoroi sharif shirkati» tuzilib, u darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullanadi. Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Usmon Xo`ja, Hamidxo`ja Mehriy, Abdulvohid Bo`rxonov, Abdulqodir Muhitdinov, Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa`diy shirkatning tashkilotchilari edi. 1909 yil dekabrda jadidlar Buxoroda «Tarbiyai atfol» (Bolalar tarbiyasi) maxfiy jamiyatini tuzishdi. Unga Abdulvohid Burhonov, Hamidxo`ja Mehriy, Ahmadjon Hamday, Mukammil Burhonov, Xoji Rafe kabi mashhur jadidlar asos solishgan. Bu jamiyat buxorolik va turkistonlik yoshlarni Istanbuldagi «Buxoro ta`limi maorif jamiyati» bo`limiga o`qishga jo`natdi. Xorijdagi ta`lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilishi yasadi. Jadidchilik harakati Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo`lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. (910 yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va «Tarbiyai atfol» maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

Buxorodagi jadidchilik harakatiga taraqqiyparvar ulamolardan, muftiy va mudarris Ikrom domla (Ikromcha nomi bilan mashhur bo`lgan) muhim o`rin tutadi. U yaqin va O`rta SHarq mamlakatlarida sayohatda bo`lib, «Uyqudagilarning uyg'onishi va nodonlarning ogoh bo`lishi» (1910) nomli risolasida Buxorodagi amirlik tuzumidan norozilik kayfiyatlarini ochiq aks ettirgan. Bu risola buxoroliklar o`rtasida juda mashhur bo`lgan. Ushbu risoladan so`ng Ikrom domla Buxorodan surgun qilinib, Peshko` tulaniga qozi qilib jo`natilgan (1912–1914 y.).

1914 yil 25-26 yanvarda Buxoro shahrida bo`lgan ulamolar yig'ilishida muftiy Ikrom domla yangi usul (jadid) maktablari ochishga ruxsat berish to`g'risidagi o`zi tayyorlagan dasturni ma`lum qiladi. Bu yig'inishda Buxoroning eng nufuzli ulamolari shayxulislom, a`lam, rais, qozikalon, okun, muftiy askar va boshqalar ishtirok etishadi. Bu paytda Ikrom domla o`z atrofiga yangi usuldagi maktablarni qayta tiklash tarafdori bo`lgan mingga yaqin mullavachchalarni birlashtirgan edi.

Bu paytda Fitrat, S. Ayniy, Usmon Xo`ja, A. Burhonovdan tashqari buxorolik jadidlar o`rtasida katta hurmatga ega bo`lganlardan biri mashhur tabib, sayohatchi va jamoat arbobi Mirzo Siroj hisoblanadi. U «Buxoro xalqiga tuhfa» degan asari bilan mashhur bo`lib, unda

o`zining Amerika, Evropa va Osiyo qit`alariga safari haqida keng ma`lumotlar beradi. Ba`zi manbalarga qaraganda, Mirzo Siroj oliy ta`limni XX asr boshlarida SHveytsariyada olgan.

Buxoro amirligi va Turkistonda ish ko`rayotgan o`zbek ma`rifatparvarlarining qudratli to`dasining faoliyati haqida rus maxfiy politsiyasi–Turkiston rayon muhofaza bo`limi (TRMB) keng ma`lumotlar to`llagan edi. U Turkiston yoshlarining Turkiya bilan aloqasidan chyochigan va yosh turklar ta`sirini yo`qotish choralarini izlagan. SHu jihatdan amalga oxranka fondlarida saqlanib qolgan Mirzo Ahmad qushbegining «Taraqqiyparvarlar jamiyati g’oyalari ocherki» deb nomlangan ma`lumotnomasi diqqatga sazovordir. Mazkur Hujjatda quyidagilar alohida ta`kidlangan edi: «Taraqqiyparvarlar jamiyatining bosh g’oyasi yosh turklar taraqqiyotiga tahdid etishdir. Ularning rejasi xalqqa siyosiy va ichki erkinlik berish. Aholi o`rtasida o`z e`tiborlarini ular siyosat va din zaminidagi harakatlari bilan amalga oshirishni rejalashtirishgan edi. Ular o`zlarini xalqni ruslar va mahalliy ma`muriyat zulmidan xalos etishga qaratilgan siyosatni olib boruvchilar, qilib ko`rsatishga intilishadi. Rus tili va ma`lumotini egallagan hamda rus unsurlari (elementlari) doirasida yuruvchi yoshlarning ko`pchiligi ularga xayrixoh bo`lib, bu g’oyalarni tarqatishda yaqindan yordamlashmoqda».

Buxorodan Turkiyaga o'qish uchun yuborilgan talabalar soni asta – sekin oshib boradi, masalan, 1911 yilda Istanbulga o`qish uchun 15 kishi, 1912 yilda 20 kishi jo`natilgan edi. Bu talabalarning eng ko'zga ko`ringani Fitrat bo`lgan. Biroq Rossiyada aksilturk kayfiyatini kuchayishi munosabati bilan Turkiyada, shuningdek, Orenburgda tahsil olayotgan talabalar Buxoroga qaytariladi. Bu holatni Fayzulla Xo`jayev «Jadidlarning avvalgi xayolparastligi endi vaziyatga to`g’ri kelmay qoldi», deb baholaydi.

Shunday qilib, XX asrning boshlarida Buxoro amirligidagi jadidlar va boshqa taraqqiyparvar kuchlar vaziyatga tanqidiy yondashgan holda davlatning ichki boshqaruv tizimi zamon talablariga javob bermasligini, mehnatkash xalqning turmush darajasi nihoyatda past ekanligini va siyosiy–ma`muriy tuzumni o`zgartirish lozimligini chuqur onglay boshlashgach. Ana shu zaminda jadidchilik harakatidan siyosiy partiyalar va milliy tashkilotlar o`sib chiqdi.

XX asr boshlarida Xiva xonligida shakllangan jadidchilik harakati esa bir qadar boshqacharoq tarixiy shart–sharoitda vujudga kelgan edi. U bu erda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o`ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo–sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o`ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfondiyorxonning Bosh vaziri Islomxo`ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o`n oqimi o`z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy–iqtisodiy islohotlar o`tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo`l ochib berishni maqsad qilib qo`ygan edi. Xiva xonligida jadidchilik harakatining yo`l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va halqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo`lib, Qozikalon Bobookun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish, orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o`stirishi maqsadini qo`yishgan edi. 1904 yilda «Jamiyati xayrir» tuzilib, uning ko`magi bilan o`sha yili 10 noyabrda Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Xiva jadidlari ma`rifiy kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo`lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy–siyosiy kuchga aylaniy, 1914 yil avgustda u partiya shaklini olgan. Xiva xonligidagi jadidchilik harakati yangiliklar tarafdorlari bo`lgan amaldorlar, mahalliy boylar va savdo ahli, taraqqiyparvar musulmon ruhoniylari, madrasa mudarrislari va toliblari, ma`rifatparvar. Shoirlar maktablar va madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni joriy etish savodxonlik usullarini soddalashtirish o`quvchilarni o`z ona tilida ko`proq o`qitish va xorijiy tillarni o`rganish kabi ma`rifatparvarlik islohotchilik g’oyalari bilan chiqqan kishilar harakati hisoblanadi. Ular sifatida bosh vazir Islomxo`ja, Qozikalon Bobooxun Salimov, shoir Avaz O`tar, devonbegi Husainbek Matmurodov, Savdogar Polvoniyoz Hoji YUsupov, sanoatchi boy Nazar SHolikorov, matbaachi–hunarmand Otajon Abdalov, birinchi o`zbek kinooperatori Xudaybergan Devonov, mirzaboshi Muhammad Rasul, xonanda–musiqashunoslar Matyoqub podachi, Otajon Safaev, Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhamedov, Muhammadyor Hoji Abdullaev, Otajon Xo`janiyozov va boshqalar kirgan. Ularning safi 40 nafardan ziyod kishini

tashkil etardi. Har payshanba kechasi choq Qalandarxonada, choq Qorako`z masji-dida, ko`pincha Xusainbek Matmuroddevonbegi o`g'lining o`yida yig'ilishlar (o`tkazilib, qo`shiqlar aytishgan, she`rxonlik qilishgan, erk, adolat, madaniyat va islohotga doir suhbatlar olib borilgan. Ular jadid adabiyoti va san`atini yaratish bilan cheklanib qolmay, madaniyat va maorif muassasalari tashkil etish, ya`ni yangi usul maktablari, kasalxona, pochta–telegraf ochish, o`quv qo`llanmalari yozish va nashr etish ishlari bilan shug'ullanganlar. Islomxo`ja 11 moddadan iborat hokimlarga ko`rsatmalar berish bilan bir qatorda 10 moddadan iborat islohotlar dasturini ham ishlab chiqadi. Bu islohotlar dasturi quyidagilardan iborat bo`lgan:

1. Xonlikdagi mansabdor va xizmatchilarga lavozimiga qarab oylik maosh belgilash;
2. Dehqonlardan soliq olishni tartibga keltirish va soliq oluvchilarni uch tabaqaga ajratish;
3. Zakot, boj, xiroj kabilarni tartibga solish;
4. Aholidan savdo–sotiq uchun olinadigan soliqlarni tartibga solish;
5. Erlarni sug'orish ishlarini tartibga solish;
6. Yo`llar, temir ko`priklar qo`rish va pochta–telegraf xizmatini tashkil qilish;
7. Shaharlarda kasalxonalar qurish, qishloqlarda fel'dsherlik xizmatini ochish, tibbiy xizmatchilarni taklif etish;
8. Barcha vaqf erlarini markazlashtirish va daromadlarini maorif ishlariga sarflash;
9. Barcha maktablarda yangicha o`qitish usuliga o`tish, maktublar dasturiga rus tili, geografik, tarix fanlari majburiy qilib kiritish;
10. Xon hazinasi hisobini yuritish, kirim-chiqim kitoblarini olib borish.

Bu dastur tezda hayotga tatbiq qilina boshlandi. Biroq yuqorida aytib o`tilganidek, Islomxo`janing o`limi bilan islohotlar dasturi ham to`xtab qoldi.
Bu davrda jadidlar ijtimoiy–siyosiy kuch sifatida ko`rindilar. Xalq ularda o`z himoyachilarni his etdi. Siradryo viloyatidan Peterburgda o`tadigan Davlat dumasiga a`zolikka saylangan Abduvohidqori Abduraufqorievga Toshkent, CHimkent va boshqa joylarning aholisidan 12 moddadan iborat talabnomani Davlat dumasiga topshirish yuklandi. Bu hujjatda ko`pgina ijtimoiy talablar ko`rsatilgan edi. A. Abduraufqoriev 1907 yil 20 fevral–3 iyunda Peterburgda Sadri Maqsudiy, Muso Jorilloq, Alimardon To`lchiboshev kabi musulmon ziyolilari bilan tanishib, musulmon fraktsiyasining raisi Biglovga Turkiston xalqi dardini etkazdi. Biroq Abduvohidqori oradan ko`p o`tmay qamoqqa olindi va Tulaga surgun qilindi.

Jadid matbuoti o`z vakillarining fikrlarini e`lon qilar ekan, xalqni «har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi» millat ongining ochqichi» ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda «erk», «Turon», «O`qituvchilar jamiyati» kabi uyushmalar paydo bo`ldi. Munavvarlari aytganidek, Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haq-huquqlarini ovrupoliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi».

Jadidlar bu davrda «Ozodlik, tenglik va adolat» shafi ostida ishladilar. Ularning 1916 yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati g'oyatda e`tiborga molikdir. Mardikorlikka olish-Birnchi jahon urushi ketayotgan joylardagi ishlarga turkistonliklarni jalb qilish oq podshoning 1916 yil 25 iyun' farmoniga muvofiq amalga oshirildi. Bu kutilmagan tadbir, birinchidan, 1865 yil shartnomasiga zid edi. Ikkinchidan, general Kuropatkinning xulosasiga qaraganda, «Ahomyo va ma`muriyat turar joydan tashqaridagi ishlarga mutlaqo tayyorlanmagan va bunday shoshilinch amalga oshirilgan tadbir og'ir tartibsizliklarni keltirib chiqargan». Azosi uchun ana shunday musibatli paytda jadidlarning ko`zga ko`ringan namoyandalaridan U. Asadullaxo`jaev («Turkiston mardikorlikka olish qo`mitasi» raisi) va millatparvar boy Mirkomilboy Mirmuminboev Rossiya jamoat-chiligining e`tiboriga bu masalani jalb etish, farmonni bekor qildirish uchun Peterburgga yo`l oldilar. Davlat dumasining 1916 yil 13 va 15 dekabr kunlari o`tgan majlisida Nikolay II ning 25 iyun' farmoni Rossiya imperiyasining qonunchiligida

ko`rsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilingani tan olindi. Farmon Dumada muhokama qilinguncha qadar iyun'–avgust oylarida jadidlar harakati orqali bir necha eshelon to`xtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917 yil fevral inqilobi boshlanishi bilan to`la amalga oshdi. Bu hadisa el orasida ularning obro`sini ko`tardi. Mazkur holat jadidlar ma`rifatparvarlikdan siyosiy kurashga allaqachon o`tganliklarini bildilar edi. Xulosa qilib aytganda, XX asr boshida Turkistondagi ijtimoiy – siyosiy jarayonlarda jadidlar muhim rol' o`ynashi. Ularning diqqat markazida ma`rifiy masalalar asosiy yo`nalish kasb etganligini ko`ramiz. Jadidlar mintaqa hayotini tahlil qilish natijasida shuni tushunchalarki, Turkiston – bu muhiyatin mustamlaka va Rossiya ma`muriyatining boshqaruv tizimi, milliy ehtiyojlariga javob bermaydi. Bu masalalar fevral inqilobi arafasida, ayniqsa, keskin qo`yilgan. SHu yillarda yangi uslubdagi dunyoviy ta`lim, milliy o`ziga xoslikning eng yaxshi tomonlarini mustahkamlash, madaniyatni joriy etish uchun harakat jadid-chilikning negiziga qo`yilgan siyosiy mustaqillik, demokratik boshqaruv shakllari uchun kurash g'oyalari bilan birga sodir bo`ldi.

Jadidlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o`z g'oyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurashga alohida ahamiyat berganlar. Bu vazifalarni amalga oshirishda ular taraqqiyparvar, bilimni yoshlarga tayanganlar. Ular o`z ishlarida Evropa davlatlari taraqqiyotga qanday yo`llar bilan etib kelganligini aks ettirib, tarixiy misollar keltirganlar. Jadidlar til o`rganish va fan-texnika taraqqiyotining ahamiyatiga alohida e`tibor berib, Turkistonning o`tmishdagi hamda zamonaviy holatining o`ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda, uning kelajagini quyidagicha tasavvur qilganlar: kuchli dunyoviy hokimiyat, xususiy mulkning daxlsizligi. Ular qurmoqchi bo`lgan davlat islomga hurmatini saqlagan holda barcha yo`nalishdagi madaniyatlarning erkin rivojlanishiga xayri xoh bo`lishi lozim edi. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko`tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Evropaning eng yaxshi o`quv maskanlarida o`qitish zarur, deb hisoblaganlar. Ular davlat kelajagi yoshlar qo`lidaligini juda yaxshi anglaganlar.

Rossiyadagi fevral inqilobi, 300 yildan ortiqroq hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasining taxtdan ag'darilishi o`lkadagi taraqqiyparvar kuchlar tomonidan ham zo`r hursandchilik bilan qarshi olindi.

1917 yilda Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi eng muhim masalalardan biri, bu Turkistonda yangi boshqaruv usulidagi davlatchilikni tashkil etish edi. O`sha tarixiy shart-sharoitlarda milliy davlatchilikka ega bo`lish g'oyasi turli tashkilot va partiyalarning o`zaro kurashida asosiy qurolga aylangan edi. Jadidlarning intilishlari Turkistonda federatsiya asosida milliy-demokratik davlatchilikni barpo etishga qaratilgan edi. Jadidlarning muxtoriyat (avtonomiya), davlatchilik to`g'risidagi g'oyalari o`sha paytdagi Rossiyada mavjud siyosiy-ijtimoiy va inqilobiy ahvol bilan bog'liq holda shakllanib keldi. Ular mustamlaka xalqlarning Rossiyadan butunlay mustaqil bo`lib chiqib ketishlarini hali kun tartibiga qo`yolmagan edilar. CHunki Rossiyadek qudratli imperiya changalidan asta-sekinlik bilan, oqilona nozik siyosat yurgizish orqali butunlay mustaqillikkka erishish mumkinligini jadidlar yaxshi anglaganlar.

Mahalliy ilg'or ziyolilar zudlik bilan milliy jamiyat va nashrlar uchun harakat boshladilar.

1917 yil mart oyining boshlarida o`lka musulmon ziyolilarining «Sho`roi Islomiya» jamiyati tuzildi. Bu tashkilotning vujudga kelishi tasodifiy bo`lmay, balki Turkiston xalqlari siyosiy fikrlari tadrijiy rivojlanishining qonuniy mahsuli edi. Uning tarkibini turli xil dunyoqarashdagi, biroq, milliy ozodlik g'oyalarini o`zlarining asosiy maqsadi deb bilgan o`lka ziyolilari tashkil qilar edi.

Ushbu tashkilotning yuzaga kelishida Turkiston jadidlari muhim rol o`ynadilar. Taniqli jadid Mirmulla Shermuhammad o`g'li dastlabki onlardanoq barchani «Sho`roi Islomiya»ni qo`llab-quvvatlashga va hamjihatlikka da`vat etgan edi: «...Aziz dindoshlar! Ushbu vaqt, g'oyat muhim. Hamda har minutdan bekor o`tkarmasdan ishga tutunarlik vaqt. Taassub, jaholat, nifoqlarni oramizdan ko`tarub, bir birimiz ila qo`l ushlashub ittifoq uzra qusurlarimizni maydong'a qo`ymoq va uni choralarini so`ylamoqg'a tashabbus etmak kerak. Tafarruqalik balosi, ittifoqsizlik kasallari, bizlarni har bir taraqqiylarimiz sad chekkanlarin hayolimizdan

chiqarmayluk. «Sho`roi Islomiya»g'a moddiy va ma`naviy jihatlardan yordam berub olarni quvvat topmog'ig'a bor himmatimizni sarf etmog'imiz kerak!...».

Tez orada turli shaharlarda «Sho`roi Islomiya»ning sho``balari tashkil topdi. 1917 yil 25 mayda Qo`qonda Farg'ona viloyati musulmonlari syezdi bo`lib o`tdi. Viloyat «Sho`roi Islomiya» tashkiloti ushbu syezdning tashkilotchilaridan bo`ldi. S`ezdda 42 musulmon tashkilotidan 98 delegat ishtirok etdi. Prezidiumga: S. Akaev, K. Rahmonberdiev, T. Norbo`tabekov, O. Mahmudov, A. Ziyoev, YA. YAhyoxonov, A. Umarboevlar saylandilar. S`ezd o`lka «Sho`roi Islomiya»siga viloyatdan ikki kishi: Mirodil Mirzaahmedov va Olimxonto`rani vakil etib sayladi. T. Norbo`tabekov esa, Farg'ona viloyatidan Muvaqqat hukumat Turkiston komiteti huzuridagi majlisga a`zo sifatida saylandi.

Jadidlar ommani «Sho`roi Islomiya» atrofida jipslashishga da`vat etdilar. «Sho`roi Islomiya» Qo`qon bo`limining aholiga murojaatnomasida shu munosabat bilan quyidagilar aytiladi:

«...Hurmatli ozod musulmonlar! Ishonchingiz komil bo`lsinki, Qo`qon musulmonlari bir ovozdan tashkil etgan «Sho`roi Islom» yangi tashkiloti har doim musulmonlar manfaatiga xizmat qiladi.

Bu tashkilot doimo tinchlik va xotirjamlik uchun harakat qiladi. Agar barcha musulmonlar birgalikda tinchlik va tartibni saqlashsa, bu, biz, hamma musulmonlarning foydasiga bo`ladi. Lekin tinchlik-xotirjamlikni namoyon etmay, har xil quruq gaplarga quloq solsak, bizga berilgan Ozodlikdan foydalana olmaymiz!».

1917 yilning mart oyida Qo`qonda I- musulmon madaniy-ma`rifiy jamiyati tuzildi. 1917 yilning 20 martida Qo`qonda bo`lib o`tgan musulmon fuqoralarining umumiy yig'ilishida «Musulmon madaniy-ma`rifiy jamiyati» tuzilganligi e`lon qilinadi va bu jamiyat aprel oyida Farg'ona viloyati harbiy gubernatorligi tamonidan rasman ro`yxatdan o`tkaziladi. 20 mart yig'ilishi qaydnomasida ko`rsatilganidek, jamiyatning asosiy maqsadi musulmon aholisi orasida maorif va madaniyatni yoyish hamda ularning yanada jipslashtirishdan iborat bo`lgan. Yig'ilishda jamiyat raisi, boshqaruv hay`ati saylangan. Tashkilot Nizomida ko`rsatilishicha, jamiyat a`zolari va ularning oilalari o`rtasida madaniy ishlarni olib borish, ularning ijtimoiy holatlarini yaxshilashga intilish asosiy maqsad va vazifalardandir. Jamiyat quyidagi huquqlarga ega bo`lgan: bolalar va kattalar uchun har xil turdagi o`quv muassasalari, ya`ni umumta`lim va hunar maktablari, kutubxona va klublar ochish; spektakllar va ma`ruzalar o`qishni tashkil qilish; o`z ko`chmas mulkiga ega bo`lish; har xil baxtsiz hodisalar oqibatida zarar ko`rgan a`zolarning oilalariga moddiy yordam ko`rsatish va boshqalar. Jamiyat haqiqiy va faxriy a`zolardan tashkil topgan. Haqiqiy a`zolikka jinsidan qat`iy nazar, a`zolik badalini to`lovchi fuqarolar qabul qilingan. Faxriy a`zolikka esa jamiyatning umumiy yig'ilishi qarori bilan qabul qilingan. Tashkilot jamg'armasi a`zolik badallari va hayriya mablag'lari hisobidan to`plangan.

Andijon shahrida avgust oyining boshlarida musulmon hunar ahlining «Sanoyi ul-islom» sho`rosi tuzildi. Unga 1500 kishi a`zo bo`lib kirdi.

Shahar Dumasi uchun bo`ladigan saylovlarga barcha tashkilotlar tomonidan qizg'in tayyorgarliklar ko`rildi. 14-17 iyul kunlari Andijonda uezd-shahar musulmon tashkilotlari «Sho`roi Islomiya», «Muftah ul-maorif», «Havaskoroni maorif» va boshqalarning syezdi bo`lib o`tdi. S`ezdda 11 ta masala ko`rildi: ya`ni, Qozonda bo`ladigan Butunrossiya Musulmonlari syezdiga delegatlar yuborish; Ta`sis Majlisi uchun bo`ladigan saylovlarga mahalliy aholini tayyorlash uchun uezdlarga tashviqotchilar yuborish; aholi ro`yxati haqida, shahar Dumasi saylovlarida ayollarning ishtiroki va h.z.

Butun Turkistonda bo`lgani kabi, Farg'ona vodiysida ham jadidlar tomonidan barcha mahalliy jamiyatlarni yagona tashkilot qilib birlashtirish harakatlari davom etdi. 12-14 iyul kunlari Skobelev shahrida Farg'ona viloyat musulmon tashkilotlari vakillarining navbatdagi syezdi bo`lib o`tdi. Ushbu syezdda 137 delegat ishtirok etdi. Anjuman barcha musulmon tashkilotlarini siyosiy jihatdan birlashishga chaqirdi.

Ushbu syezdning muhim ahamiyati, «Turk Adami Markaziyati» firqasining tuzish haqida qaror qabul qilinishi bo`ldi. Delegatlar tuzilajak firqaning nizomnomasi va maromnomasi loyihasi bilan qisqacha tanishtirildilar. Ushbu qonuniy hujjatlarni ishlab chiqishda farg'onalik

jadid va ulamolardan Kamoluddin qozi Rahmonberdi o`g'li, Mullo Muhiddin, Maxdum a`lam mullo Muhammad, Mullo Boqi Oxund domullo Odilboy o`g'li, Mullo Nuriddin A`lam Yo`ldoshxo`ja eshon o`g'li, Mullo Muhammadjon Kamoljonboef, Mirzo Abdulqodirbek Mirzoahmad Qushbegiev, Obidjon Mahmudov, Mirodil Mirzoahmad o`g'li ishtirok etdilar.

Turkistonning ko`plab shaharlarida yangi partiyaning tashkiliy yig'ilishlari bo`lib o`tdi. Jumladan, 23 avgust kuni Andijonda «Havaskoroni maorif», «Turon», «Talabalar jamiyati» tashkilotlari vakillari tomonidan «Turk Adami Markaziyati» firqasining Muvaqqat qo`mitasi tuzildi. Uning tarkibiga Xusan eshonxo`ja, Sohib afandi, Isroil YUsufzoda va boshqalar saylandilar.

20 avgustda Marg'ilon shahrida 2000 kishilik miting bo`lib o`tdi. Unda mahalliy «Sho`roi Islomiya» tashkiloti faollari yig'ilganlarni shaharda federalistlar firqasi sho``basini tuzishga chaqirdilar.

Taraqqiyparvar ziyolilar tomonidan ishlab chiqilgan firqaning maromnomasini o`lkada demokratik ko`rinishdagi davlat qurishning nazariy asosi edi deyish mumkin. Bu fikrni Maromnomaning quyidagi bandlari bilan izohlash mumkin: «Firqaning maqsadi: 1)Rusiyada mahalliy va milliy adami markaziyat (federatsiya) asosi uzra Xalq Jumhuriyati tashkil etmakdur. 2) Firqa Turkiston, Qirg'iziston, Qofqoz va Boshqirdiston qit`alari ( o`lkalari) uchun va boshqa milliy va mahalliy muxtoriyat, Idil bo`yi ila Qrim totorlari uchun va boshqa Rusiyada yashaydurgon turk qavmlari uchun milliy muxtoriyat talab qiladur...4)Millatning yigirma yoshga etub, aqliyat paydo qilg'on har bir fardi: er bo`lsun, xotun bo`lsun- sinf, din va mazhab ayirmasig'a boqmasdan saylamak va saylanmak haqina molikdur. 5)YUqorida mazkur barcha muxtoriyatli qit`alar markaziy hukumat ila Vatan mudofaasi, pul chiqarmak, boj va xorijiy hukumatlar ila munosabatda bo`lmoq xususlarida aloqa va irtibotini(bog'liqlikni) muhofaza qilur. 6) Muxtoriyatli qit`alar dohiliy mas`alalar (idoriy, moliy, shar`iy, madaniy, adliy va maorif ishlari)da mustaqildur...».

Demak, demokratik Rossiya tarkibida muxtoriyat tashkil qilish uchun kurash 1917 yil davomida taraqqiyparvarlarning asosiy maqsad- intilishlari bo`ldi.

O`lkadagi demokratik jarayonlar rivojida vodiydagi qirg'iz milliy jamiyatlari ham faol qatnashdilar. 1917 yilning 17 iyunida Andijonda «Elatiya» jamiyati tuzilib, uning rahbar hay`atiga Kenja Ali Do`stov, Sulaymon Kelganboev, Botirxon Meirbekov va boshqalar a`zo bo`lib kirdilar. Jamiyat o`z oldiga quyidagi vazifalarni qo`ygan edi: 1) Ko`chmanchi aholini Rossiyadagi yangi davlat tuzumi g'oyalari bilan tanishtirish; 2) Ta`sis Majlisiga tayyorgarlik; 3) YAngi ijtimoiy-siyosiy jamiyat uchun tayanch bo`luvchi jamoatchi kuchlarni tashkil qilish; 4) Qirg'izlar orasida huquqiy-tartibotni joriy qilish; 5) qirg'iz, qipchoq va qozoqlarni o`z milliy va siyosiy-iqtisodiy manfaatlari himoyasi uchun yagona ittifoqqa birlashtirish g'oyalarini tashviq qilish; 6) Gazeta tashkil qilish va h.z.

Vodiyning Andijon, Namangan, Skobelev kabi shaharlarida oktyabr voqealari arafasida ham o`lkadagi milliy harakatlar rivojlanish jarayonini o`zida ifoda etgan ko`plab yig'inlar bo`lib o`tdi.

Biroq, 1917 yil oktyabr-noyabr oyiga kelganda o`lkadagi siyosiy vaziyat keskin o`zgardi. Petrogradda hokimiyatni bolsheviklar tomonidan zo`rlik bilan qo`lga olinishi Turkiston taraqqiyparvarlarini o`z rejalarini o`zgartirishga majbur etdi.

Oradan ko`p o`tmay, Toshkentda 15-22 noyabr kunlari ishchi, soldat va krestyan deputatlari Sovetlarining III- o`lka syezdi bo`lib o`tdi. S`ezd so`l eser, bolshevik va maksimalistlardan iborat Turkiston Xalq Komissarlari Soveti (raisi-F.I. Kolesov) tuzilganligini e`lon qiladi. Hukumat tarkibiga mahalliy aholidan bironta ham vakil kiritilmadi. Turkiston Xalq Komissarlari Soveti dastlabki kunlardanoq o`zining shovinistik, yangicha ko`rinishdagi mustamlakachilik siyosatini olib bordi. YAngi hukumat mahalliy aholiga past nuqtai nazar bilan qarab, umumiy aholining 95% idan ortig'ini tashkil etuvchi erli millat vakillarini hukumatga yaqinlashtirmaslik, ularning diniy va milliy urf-odat va an`analarini mensimaslik kabi siyosatni olib bordi. Bundan norozi bo`lgan o`lka taraqqiyparvarlari kutilayotgan Ta`sis Majlisidan umidlarini uzdilar hamda faoliyatlarini sharoitga moslashtirgan holda davom ettirdilar.

«Sho`roi Islomiya» va boshqa mahalliy tashkilotlarning tashabbusi bilan 1917 yil 26-29 noyabr kunlari Qo`qonda o`lka musulmonlarining IV-favqulodda syezdi bo`lib o`tdi. S`ezd ishida Turkistonning barcha hududlaridan 300 dan, ortiq jumladan, rus tashkilotlari vakillaridan ham delegatlar ishtirok etdi.

27 noyabr kuni syezd Ta`sis Majlisining chaqirilishiga hech qanday umid qolmaganligi va yagona yo`l muxtoriyat e`lon qilish ekanligini e`tirof etgan holda, Turkiston Muxtoriyati tuzilganligini e`lon qildi.

Sovetlarning III O`lka syezdi shovinistik qarorlariga qarama-qarshi o`laroq musulmon qurultoyi o`z ishining barcha bosqichlarida chinakam baynalmilalchilik tamoyili, o`lkaning ko`p millatli, shu jumladan evropalik qismi aholisi manfaatlarini hisobga olishdan kelib chiqdi. Bunday insonparvarlik yondashuvi IV musulmon qurultoyi ochilgan paytdanoq namoyon bo`ldi. Jumladan, Mahmudxo`ja Behbudiy syezdning huquqiy asosga egaligi haqidagi nutqida shuni alohida ta`kidladiki, «S`ezdda Turkistonning evropalik aholisi vakillari ishtirok etayotgani uchun ham syezd qarorlari yanada obro`lidir». M.Behbudiy syezd hay`atiga turli musulmon, rus, yahudiy va hokazo guruhlardan vakillar kiritilishini taklif etdi. Undan keyin so`zga chiqqan Qo`qon vakili Obidjon Mahmudov ham «Hay`atga saylovlarda viloyat va ayrim diniy hamda milliy guruhlar bo`yicha emas, balki bilimdon va ishchan kishilarni tanlash asosida kirishish» zaruriyati haqida gapirdi.

Mahalliy xalq joylarda ushbu xabarni shodu-hurramlik bilan kutib oldi. S`ezdda hukumat organlari: Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat Hukumati va Milliy Xalq Majlisi tuzildi. Xalq Majlisi 54 kishidan tashkil topgan bo`lib, 1/3 o`rin evropalik millat vakillari uchun ajratildi.

Turkiston Muxtoriyati tarkibida ko`plab farg’onalik jadidlar mas`ul lavozimlarda ishladilar. Farg’onalik jadidlar butun faoliyatlari davomida Muxtoriyatni moddiy va ma`naviy jihatdan qo`llab-quvvatlashni targ’ib va tashviq qildilar.

Xalq Majlisiga Farg’ona viloyatidan SHoislom SHoahmedov, Abdurahmon O`razaev, Hidoyatbek YUrali Akaev, Nosirxonto`ra, Toshxo`ja Ashurxo`jaev, Mirodil Mirzaahmedov, Abdulqodir Qushbegiev, Obidjon Mahmudov, Jamshidbek Qorabekovlar kirdilar.

S`ezdda milliy pul jamg’armasi tashkil etilib, farg’onalik taraqqiyparvarlardan Mirodil Mirzaahmedov 10.000 rubl miqdorida pul o`tkazdi.

1918 yil 10-11 yanvar kunlari Andijonda «Muayyan ul-islom» jamiyati idorasida musulmon jamoat tashkilotlarining syezdi bo`lib o`tdi. Delegatlar tomonidan uezd ma`muriyatidagi barcha shaxslardan Turkiston Muxtoriyati Muavqqat Hukumatini tan olganligi haqidagi tilxatni olish uchun syezd prezidiumi a`zolaridan maxsus komissiya tuzish haqida taklif bildirildi. Bundan tashqari, Muxtoriyatni qo`llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun har bir volostdan vakillarni jalb etgan holda xalq militsiyasini tashkil qilish haqida qaror qilindi.

Bolsheviklar har qanday yo`l bilan bo`lsa ham, Turkiston Muxtoriyatiga xalqni qarshi qo`ymoqchi bo`ldilar. Bunga javoban, Farg’ona viloyati musulmon mehnatkashlarining syezdi (1917y. dekabr) musulmon mehnatkashlarini barcha vositalar bilan Muxtoriyatni qo`llab quvvatlashlarini bildirdi.

Turkiston Muxtoriyatini Farg’ona vodiysi aholisi tomonidan qo`llab-quvvatlanganligi to`g’risida arxiv hujjatlari va milliy matbuot sahifalarida ko`plab ma`lumotlar berilgan. Jadidlar ushbu miting va namoyishlarni asosiy tashkilotchilari bo`ldilar.

Jumladan, 1 dekabrda Namangan uezdida 100 mingga qadar kishi ishtirok etgan namoyish bo`lib o`tdi. Namoyishchilarning bayroqlariga «YAshasun muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!» so`zlari yozilgan edi.

6 dekabrda Jalolobod volostiga qarashli Xonobod qishlog’ida ham Muxtoriyat e`lon etilishi munosabati bilan namoyish o`tkazildi. Bir necha mingdan ortiq kishi Fozilxon mozoridan to bozorga qadar yig’ilib turdi. Namoyishda Abdulla eshon va Huseyn Validiy so`zga chiqib, xalqqa Muxtoriyatning tashkil etilishi, maqsadlarini tushuntirishdi.

7 dekabrda Qo`qon shahrining 42 jamoat tashkilotlari nomidan yig’ilgan vakillarning qo`shma majlisi bo`lib o`tdi. Unda qabul qilingan qarorda ko`p millionli Turkiston xalqiga tabriklar yo`llandi.

Muxtoriyat hukumati tomonidan madaniy ma`rifiy ishlarni yaxshi yo`lga qo`yish maqsadida maxsus «Musulmon xalq maorifi» bo`limi tashkil qilindi. Uning rahbari etib, Farg'ona «Sho`roi Islomiya»sining faollaridan Sayyid Nosirxonto`ra tayinlandi.

Biroq, hujjatli ma`lumotlarga ko`ra, Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi va uning o`lka mahalliy aholisi manfaatlariga mos tushuvchi siyosati bolsheviklar tomonidan salbiy tarzda kutib olindi. Voqealar rivoji Qo`qonda tuzilgan Muxtor Hukumatning 1918 yilning fevral oyida qonga botirilishi bilan xotima topdi. 18 fevraldan 19 fevralga o`tar kechasi Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tomonidan yuborilgan 11 eshelon harbiy qismlar Qo`qonga etib keldi. Otliq askarlar, artilleriya va piyoda qismlari bilan birga harbiy komissar E. O. Perfil'ev ham keldi. Tish tirnog'i bilan qurollangan bolsheviklar qo`shini Turkiston Muxtoriyatini zo`rlik bilan tor-mor qildi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatining tor-mor etilishi va shundan keyin mahalliy aholiga qarshi jazo kompaniyasining avj olishi, vodiyda istiqlolchilik harakatining kelib chiqishiga, Vatan va millatning, avvalo Farg'onaning asl farzandlarini erk va ozodlik uchun qo`llariga qurol olishga majbur etdi.

## 7-mavzu. Buxoro amirligi jadidchilik harakati.

**REJA**

1. **Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va taraqqiyoti.**
2. **Buxoroda jadid maktablari.**
3. **Matbuot, san'at, adabiyot.**

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati serqirra bo'lib, uning asosiy yo'nalish oqimlaridan biri-Buxorodagi jadidchilik edi. Avval ham ta'kidlab o'tilganidek, Buxorodagi jadidchilik harakatidan Yosh buxoroliklar partiyasi o'sib chiqdi. Sovet davrida nashr qilingan tarixiy adabiyotlarda Yosh buxoroliklar partiyasi 1917-yil boshlarida paydo bo'ldi, degan noto'g'ri qarashlar mavjud edi. Tarixchi olim Q. Rajabov Fayzulla Xo'jayevning asarlari hamda arxiv hujjatlariga tayangan bo'lib, shakllanish jarayoni murakkab o'tganligini ta'kidlaydi.

1917-yil fevral inqilobi Yosh buxoroliklar ichida kuchlar nisbatining qayta guruhlanishini tezlashtiridi. Asta sekin isloh qilish tarafdorlari bo'lgan jadidlarga Abdulvohid Burhonov, islohot sohasida faol harakatlarni Qo'llovchi, nisbatan oz sonli yosh jadidlarga Fitrat etakchilik qildi. Yosh buxoroliklar Petrograddagi Muvaqqat hukumatga amirlikda demokratik islohotlar o'tkazishni so'rab, 2-marta telegramma yubordi, Fitrat va Usmon Xo'ja Petrogradga jo'natildi. Ular Rossiyadan maxsus komissiya kelayotgani sababli Orenburgdan Buxoroga Usmon Xo'ja, A. Burhonov va boshqalar bilan uchrashib, Yosh buxoroliklarning talablari bilan qiziqdi. Yosh buxoroliklar yangi usul maktablari ochish, matbuotga erkinlik berish, xalq hukumati tuzish talablarini ilgari surdi. 1917-yil 7-aprelda Buxoro amiri Said Olimxon Miller va uning yordamchisi Shul'ga tuzgan manifest matnini ayrim tuzatishlar bilan farmoni oliy tarzida e'lon qildi. Amir farmonida nufuzli kishilardan iborat majlis, davlat xazinasini ta'sis etish va mamlakat byudjetini belgilash, poytaxtda bosmaxona ochish, sanoat va savdoni rivojlantirish, soliqlarni tartibga solish, amaldorlar ustidan nazorat o'rnatish va ularga moyana to'lash kabilar tilga olingan edi. Yosh buxoroliklarning Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va O'smon Xo'ja boshchiligidagi so'l qanoti farmon e'lon qilingan kunning ertasiga Buxoro shahrida katta namoyish uyushtiradi va Registonda miting o'tkazdi.

14-aprelda amir o'z farmonini bekor qildi. Yosh buxoroliklar endi amir hokimiyatiga qarshi yashirin kurash yo'liga o'tdi. Ular Buxoro shahrini tark etishga majbur bo'ldi va Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahriga kelib o'rnashdi "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi"da yozilishicha, Kogonda ular safiga Buxorodan avval chiqib ketgan yirik savdogar Muhiddin Mansurov o'g'illari (Abduqodir, Amin, Isom) va boshqalar bilan kelib qo'shildi. 1917-yil aprel voqealari Yosh buxoroliklar partiyasi ichidagi bo'linishni o'ng qanot vaqtinchalik ustun keldi. Keyinchalik «Yosh buhoroliklar partiyasidan qisman islohotlar o'tkazish tarafdori bo'lgan

jadidlarning o‘lamolar bilan bog‘langan Ikrom domla boshchiligidagi guruhi ajralib chiqdi. Yosh buhoroliklar safidan yirik sarmoyadorlar chiqib, unga ko‘proq shahar qambag‘allari kirdi.

Jadidlap o‘sha paytda o‘z tashkilotlapini by hapakatning boshqa bip yirik namoyandaci S. Ayniyning guvohlik berishicha, “yoshlap”, “islohotchilap”, “taraqqiychilap”, shuningdek, “Yosh buxoroliklar” deb atagan. By holatni ayrim tarixchilar o‘z asarlapida to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tishgan.

Tarixning ko‘rsatishicha, jadidchilik harakatida orqaga qaytish yo‘q edi. Ma‘pifatchilik va tor davradagi madaniylashtipishdan ish boshlab u siyosiy harakatga aylandi, o‘z oldiga jamiyatni va uni boshqarishni qayta qurishdek vazifalapni qo‘ydi. Macalan, jadidchilik Tataristonda “Musulmon ittifoqi”, Toshkentda “Sho‘roi Islomiya” va boshqa partiyalarni, Buxoroda Yosh byxoroliklar, Xivada Yosh hivaliklap partiyalarini yuzaga keltipdi. Biroq siyosiy talablap shu partiyalar paydo bo‘lgandan keyingina qo‘yila boshlandi, deb hisoblash xato bo‘lur edi. 1910-yildan keyin jadidchilik harakati tashkiliy tus olgach, “Jadidlapning eng ilg‘or qismi orzusida yning programma maksimumida asosiy o‘rin tutgan g‘oya, Byxoroda g‘apb namynasida kapitalizm va demokratiyani rivojlantirish edi”. Fayzylla Xo‘jayevning o‘zi ham by g‘oyalarga xayrixoh edi.

Yosh Byxoroliklap partiyasining dasturini tayyorlash vazifasi 1917-yil noyabp oyida Mapkaziy Qo‘mita tomonidan Fitratga topshirildi. 1918-yil yanvar oyining oxirida Fitpat mazkyr dastur loyihasini yozib, Mapkaziy Qo‘mitaga topshirdi. “Mapkaziy Qo‘mita ozgina o‘zgarishlap bilan mazkur loyihani qabyl qildi va umumga e‘lon qilishga qaror berdi. Shu maqsad bilan eski ishchilardan Rahmat Rafiq Samapqandga yubopildi, ul nashriyot ishlarini yaxshi biladir, «Ma‘rifat” kitob magazinida bip qancha yil ishlagan». Afsuski, Fitrat tayyorlagan dastyr faqat opadan ikki yil o‘tgach, 1920-yil boshlarida Yosh byxoroliklapning Typkiston byurosi nomidan e‘lon qilindi. Biz quyida Fitpat domla tomonidan tayyorlanib, Mapkaziy Qo‘mita qabyl qilgan Yosh buxoroliklar partiyasi dasturi to‘grisida batafsil to‘xtalamiz.

Fayzylla Xo‘jayev by hujjatni o‘z kitobida shunday nomlagan edi: “Fitpat tomonidan ishlangan va Yosh buxoroliklarning Mapkaziy Qo‘mitasi tomonidan tasdiq qilingan islohot loyihasi” Loyihada yep-suv masalasiga katta e‘tibop berilgan. Bundan tashqari, hapbiy masala, moliya ishlari, ichki ishlar va davlat boshqaruv organlari kabi masalalarga unda keng o‘rin berilgan. Loyihada butun haydaladigan yerlap uch qismga bo‘lingan: 1)Vaqf yerlapi (masjid va madrasalarga tegishli yerlar); 2) Soliqdan ozod qilingan yerlar(mulki hur); 3) Soliq olinadigan (mulki xiroj) yerlar.

Hammani ekin ekishga majbur qilish maqsadida barcha ekilgan va ekish mumkin bo‘lib, ekilmay qolgan yerlapga ham soliq solish nazapda tutilgan, Shuningdek, “mulki xiroj” yerlariga soliqni kamaytirish hamda “kafsan” olish, “ushkuna puli” (turli daraxtlar uchun), “cho‘l puli” (yaylov uchun) va boshqa ortiqcha hapajat chiqimlarini tugatish nazapda tutilgan edi, Yosh buxoroliklar partiyasi milliy armiyaga katta e‘tibop bergan edi, Loyihada armiya sonini eski rus hukumati bilan Buxoro amiri tuzgan shaptnomaga ko‘ra 12.000 kishiga yetkazish belgilangandi, Harbiy xizmat 22 yoshga yetgan hamma uchun majbupiy bo‘lishi, xizmat muddati esa ikki yil qilib belgilanishi ko‘zda tutildi. Shuningdek, hapbiy maktablap ochish, askarlarga ozroq bo‘lsa-da, oylik maosh to‘lab turish nazapda tutildi, Moliya sohasida ham jiddiy islohot o‘tkazishga e‘tibor berildi, Buning uchun amirning mablag‘lari aniq belgilanishi, umumdavlat mablag‘idan ajpatilishi, soliqdan davlat byudjeti har yili e‘lon qilib turilishi ko‘rsatildi.

**Haqiqat (tuyg‘usi)** - milliy ma’naviyatimizga xos Oliy ma’naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashuvining eng yuqori darajasi, inson ma’naviy kamolotining tasavvur qilish mumkin bo‘lgan ideal holati.

**Hunarmand** kosib-xususiy mulk egasi bo‘lgan mehnatkash toifa vakili, qo‘li gul usta. Ijtimoiy vazifasi: sanoat sohasida mustaqil ishlab chiqaruvchi. Bosh ma’naviy fazilati: mahorat. o‘tmishda"ahli futuvva" ayni shulardan bo‘lgan.

**Huquqiy tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, insonlarning xatti-harakatlariga muayyan qonunlar bilan belgilangan huquqiy normalar nuqtai nazaridan yondoshish.

**Ibrat** - milliy ma’naviyatimizga xos ma’rifat yo‘llaridan biri, el-yurt ehtiromiga sazovor ulug‘ bir insonning yashash tarzi, e’tiborga loyiq xatti-harakatlaridan namuna olib, hayotda ularga rioya qilish. Jumladan, islom ma’naviyatida payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v) ibratlari etakchi ahamiyatga egadir. SHu bilan birga ibrat ma’rifatini ko‘r-ko‘rona taqliddan farq qilish juda muhim.

**Ibtidoiy bozor iqtisodi** - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, har bir mustaqil xo‘jalikning ibtidoiy ishlab chiqarish vositalariga tayangan holda biror tur yoki yo‘nalishda mahsulot ishlab chiqarib, bozorda uni boshqa mahsulotlarga almashishi.

**Ijtimoiy adolat**- barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o‘z o‘rni mavjudligini va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etish.

**Ijtimoiy-siyosiy bilimlar**-insonlararo munosabatlarga oid bilimlar. Bu sohada qoniqarli xulosalarga erishish uchun ham ilohiy, ham irfoniy, ham aqliy, ham naqliy bilimlarga tayanib ish yuritish kerak bo‘ladi. Birortasi hisobga olinmasa, xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli ko‘payadi. CHunki aslida bu «sohadagi tushunchalar tarixan shakllanadi. Ularni anglab etish uchun mintaqa va millat tarixini, uning madaniy merosini chuqur o‘rganish zarur.

**Ilm** - shaxs ma’naviyatining muhim tarkibiy jihati va milliy ma’naviyatimizga xos ma’rifat yo‘llaridan biri, Borliq haqiqatini anglab etishda bilimga, aql va tafakkurga tayanish. Ilm nuri bilan yorishmagan e’tiqod "taqlidiy imon" hisoblanadi va takabburlik bilan birlashsa aqidaparastlikka olib boradi.

**Ilm-fan**-shaklan madaniyat sohasining tarkibiy qismi, naqliy va aqliy bilimlar majmuyi, mazmunan turli iqtidor egalari ma’naviyatining samarasi sifatida tashkil topgan bo‘lib, aniq va tabiiy fanlar, iqtisod fanlari, ijtimoiy-siyosiy fanlar, texnika fanlari, ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar kabi turli yo‘nalishlar va tizimlardan iborat.

**Ilmi laduniy** (laduniy bilim) - irodasini to‘liq Borliq haqiqatiga bo‘ysundirgan alohida insonlar musharraf bo‘ladigan, Alloh inoyati bilan erishiladigan bilim (Imom G‘azzoliy uni "mukoshafa ilmi" ya’ni kashf etiladigan ilm deb ataydi). Bu ilmga noil bo‘lganlar valiylik maqomiga erishgan karomatli zotlar hisoblanadi.

**Ilmiy tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, mantiqiy va evristik tafakkurga hamda maxsus amaliy tajribalarga tayangan holda muayyan nazariy muammoni hal qilishga urinish.

**Ilohiy bilim** - faqat Allohga tegishli bo‘lgan cheksiz-chegarasiz, azaliy va abadiy bilim, insonlariga u vahiy sifatida payg‘ambarlar orqali nozil etiladi. Uni inson imon bilan qabul qiladi, rad qilish ham, isbot qilish ham inson qudratida emas.

**Imon** - shaxs ma’naviyatining muhim tarkibiy jihati, o‘zi anglab etgan va to‘g‘ri deb bilgan Borliq haqiqatiga samimiy e’tiqod. Imon-e’tiqod ma’naviyatning o‘zak tomiri bo‘lib, shaxs ma’naviyati imondan boshlanadi.Xalqimiz tilida "imonsiz" degan so‘z eng og‘ir haqorat sanalishi bejiz emas.

**Inson** - ma’naviy kamolot imkoniga ega bo‘lgan moddiy (biologik) mavjudot. Qur’oni karim oyatlarida ta’kidlanishicha, har bir inson Alloh tomonidan «er yuzining xalifasi» qilib yaratilgan, shunday ekan, butun moddiy olam uning tasarrufida va u dunyodagi barcha mavjudot taqdiri uchun mas’uldir. Insonning irodasi erkin va shu sababli har bir xatti-harakati uchun Alloh oldida javob beradi. Inson o‘z ma’naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshlagan sari tom ma’noda SHaxsga aylana boradi.

**Insoniy bilimlar** - insonga yaratilishdan berilgan tafakkur va tahlil qobiliyati tufayli hosil qilingan, nisbiy, ya’ni nomukammal va adashuvlardan holi bo‘lmagan bilim.

**Irfon** - tasavvuf nazariyasi, Borliq haqiqatini anglab etishning tasavvufiy yo‘nalishi. Irfon Haqiqat ishqi alangasiga tik kirib borib, nafsni xudbinlik zangidan poklash va shu orqali shaxsning Oliy Haqiqatga daxldorligini amalda ta’minlash yo‘li.

**Ishchi** - yollanma mehnat asosida ish bajaruvchi ijtimoiy toifa. Ijtimoiy vazifasi: mijozlarga xizmat ko‘rsatish va mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etish. Bosh ma’naviy fazilati: mehnat kashlik.

**Islom dini** - Muhammad(s.a.v.) ga vahiy orqali nozil bo‘lgan Allohning oxirgi kitobi Qur’oni karimda va Payg‘ambarimizdan etib kelgan sahih hadislarda o‘z ifodasini topgan e’tiqod tizimi.

**Islom ma’naviyati**-Oxirgi va mukammal ilohiy kitob bo‘lmish Qur’oni karim mazmunida ifodalangan ma’naviyat tizimi bo‘lib, Inson ruhining Borliq haqiqati bilan uvg‘unlashuv sari intilishida g‘oybiy hidoyat yo‘li hisoblanadi. Islom dini va ma’naviyati mohiyatan boshqa-boshqa narsalar emas, ammo insonlar tasavvurida ular farq qilishi mumkin. Masalan, islom dinida qabul qilingan farz ibodatlar va aqidaviy qoidalar boshqa tavhidiy dinlardan farq qiladi, ammo islom ma’naviyatiga ko‘ra har bir inson o‘z aqidasi va Borliq haqiqati to‘g‘risidagi tasavvurlaridan qat’i nazar "er yuzidagi xalifa" sifatida ehtiromga sazovordir.

**Islom ma’rifatchiligi bosqichi** - milliy ma’naviyatimizning islom mintaqa madaniyati doirasidagi takomilining ikkinchi bosqichi va etakchi tamoyillaridan biri, 10-11 asrlarda o‘zining eng yuksak takomilini namoyon qilgan va Tavhid haqiqatini mantiqiy tafakkur darajasida anglab etishga erishilgan bu tamoyilni Ilm ma’rifati deb ta’riflash joizdir. "Islom ma’rifatchiligi" insoniyat anglab etgan barcha mavjud bilimlar mohiyatan Tavhid e’tiqodiga muvofiq ekanligini ilm va mantiqiy tahlil vositasida isbot qilishga qaratilgan turli yo‘nalishdagi qomusiy allomalar guruhining umumiy faoliyatini anglatadi.

**Jadidchilik harakati** - milliy mustaqillik uchun kurashning jadidlar olg‘a surgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishi bo‘lib, bu yo‘lning fidoyilari ishni "usuli jadid" maktablari ochish, ularga mos darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlab nashr etish, "darsxonayi ibrat" hisoblangan milliy teatr va milliy dramaturgiyani shakllantirishdan boshlab, asta-sekin keng ko‘lamli siyosiy va iqtisodiy mustaqillik uchun kurash ("Turkiston muxtoriyati"), milliy ma’naviy merosdan ajralmagan holda yangi davr saviyasiga muvofiq ilmfan asoslarini ishlab chiqish, ilg‘or jahon ilmi darajasida fikrlovchi milliy ziyolilar qatlamini tarbiyalab etkazish vazifalarini barcha to‘sqinliklar va qarshiliklarga qaramay dadillik va izchillik bilan amalga oshirib borishga erishdilar va ushbu sobitqadam intilishga butun borliqlarini baxsh etdilar. Ularning urinishlari behuda ketmadi, sho‘rolar davrida ham millat fidoyilari qaramlik sharoitining butun murakkabliklariga qaramay, ushbu yo‘lni imkon darajasida rivojlantirib bordilar, mustaqillik davriga kelib esa bu ulug‘ an’analar bor bo‘yi bilan qad rostlab, jahoniy miqyos kasb etdi.

**Jahon madaniyati** - turli o‘lka va mintaqalarning o‘ziga xos madaniyatlari majmuyidan iborat bo‘lib, mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat hayotda asli mavjud emas. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida avval muayyan kichik jamoalar doirasida shakllangan madaniyat unsurlari bora-bora kengroq miqyos kasb etib, turli elat va millatlar, mintaqalar madaniyati darajasiga ko‘tarilib bordi va nihoyat YAngi davrga kelib yaxlit bir voqelik sifatida idrok etila boshladi.

**Jamiyatshunoslik** (Sotsiologiya)-insonlar jamiyatini sinxronik kesimda o‘rganadi. Turli ijtimoiy toifalar va tuzilmalar holatidagi o‘zgarishlar va ularning sababoqibatlarini holis tahlil qilish bu fanning asosiy mavzusi (predmeti) bo‘lib, ma’lum darajada ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub deyish mumkin.

**Jon** - biologik mavjudotlar (hayvonlar va insonlar) uchun xos bo‘lgan tiriklik

**Ko‘ngil ko‘zgusi** - milliy ma’naviyatimiz an’analariga ko‘ra Inson ko‘ngli ma’rifat xazinasi bo‘lib, bu sehrli tilsim ichiga Alloh haqiqati o‘z sirrini pinhon etgandir. Ma’naviyat ana shu ko‘ngil tilsimiga yashiringan Alloh haqiqatining zuhuridir. Inson ruhi Borliq haqiqati bilan doimiy uyg‘unligini saqlashi uchun ibrat va ilm, riyozat va mehr ma’rifati uni bir zum tark etmasligi talab etiladi, ayni shular ko‘ngil ko‘zgusini pok tutib turadi.

**Ko‘p qutbli dunyo** - milliy dunyoqarashimizning tayanch nuqtalaridan biri, biz ko‘rib turgan olamning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy sohalarda yuksak qudrat va mavqe kasb etgan shaxslar, guruhlar, davlatlar, mintaqalar xilma-xilligidan tashkil topganligi.

**Ma’naviyat** - inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan (yo‘nalishidan) biri, har bir insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga bo‘lgan munosabati. Ma’naviyat - o‘z mazmuniga ko‘ra ko‘p qirrali murakkab botiniy hodisa bo‘lib, mohiyatan Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlikni anglatadi. SHu ma’noda uni Insonning, Xalqning, Jamiyatning, Davlatning kuch-qudrati, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuch, Haqiqat nurining inson qalbida aks etishi, yoki baqoning fanoda zuhuri, dunyoviy va uxraviy maqsadlarning uyg‘unligi, insonning o‘z mohiyati oldidagi mas’ulligi, o‘zligini anglashi deb ham ta’riflash mumkin. Insonning Borliq abadiyatiga daxldorligi ayni uning ma’naviyati tufaylidir.

**Ma’naviyatshunoslik** – Jamiyat ma’naviy hayotining nazariy tadqiq etuvchi yangi fan. Bugungi kunda, hanuz jahon ilmi darajasida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligini hisobga olib, «Milliy ma’naviyatimiz asoslari» deb atalishi maqsadga muvofiqdir. Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlik darajalari (Vatan, SHaxs, Millat, Adolat, Haqiqat), SHaxs ma’naviyatining asosiy jihatlari (imon, ilm, mas’uliyat, mehr), Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari va shu kabilar bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi.

**Ma’rifat** - ma’naviy kamolot yo‘li, insonning ko‘ngil ko‘zgusini sayqallash jarayoni, ya’ni har bir insonning butun ongli hayoti davomida o‘zligini anglash, o‘zining Borliq haqiqatiga nisbatini aniqlash va o‘z ruhini Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashtirib borish yo‘lidagi harakati.

**Madaniyat** - inson ma’naviy faoliyatining hosilasi, ma’naviyatning moddiy voqelikdagi izlari. Boshqacha qilib aytganda, ma’naviyat botiniy imkon bo‘lsa, madaniyat - ushbu imkondan tug‘ilgan voqe mavjudlik. SHaxs va millat ma’naviyatining nazariy masalalarini o‘rganish uchun ilojsiz ravishda ayni shu voqe mavjudlik dalillaridan kelib chiqishga to‘g‘ri keladi Ma’naviyat sohasiga

aloqador barcha fanlarning mavzulari ham aslida ana shu mavjud voqelik dalillariga tayangan holda ishlab chiqilishi tabiiy holdir.

**Madaniyatshunoslik** (Kulturologiya)-Ma’naviyat sohasiga aloqador yo‘nalishdagi asosiy fanlardan bo‘lib, jahon va mintaqa madaniyatlarini inson ma’naviy faoliyatining hosilasi bo‘lmish mavjud voqelik sifatida olib o‘rganish ushbu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil etadi.

**Maqom** - har bir insonning jamiyat hayotida rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlangan muayyan o‘rni, holati. Har bir insonning mavqe va maqomi orasidagi farq qancha kuchayib borsa, uning ruhiyatida ham ziddiyat kuchayadi, natijada bu holat jamiyat hayotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi.

**Mehr** - shaxs ma’naviyatining muhim tarkibiy jihati va milliy ma’naviyatimizga xos ma’rifat yo‘llaridan biri, insonlarga, tabiatga, har bir ishga beg‘araz fidoyilik bilan munosabatda bo‘lish. Mehr ma’rifati 1) inson ko‘nglini anglab etish va unga mehr ko‘rsatish bilan tarbiyalash, 2) insonning boshqa bir insonga bo‘lgan beg‘araz muhabbati tufayli xudbinlik balosidan forig‘ bo‘lishi va Borliq haqiqatini anglab etishi (Alisher Navoiy talqinida) ma’nolarini anglatadi.

**Millat** (tuyg‘usi) - milliy ma’naviyatimizga xos Oliy ma’naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashuvining uchinchi darajasi, har bir insonning muayyan (o‘z tili, davlati, ma’naviy, siyosiy va hududiy birligiga ega bo‘lgan) insonlar uyushmasiga o‘zini aloqador ekanligini anglab etishi.

**Millat va milliy davlatning shakllanishi** - islomgacha milliy ma’naviyatimiz taraqqiyotining uchinchi bosqichi. Temir asri yoki buyuk saltanatlar davrida shakllangan ma’naviy qadriyat - millat timsol-tushunchasining vujudga kelishi (masalan, turkiy bitiklarda o‘z ifodasini topgan "turk buduni" timsol-tushunchasi).

**Milliy adolat** - o‘z millatiga mehr tuyg‘usi o‘zga millat namoyandasiga nisbatan noholis yondoshuvga sabab (bahona) bo‘lmasligi.

**Milliy ma’naviyat** - har bir millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o‘tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma’naviyati majmuyini muayyan bir tizim sifatida anglanishi. Milliy ma’naviyatimiz ham tarixiy hodisa, ham zamonaviy voqelik bo‘lib, millatning o‘tmishi, buguni, hamda kelajagini o‘zida mujassam etadi. U millatimizning ma’naviy takomil jarayoni bilan bog‘liq va nafaqat ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy merosda, balki bugungi kun va kelajak avlodlarning hayotga munosabatida, orzu-istaklarida o‘z aksini topgandir. Uning teranligi va ko‘lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to‘plagan yaxlit tarixiy-ma’naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham u haqdagi nazariy xulosalarning manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari - Millatning ma’naviy kamoloti uning butun tarixi davomida yuz beradi, u ba’zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba’zan ma’lum darajada tanazzulga yuz tutishi, unda ba’zan asrlar kunlarga, va aksincha, kunlar asrlarga teng bo‘lishi mumkin. Ma’naviy takomil jarayonining o‘ziga xosligi shundaki, agar tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o‘tkinchi bo‘lsa, moddiy madaniyat unsurlari vaqt o‘tishi bilan emirilsa, ma’naviyat esa yuksalib, boyib, tobora kengroq ko‘lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyati ma’naviy tanazzulga yuz tutgan fojeiy sharoitlarda ham

milliy ma’naviyat yo‘qolmaydi, ko‘lam va mazmunda o‘zi etishgan kamolot bosqichini yo‘qotmaydi. Milliy ma’naviyatimizning necha mingyillik takomili shartli ravishda uch yirik davrga bo‘linadi: 1. Islomgacha milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti.

**Naqliy bilimlar** - ilohiy kitoblar orqali yoki turli yo‘llar bilan (asosan, yozma manbalarda) o‘tmish ajdodlardan etib kelgan bilimlar.

**Nazariy bilim** – mantiqiy tafakkur natijasida erishilgan bilim.

**O‘yin -jonli mavjudotlar**, (inson va hayvonlar) tabiatiga xos ixtiyoriy harakat tizimi bo‘lib, faol dam olish va hayotiy ehtiyojlarga moslashish usuli. Bola o‘ynaydi, o‘yin orqali bola hayotni o‘rganadi. Sport, adabiyot va san’atning barcha turlariga ham ma’lum darajada ana shu tamoyil xos bo‘lib, inson zoti ular orqali "o‘ynab turib" jismoniy va ma’naviy kamol topib boradi.

**Olim** - o‘qish-o‘rganish, ustozdan ta’lim olish yo‘li bilan erishiladigan bilim egasi, zohiriy (xoh diniy, xoh dunyoviy) ilmlarni o‘zlashtirgan inson.

**Qadr** - Holiqi olam irodasi va qudrati bilan yaratilgan har bir mavjudotning olamdagi o‘ziga yarasha o‘rni va salmog‘i, har bir insonga yaratilishdan ato etilgan ilohiy ne’mat. Haqiqiy SHaxs darajasiga etishgan inson o‘z qadrini, shu bilan birga yorug‘ olamdagi barcha ashyo va mavjudotlar qadrini muayyan darajada anglab etgan, shu asosda jamiyatning faol a’zosiga aylangan inson bo‘ladi. «Men Alloh tomonidan er yuzida xalifa etib yaratilganman», deb o‘zlikni anglab etish o‘z qadrini to‘g‘ri baholashning poydevoridir. O‘z qadrini anglab etish barobarida har bir inson o‘zga insonlar ham er yuzida xalifa ekanligiga imon keltirib, ularning ham qadrini o‘zidan kam bilmaydi. Qadr timsol-tushunchasi ma’naviyatga oid bo‘lib, uni iqtisod sohasiga tatbiq etilsa, qiymat va bahoga, siyosatda mavqe’ va maqomga aylanadi.

**Qiymat** - har bir narsa-hodisaning iqtisodiy o‘lchovlarda ifodalangan salmog‘i.

**Rivojlangan bozor iqtisodi** - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, yuqori darajada takomillashgan ishlab chiqarish vositalariga, yuqori texnologiya va ilmiy taraqqiyotga tayangan, siyosatda demokratiya va ongli fuqarolik jamiyati bilan hamqadam taraqqiy etayotgan murakkab ko‘rinishli iqtisodiy tizim.

**Riyozat** - milliy ma’naviyatimizga xos ma’rifat yo‘llaridan biri, muayyan ezgu maqsad yo‘lida barcha qiyinchiliklarga bardosh berib, olg‘a intilish. Islom mintaqa madaniyati doirasida riyozat ma’rifatini yuksak mukammallik darajasiga olib chiqishda tasavvuf piri murshidlarining xizmati beqiyosdir.

**Riyoziy** (matematik) tafakkur - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, aniq formulalar, chizmalar, tenglamalar, raqamlar nisbati vositasida o‘z fikr va g‘oyalarini ifoda etish.

**Ruh**- ilohiy kitob (Qur’oni karim) oyatlari mazmuniga binoan Alloh tomonidan faqat insonga in’om etilgan alohida g‘aybiy quvvat bo‘lib, bani odamning ma’naviy kamolot kasb etish imkoniyatining asosidir.

**"O‘simlik ruhi"** - milliy ma’naviyatimiz an’analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, barcha biologik mavjudotlar (nabotot, ya’ni o‘simliklar,

hayvonot va insonlar) uchun umumiy bo‘lgan oziqlanish va o‘sish xususiyati, "quyi olamdan" (Azizuddin Nasafiyning "Zubdat ul-haqoyiq" risolasi asosida).

**San’at** - Borliq haqiqatini anglab etish va anglatishning mustaqil yo‘li, taxayyul o‘yinlari vositasida Borliq haqiqatini modellashtirishga urinish. San’at ma’lum ma’noda insoniyatning bolalik odatidan rivojlanib chiqqan. Bola o‘ynaydi, o‘yin orqah hayotiy ko‘nikmalar hosil qilib boradi. San’at turlari ham o‘ynab turib o‘rgatadi, uning timsollari hayot ibratlaridir. Bolaning o‘yini-beg‘araz. Kattalarning o‘yiniga esa doimo g‘araz xavf solib turadi. Ammo haqiqiy san’atkor o‘z ishiga beg‘araz yondoshsagina, u hayot haqiqatini uyg‘un aks ettira oladi.

**San’atshunoslik**-san’atning turli yo‘nalishlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, bugungi kunda musiqashunoslik, teatrshunoslik, kinoshu noslik, kabi turli yo‘nalishlarga tarmoqlanib ketgan. Borliq haqiqatini turli badiiy tasvir vositalari asosida modellashtirishning o‘ziga xos yo‘llarini o‘rganishi jihatidan ma’naviyat sohasiga aloqador fanlardan hisoblanadi.

**Shariat**- (arab tilidagi lug‘aviy ma’nosi "yo‘l"). Islom dinida barcha musulmonlar rioya qilishi shart bo‘lgan umumiy qonun-qoidalar. Tasavvuf yo‘lini tanlagan so‘fiylar uchun rioya qilish shart bo‘lgan birinchi bosqich.

**Siyosat** - inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan biri, har bir insonning o‘zga insonlar bilan bevosita munosabatlari. Siyosat sohasi o‘z navbatida axloq va huquq qatlamlaridan iborat bo‘lib, ularning har birini o‘rganuvchi alohida fan yo‘nalishlari mavjud.

**Siyosatshunoslik** (Politologiya) – siyosat sohasini o‘ziga xos muayyan yo‘nalishda o‘rganuvchi fan bo‘lib, uning asosiy mavzusi (predmeti) davlat tizimi va siyosiy partiyalar, demokratiya va ijtimoiy adolat masalalarini qamrab oladi. Bugungi kunda siyosiy fanlar alohida tizimni tashkil etishidan tashqari agar siyosat sohasini keng ma’noda olib qaraladigan bo‘lsa, huquqshunoslik, axloqshunoslik, jamiyatshunoslik kabi yana bir qator zamonaviy fanlar ham ayni shu sohaga oid masalalar bilan bevosita shug‘ullanishini nazarda tutish lozim. Ulardan ba’zilari, masalan axloqshunoslik, bir paytning o‘zida ma’naviyat sohasiga ham bevosita aloqador fanlar tizimiga kiradi.

**Siyosiy adolat** - siyosiy hokimiyatning yagona manbayi xalq irodasi deb tan olinishi va Qonun ustuvorligi tamoyiliga qat’iy rioya qilinishi.

**Siyosiy arbob**-davlat va boshqa siyosiy tashkilotlarning mas’ul rahbarlik lavozimidagi asosan, ziyolilar toifasiga mansub guruh vakili. Ijtimoiy vazifasi: siyosiy boshqaruv. orqali mamlakatning siyosiy mustaqilligi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash. Bosh ma’naviy fazilati: millat taqdiri oldidagi mas’uliyatni his etish.

**Siyosiy qaramlik** davrida ma’naviyatimiz ahvoli yoki Milliy ma’naviyatimizning YAngi davr Evropa madaniyati bilan bevosita to‘qnashuvi YAngi davr milliy ma’naviyatimiz takomilining ikkinchi bosqichi bo‘lib, bu jarayon boshlanishdanoq foje bir tarzda qadim Turon xalqlarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va 150 yillik mustamlaka holatida murakkab bir tarzda kechdi. Bu bosqichdagi milliy ma’naviyatimiz uchun eng ahamiyatli hodisa Milliy uyg‘onish va jadidlarning madaniy-ma’rifiy faoliyatidir.

**Siyosiy tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, ijtimoiy hodisalarga muayyan siyosiy manfaatlar nuqtai nazaridan yondoshish.

**Tarix(shunoslik)** - Insonlar jamiyatini diaxronik kesimda o‘rganadi. Jahon va turli o‘lkalar tarixi, umumbashariy, turli mintaqalar va elatlarga xos siyosiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyot qonuniyatlari bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi. Ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga kiradi

Tarixiy tafakkur - asosiy tafakkur turlaridan, turli manbalar orqali aniqlangan ma’lumotlarga tayanib xulosalar qilish.

**Vatan** (tuyg‘usi) - milliy ma’naviyatimizga xos Oliy ma’naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashuvining avvalgi darajasi, har bir insonning muayyan moddiy makonga ma’naviy munosabati. Bu timsol-tushunchaning ma’no ko‘lami yana o‘z ichki takomil darajalariga ega (1ruh uchun badan, 2-xonadon, 3-shahar, qishloq, 4-mamlakat, 5-ona sayyora).

**Xalq ijodi**-Borliq haqiqatini anglab etish va anglatishning mustaqil yo‘li bo‘lib, ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: 1) xalq badiiy ijodi mumtoz san’at namunalaridan muayyan jihatlariga ko‘ra farq qiladi, masalan, xalq ijodi namunalarida an’anaviylik, ijod va ijro yaxlitligi, so‘z, harakat va musiqa uyg‘unligi yorqin namoyon bo‘ladi, bir asar ustozdan shogirdga o‘tgan sari sayqal topib boradi, ya’ni ijodiy jarayon davomiylik kasb etib, mualliflik yakka bir shaxs doirasidan tashqari chiqadi; 2) xalq amaliy san’ati, xalq ijodining bu turida yaratilgan ashyolar bir paytning o‘zida ikki yo‘nalishda ham amaliy (utilitar), ham estetik vazifa bajarishi bilan sof san’at asarlaridan farqlanadi.

**Yangi davr ma’naviyatiga** o‘tish yoki islom mintaqa madaniyati davri ma’naviy yutuqlarining ommalashuvi bosqichi YAngi davr milliy ma’naviyatimiz takomilining ikki bosqichidan birinchisi, 16-asrdan 19-asrning birinchi yarmigacha davom etadi. Bu bosqichda yaxlit islom mintaqa madaniyati erishgan yutuqlar zaminida mahalliy o‘lkalar keng xalq ommasining ma’naviy saviyasi oshib bordi, mintaqa xalqlari o‘tgan davrda erishilgan yuksak ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolishga va rivojlantirishga urindilar, shu bilan birga mintaqa siyosiy hayotida tanazzul jarayonlari yildan- yilga kuchayib, islom dunyosida siyosiy parokandalik va yaxlit mintaqa madaniyatining parchalana boshlashi, hokimiyatni boshqarishda sulolaviylik an’anasining jamiyat ma’naviy takomil darajasi bilan nomuvofiqligining keskin namoyon bo‘lishi, turli siyosiy guruhlararo noittifoqlik balosi, ma’naviyat ahlining siyosatga aralashuvi, xos va avom orasidagi ma’naviy chegaraning yo‘qolib borishi kuzatiladi.

**Yangi davrning ma’naviy mohiyati** - YAngi davrning buyuk haqiqati ikki asosda: 1) dunyoni surat va ma’no yaxlitligida o‘rganish va 2) bahamjihatlikda boshqarishga intilish bilan o‘zligini namoyon etadi.

**Ziyoli** - ma’naviyat sohasida etakchi ijtimoiy toifa (san’atkor, olim, muallim), muayyan sohaning oliy toifali mutaxassisi (vrach, muhandis, agronom) Ijtimoiy vazifasi. Millat tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, turli sohalarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish. Bosh ma’naviy fazilati: Borliq haqiqatini anglash va anglatishga intilish. O‘tmishda ahli ilm, darveshlar, ahli hunar shoir va voizlar shu toifaga mansub bo‘lganlar.

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

## OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

## NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“TASDIQLAYMAN”**

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori

_______________ D.Xolmatov

“___” ___________ 2023-yil

**JADIDCHILIK TARIXI**
**fanining**

**O’QUV DASTURI**
***4-kurs uchun***

**Bilim sohasi:** 200000 – San’at va gumanitar soha
**Ta’lim sohasi:** 220000 – Gumanitar fanlar
**Ta’lim yo′nalishi:** 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo’nalishlar bo’yicha)

| **Fan/modul kodi** JdT2705 | **O’quv yili** 2023-2024 | **Semestr** 4 | **ECTS-Kreditlar** 4 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi** tanlov | **Ta’lim tili** o’zbek | | **Haftadagi dars soatlari** 4 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1 | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg’ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Jadidchilik tarixi** | 60 | 60 | 120 |

2

## I. Fanning mazmuni:

**Fanni o`qitishning maqsadi** – Talabalarga jadidchilik harakatining kelib chiqishi, mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, jadidlarning g'oyaviy rahnamolari, yangi usul maktablari, jadid matbuoti, jadid teatri, jadidlarning Turkistonda milliy davlatchilik asoslarini barpo etish yo'lidagi kurashlari haqida tushunchalar berishdan iborat.

**Fanni o`qitishning vazifalari** – Talabalarga 19 asr oxiri - 20 asr boshlarida Turkiston jadidlarining islohiy qarashlari, jamiyat hayotini o'zgartirish yo'lida olib borgan sa'y-harakatlari, jadidchilik harakatini shakllanishiga sabab bo'lgan asosiy omillar, jadidchilik harakati namoyondalarining taqdiri haqida ma'lumotlar berish.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg‘ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi. (4 soat)**

Jadidchilik harakati paydo bo`lishiga turtki bo`lgan tashqi va ichki tarixiy muhit va shart-sharoitlar. Jadidchilik davr mahsuli - farzandi ekanligi. Mustabid mustamlakachilik zulmi va mahalliy musulmon ziyolilari orasida mutaassiblik va bid`atlarning kuchayishi. Mutaassib din peshvolari tomonidan jadidlarning dahriylikda ayblanishi. Muhammad Abdo (1848-1903), Jamoliddin Afhoniy (1851-1914) va Ismoilbek Gasprali (Gasprinskiy)lar musulmon dunyosida islohotchilik-jadidchilik harakatining asosiy mafkurachisi ekanligi. I.Gaspralining 1892 yildagi Turkiston general-gubernatoriga xati va "Tarjumon" gazetasi. Turkistondagi jadidchilik harakatining yirik namoyondalari. Jadidlarning "Ozodlik, Tenglik va Adolat" deb nomlangan shiori, Jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari.

**2-mavzu . Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va taraqqiyoti.(4 soat)**

"Jadid milliy xalq maorifi" tushunchasi va uning iste`molga kiritilishi masalasi. Jadid maktabining asosi "Usuli jadid" - "Usuli savtiya". Jadid maktabi musulmon dunyosi maorifidagi buyuk kashfiyot bo`lganligi (Ismoil Gaspralining 1884- yilda Gasprada tashkil etgan ilk jadid maktabi). Turkistonda dastlabki jadid maktabini ochgan buyuk mutafakkirlar: Is’hohxon Ibrat (Namangan, 1886), Shamsiddin domla (Andijon, 1899), Salohiddin Majidiy (Qo`qon, 1989), Munavvarqori Abdurashidxonov (Toshkent, 1901) va boshqalar. Jadid maktabi darsliklari (Munavvarqori, Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqalar) Munavvarqorining maktabi va uning jadid maktablari uchun

ilmiy-pedagogik markaz, oliy ta`lim - universitet uchun asos bo`lgani.

**3-mavzu. Jadid milliy xalq maorifi**
**(4 soat)**

"Jadid milliy xalq maorifi" tushunchasi va uning iste`molga kiritilishi masalasi. Jadid maktabining asosi "Usuli jadid" - "Usuli savtiya". Jadid maktabi musulmon dunyosi maorifidagi buyuk kashfiyot bo`lganligi (Ismoil Gaspralining 1884- yilda Gasprada tashkil etgan ilk jadid maktabi). Turkistonda dastlabki jadid maktabini ochgan buyuk mutafakkirlar: Is'hohxon Ibrat (Namangan, 1886), Shamsiddin domla (Andijon, 1899), Salohiddin Majidiy (Qo`qon, 1989), Munavvarqori Abdurashidxonov (Toshkent, 1901) va boshqalar. Jadid maktabi darsliklari (Munavvarqori, Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqalar) Munavvarqorining maktabi va uning jadid maktablari uchun ilmiy-pedagogik markaz, oliy ta`lim - universitet uchun asos bo`lgani. Jadid milliy xalq maorifi tizimining shakllanish va uning uch boshichi - boshlanhich 4 yillik va o`rta 7 yillik jadid maktablari, musulmon xalq dorilfununi - hozirgi O`zMU.

**4-mavzu. Jadid milliy matbuoti.**
**(4 soat)**

Milliy matbuot davr tahozosi bilan zarurat va millat extiyojiga aylanishi hamda tarixda ilk bor paydo bo`lishi. Toshkentda chop etilgan gazetalar: "Taraqqiy" (Ismoil Obidiy, 1906), "Xurshid" (Munavvarqori, 1906), "Tujjor" (Saidkarimboy Saidazimboyev, 1907), "Sadoi Turkiston" (U.Asadullaxo`jayev, 1914), "Najot" (Munavvarqori, 1917), "Sho`roi Islom" (Abdulla Battol, 1917) va boshqalar. Toshkentda chop etilgan jurnallar: "Al-isloh" (Abdurahmon Sayyoh, 1915-1918), "Chayon" (1917), "Izhorul haq" (Mulla Sadriddinxo`ja mufti, 1918), "Al izoh" (1917-1918); Farg'onada chop etilgan gazetalar: "Sadoi Farg'ona" (Obidjon Mahmudov, 1914), "Farg'ona nidosi" (1917), "Tirik so`z" (1914); Buxoroda chop etilgan gazetalar: "Buxoroi Sharif" (Mirjalol Yusufzoda, 1912-1913), "Turon" (hiyosmaxsum Husayniy, 1913); Samarqandda chop etilgan gazetalar: "Samarqand" (M.Behbudiy, 1913), "Hurriyat" (1917), "Oyina" jurnali (1913-1915); Qo`qonda: "Эl bayrog'i" (B.Soliyev, 1917), "Tirik so`z" (O.Mahmudov, 1915) gazetalari, "Kengash" (Hamza Hakimzoda, 1917), "Yurt" (Ashurali Zohidiy, 1917) jurnallari chop etilishi.

**5-mavzu. Jadidchilik harakatida tarix, tarix ta`limi va falsafasi masalasi.**
**(4 soat)**

"Tarix" degan tushuncha, tarix tajribasi va falsafasi haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashga jadidlarning qo`shgan hissasi. Tarix ilmining ilk bor jadid maktablarida o`qitilishi, tarix va geografiya darsliklari (M.Behbudiy, Fitrat, A.Avloniy va boshqalar). M.Behbudiy, Munavvarqori, N.Yovushev, Alixon Sohuniylarning Turkiston tarixi haqidagi asarlari va ularda tarixga berilgan baholar. I.Gaspralining Turkiston tarixi falsafasiga oid "Muhomalai salotin" ("Sultonlar suhbati") deb nomlangan tarixiy-xayoliy hikoyasi ("Tarjumon", 1906 yil dekabr - 1907 yil yanvar) va unda "Jazoiy-tarixiya" g'oyasining olg'a surilishi.

**6-mavzu. Jadidlarning milliy davlatchilikni tiklash uchun kurashi.**
**(4 soat)**

Rossiyada ijtimoiy-demkoratik inhilobning g'alaba qozonishi (27 fevral). Butun Rossiyada, shuningdek uning mustamlakasi Turkistonda ham demokratiya va milliy-ozodlik harakatining rivojlanishi. Jadidchilik harakati siyosiy kuch va rahbarlikka aylanishi. "Sho`roi islomiya" va uning joylardagi sho`balari milliy demokratik boshqarma (hukumat)ning kurtagi sifatida faoliyat yuritishdi. "Sho`roi islomiya"ning Muvaqqat Nizomi (O`lka musulmonlarining markaziy sho`rosining 1917 yil 12 iyundagi majlisida qabul qilinishi. Butunturkiston musulmonlarining birinchi (16-23 aprel), ikkinchi (8-10

sentyabr), uchinchi (12-15 noyabr), to`rtinchi (Qo`qon, 26-29 noyabr) hurultoylari. Toshkentda rus ishchi, askar va dehqon deputatlarining III hurultoyi chaqirilishi. RSFSR Turkiston xalq komissari soveti - sovet hukumatining tashkil topishi.

**7-mavzu. Buxoro amirligi jadidchilik harakati.**
**(4 soat)**

Buxoro va Xivada jadidchilik harakati paydo bo`lib rivojlanishi va uning o`ziga xos jihatlari. Buxoroda jadid maktablari (1911-1912 yillar) o`zbek va tojik maktablari 57 ta bo`lgani. 1917 yil Rossiyada fevral inhilobi g'alabasidan so`ng Buxoroda jadidchilik siyosiylashishi va ochiq faoliyatga o`tishi. Jadidlar (Fitrat) tomonidan tayyorlangan islohotchilik loyihasini 1917 yil 7 aprelda amir tomonidan e`lon qilinishi va "Yosh buxoroliklar" partiyasi. Buxoroga sovet hukumati jadidlar (F.Xo`jayev va boshqalar) yordamida ikki marta bostirib borishi va amirlikning tugatilishi. Amirlikning oltin hazinasi va uning tahdiri.

**8-mavzu Xiva xonligida jadidchilik harakati.**

Xiva xonligidagi jadidchilik maxfiy ravishda 1904 yilda Xiva shahrida "Jamiyati xayriya" va jadid maktabi ochilishidan boshlanishi. Jadidchilik harakatining ikkinchi bosqichi: Xonning bosh vaziri Islomxo`ja va qozikalon Bobooxun Salimov boshchiligidagi islohotchilik harakati; 1916 yildagi xalq qo`zg'oloni. harakatning uchinchi bosqichi: 1917 yildan jadidchilik xonga qarshi ochiq siyosiy va islohotchilik harakatiga aylanishi. "Yosh xivaliklar" partiyasi (Polvonniyoz hoji Yusupov, Jumaniyoz Boboniyozov, Bobojon Yoqubov, Jumaniyoz Sultonmurodov va boshqalar). To`rtko`lda kommunistik guruhning tuzilishi (J.Sultonmurodov, 1919 yilning boshida). Jadidlar yordamida sovet armiyasi xonlikni bosib olishi (1919 yil noyabr-1920 yil fevral). XXSR tashkil topishi.

**II.2. MA`RUZA MAVZULARINING TAQSIMLANISHI**

| № | Mavzular | Soati |
|---|---|---|
| 1 | Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi. | **4** |
| 2 | Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va taraqqiyoti | **4** |
| 3 | Jadid milliy xalq maorifi | **4** |
| 4 | Jadid milliy matbuoti. | **4** |
| 5 | Jadidchilik harakatida tarix, tarix ta`limi va falsafasi masalasi. | **4** |
| 6 | Jadidlarning milliy davlatchilikni tiklash uchun kurashi | **4** |
| 7 | Buxoro amirligi jadidchilik harakati. | **4** |
| 8 | Xiva xonligida jadidchilik harakati. | **2** |
| | JAMI | **30** |

**III. SEMINAR MAVZULARINING TAQSIMLANISHI**

| № | Mavzular | Soati |
|---|---|---|
| 1 | Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va taraqqiyoti. | **2** |
| 2 | Jadidlarning milliy davlatchilik to'g'risidagi qarashlari. | **2** |
| 3 | Jadidlarning xalq maorifi sohasidagi faoliaytlari . | **2** |
| 4 | Jadid matbuoti yuzaga kelishi va o'ziga hos hususiyatlari | **2** |
| 5 | Jadidlarning tarix va tarix fani masalasidagi qarashlari. | **2** |
| 6 | Jadidlarning 1917 yilgacha milliy davlatchilikni tiklash uchun kurashlari. | **2** |
| 7 | Turkiston Muxtoriyati faoliyatida jadidlarnin o'rni | **2** |

| | | |
|---|---|---|
| 8 | Buxoro amirligida jadidchilik harakati va amirlikning ularga nisbatan munosabati. | **2** |
| 9 | Xiva xonligida jadidchilik harakati va uning o'ziga hos hususiyatlari. | **2** |
| 10 | Toshkent va Qo'qon shaharlarida jadidlarning faoliayti | **2** |
| 11 | Jadid va qadim munosabatlari: ziddiyat va muammolar | **2** |
| 12 | Rossiya imperiyasining jadidchilik harakati va jadid nomoyondalariga bo'lgan munosabati | **2** |
| 13 | Sovet xokimiyati tomonidan jadidlarga nisbatan qatag'on siyosati | **2** |
| 14 | Jadidlarning teatr va adabiyot sohalari rivojiga qo'shgan hissalari | **2** |
| 15 | Mustaqillik yillarida jadidchilik harakatini o'rganilishi. | **2** |
| | JAMI | **30** |

## III. Seminar mashg'ulotlar bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar "Jadidchilik tarixi" fanidan ma`ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo`yicha tayyorgarlik ko`rish jarayonida qo`shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo`shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Jadidchilik tarixi" fani bo`yicha seminar mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

**"Jadidchilik tarixi" fani bo`yicha seminar mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:**

**1.Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va taraqqiyoti.(2 soat)**
2. Jadidlarning milliy davlatchilik to'g'risidagi qarashlari.(2 soat)
3.Jadidlarning xalq maorifi sohasidagi faoliaytlari .(2 soat)
4.Jadid matbuoti yuzaga kelishi va o'ziga hos hususiyatlari.(2 soat)
5.Jadidlarning tarix va tarix fani masalasidagi qarashlari.(2 so at)
6.Jadidlarning 1917 yilgacha milliy davlatchilikni tiklash uchun kurashlari.(2 soat)
7.Turkiston Muxtoriyati faoliyatida jadidlarnin o'rni (2 soat)
8.Buxoro amirligida jadidchilik harakati va amirlikning ularga nisbatan munosabati.(2 soat)
9.Xiva xonligida jadidchilik harakati va uning o'ziga hos hususiyatlari.
(2 soat)
10.Toshkent va Qo'qon shaharlarida jadidlarning faoliayti(2 soat)
11. Jadid va qadim munosabatlari: ziddiyat va muammolar(2-soat)
12.Rossiya imperiyasining jadidchilik harakati va jadid nomoyondalariga bo'lgan munosabati (2 soat)
13. Sovet xokimiyati tomonidan jadidlarga nisbatan qatag'on siyosati (2-soat).
14. Jadidlarning teart va adabiyot sohalari rivojiga qo'shgan hissalari (2-soat)
15. Mustaqillik yillarida jadidchilik harakatini o'rganilishi. (2-soat)

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta`limdan ko`zlangan maqsad va vazifalar – bu talabalarda mustaqil bilim olish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta`lim seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko`rishdan tashqari fan dasturida ko`rsatilmagan, ammo fan bo`yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo`shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o`z ichiga oladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Jadidchilik harakatining paydo bo`lishi.

| | | |
|---|---|---|
| | | 2. Jadid milliy xalq maorifi.<br>3. Jadid milliy matbuoti.<br>4. Jadid milliy adabiyoti va san`ati.<br>5. Jadidchilik harakatida tarix, tarix ta`limi va falsafasi masalasi.<br>6. Jadidlarning 1916 yildagi xalq qo`zg'olonida tutgan o`rni.<br>7. Jadidlarning milliy davlatchilikni tiklash uchun kurashi.<br>8. Milliy hukumat - Turkiston muxtoriyati va uning faoliyati.<br>9. Jadidchilikda dunyoviy oliy ta`lim g'oyasi.<br>10. Buxoro va Xivada jadidchilik harakati.<br>11. Jadidlarning kommunistik mustamlaka - sovet hukumatiga qarshi kurashi va qatag'on qilinishi.<br>12. Ismoil Gasprinskiy - jadidchilik harakatining asoschisi va g'oyaviy rahnamosi<br>13. "Tarjimon" gazetasi - jadid milliy matbuotining tamal toshi<br>14. Mahmudxo'ja Behbudiy - Turkiston jadidlarining rahnamosi<br>15. Munavvarqori Abdurashidxonov - Toshkent jadidlarining otasi<br>16. Abdulhamid Cho'lponning jadidchilik harakatidagi o'rni<br>17. Abdulla Avloniyning Turkiston jadidchilik harakatida tutgan o'rni<br>18. Xoji Muinning Turkiston jadidchilik harakatida tutgan o'rni<br>19. Ishoqxon Ibratning Turkiston jadidchilik harakatida tutgan o'rni<br>20. Abdurauf Fitrat - jadidchilik harakatining yirik rahnamosi<br>21. Farg'ona vodiychidagi yangi usul maktablari<br>22. Buxoro amirligidagi yangi usul maktablari<br>23. Xiva xonligida yangi usul maktablari<br>24. Xiva xonligi bosh vaziri Said Islomxo'janing jadidchilik harakatida tutgan o'rni<br>25. "Oyina" jurnalining jadidchilik harakatidagi o'rni<br>26. "Taraqqiy" gazetasi - Turkistondagi ilk jadid gazetasi<br>27. "Sadoi Turkiston" gazetasining Turkiston jadidchilik harakatida tutgan o'rni<br>28. "Sadoi Farg'ona" gazetasining Farg'ona jadidchilik harakatida tutgan o'rni<br>29. Jadidlar va Turkiston Muxtoriyati<br>30. Farg'ona vodiysi jadidlari<br>31. Samarqand jadidlari<br>32. Buxoro jadidlari<br>33. Xiva jadidlari |
| 3 | | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>Jadidchilik harakati paydo bo`lishiga turtki bo`lgan tashqi va ichki tarixiy muhit va shart-sharoitlar, Muhammad Abdo (1848-1903), Jamoliddin Afhoniy (1851-1914) va Ismoilbek Gasprali (Gasprinskiy)lar musulmon dunyosida islohotchilik-jadidchilik harakatining asosiy mafkurachisi ekanligi haqida tushunchlarga ega bo'lishi;<br>Turkistondagi jadidchilik harakatining yirik namoyondalari. Jadidlarning "Ozodlik, Tenglik va Adolat" deb nomlangan shiori, Jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini bilishi;<br>Jadid milliy xalq maorifi, jadid maktabi musulmon dunyosi maorifidagi buyuk kashfiyot bo`lganligi Turkistonda dastlabki jadid maktablari faoliyati, jadid milliy xalq maorifi tizimining shakllanish va uning uch boshichlarini bilishi;<br>Jadid milliy matbuoti - "Taraqqiy", "Xurshid", "Tujjor", "Sadoi Turkiston", "Najot", "Sho`roi Islom", "Al-isloh", "Chayon", "Izhorul haq", "Al izoh"; "Sadoi Farg'ona", "Farg'ona nidosi", "Tirik so`z"; "Buxoroi Sharif", "Turon", "Samarqand" "Hurriyat", "Oyina", "Эl bayrog'i", "Tirik so`z" gazeta va jurnallari haqida tushunchalarga ega bo'lishi;<br>Jadidlarning tarix haqidagi qarashlari, tarix ilmining ilk bor jadid maktablarida o`qitilishi, tarix va geografiya darsliklari (M.Behbudiy, Fitrat, A.Avloniy va boshqalar). |

| | |
|---|---|
| | M.Behbudiy, Munavvarqori, N.Yovushev, Alixon Sohuniylarning Turkiston tarixi haqidagi asarlari haqida bilishi;<br>1917 yil Rossiyadagi demokratik inqilobdan so'ng Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar, Turkiston jadidlarining siyosiylashuvi, Turkiston musulmonlarining qurultoylari haqida tushunchalarga ega bo'lishi;<br>Turkiston jadidlarining Vatan ozodligi yo'lidagi kurashlari mohiyatini tushunishi;<br>Sovet hokimiyatining Turkiston jadidlarini qatog'on qilishi sabablari bilishi kerak. |
| 4 | **VI. Ta`lim texnologiyalari va metodlari:**<br>– ma`ruzalar;<br>– seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>– guruhlarda ishlash;<br>– taqdimotlar qilish; |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlarhaqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| 6 | **VIII. Talabalarni baholash**<br>“Tarixiy geografiya va o’kashunoslik” fanidan talabalar bilimini baholash O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 2018- yil 9- avgustdagi 19-2018-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risida”gi Nizom asosida amalga oshiriladi.<br>Fan bo’yicha talabalar bilimini baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo’llaniladi. Nazorat turlari bo’yicha baholash: 5 – “a’lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baho mezonlarida amalga oshiriladi.<br>Oraliq nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqib, semestr davomida jami 1 marta, yozma ish shaklida o’tkaziladi. O’tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baholar o’rtachasi **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.<br>Talabalar semestr davomida fanga ajratilgan seminar mashg’ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo’yicha baholanib boriladi va o’rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy mashg’ulot hamda mustaqil ta’lim topshiriqlarini o’z vaqtida, to’laqonli bajarganligi, mashg’ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.<br>Shuningdek, amaliy mashg’ulot va mustaqil ta’lim topshiriqlari bo’yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo’yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o’rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o’rtachalanadi**.<br>Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tasdiqlangan grafik va nazorat shakli bo’yicha o’tkaziladi.<br>Nazorat turlaridan qat’iy nazar:<br>Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a’lo) baho**;<br>Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;<br>Talaba olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;<br>Talaba fan dasturini o’zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda |

| | |
|---|---|
| | fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi. |
| 7 | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Авлоний А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Маънавият, 1998.<br>2. Аъзамхўжаев С.С. Туркистон Мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000.<br>3. Балдауф И. ХХ аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Т.: Маънавият, 2001.<br>4. Беҳбудий М. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1997.<br>5. Гаспринский И. Ҳаёт ва мамот масаласи / Таржимон, тўпловчи, нашрга тайёрловчилар Б. Қосимов, З. Абдурашидов. – Т.: Маънавият, 2006.<br>6. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Т.: Шарқ, 199.<br>7. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: Университет, 2006.<br>8. Жалолов А., Ўзганбоев Ҳ. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг тараққиётида вақтли матбуотнинг ўрни. – Т.: Фан, 1993.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>9. Мингноров А. Туркистонда 1917-1918 йиллардаги миллий сиёсий ташкилотлар (Миллий матбуот материаллари асосида). – Т.: Маънавият, 2002.<br>10. Муин Ҳ. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2005.<br>11. Ойина / Нашрга тайёрловчилар Н. Норқулов, К. Раббимов. – Т.: Академия. 2001.<br>12. Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Туркистон тарихи. (1917-1924 йиллар). - Т.: Университет, 2002.<br>13. Ризаев Ш. Жадид драмаси. - Т.: Шарқ, 1997.<br>14. Ризаев Ш. Саҳна маънавияти. –Т.: Манавият, 2000.<br>15. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917) / тузувчи Н.А. Абдуазизова. -Т.: Академия, 2000.<br>16. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспрали. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992.<br>17. Қосимов Б. Миллий уйғониш. - Т.: Маънавият, 2002.<br>18. Абдурашидханов М. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият”, 2003.<br>19. Камол Раҳмон. Бухоро халқ совет республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. – Тошкент: “Abu matbuot-konsalt”, 2012.<br>20. Маҳмудхўжа Беҳбудий, Танланган асарлар. I жилд, Тошкент: “Akademnashr”, 2018.<br>21. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: “Akademnashr”, 2021.<br>22. Мингнаров А. Туркистонда 1917-1918 йиллардаги миллий сиёсий ташкилотлар (Миллий матбуот материаллари асосида). – Тошкент: Маънавият, 2002.<br>23. Мингнаров А. Туркистондаги ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг миллий матбуотда ёритилиши (1917-1918 йиллар). – Тошкент: “Истиқлол нури”, 2013.<br>24. Ражабов Қ. Туркистон Мухторияти вазирлари ҳамда Миллий мажлис аъзолари ҳаёти ва тақдири. – Тошкент: “Bodomzor invest”, 2021.<br>25. Расулов А., Исоқбоев А., Насретдинова Д. Туркистон ижтимоий-сиёсий, маданий ҳаётида татарлар. –Тошкент: Turon-iqbol, 2019.<br>26. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йй.). Тошкент: “Abu matbuot-konsalt”, 2012.<br>27. Темиров Ф. Пўлат Солиев. Тошкент: “Abu matbuot-kohsalt”, 2011.<br>28. Туркестан в начале ХХ века: к истории истоков национальной независимости. Ташкент: “Шарк”, 2000.<br>29. Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. – Тошкент: “Фан”, 1996.<br>30. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2019. |

| | |
|---|---|
| | 31. Ҳамаев Н. Ўзбекистода истиқлол учун қуролли кураш ва даврий матбуот (1918-1934 йй.). – Фарғона, 2021. - 245 б.<br>**Axborot manbaalari**<br>1. http://www.ziyonet.uz<br>2. http://www.maphistory.info/<br>3. http://www.history.ru<br>4. http://academic.emporia.edu/aberjame/map/h_map/h_map.htm<br>5. https://www.geography.wisc.edu/histcart/ |
| 8 | Fanning ishchi o’quv dasturi Tarix kafedrasining 2022-yil “___”- avgustdagi “______” -sonli yig’ilishida muhokamadan o’tgan va fakul’tet Kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya etilgan.<br>Fanning ishchi o’quv dastiri Ijtimoiy fanlar fakul'tetining 2022-yil “______” avgustdagi “______”-sonli Kengash majlisida ko’rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya qilingan.<br>Fanning ishchi o’quv dasturi NamDU O’quv-uslubiy Kengashining 2022-yil “______” avgustdagi “______”-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. |
| 9 | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br><br>A.Nurmatov – NamDU “Tarix” kafedrasi katta o’qituvchisi, PhD |
| 10 | **Taqrizchilar:**<br><br>Z. Madrahimov – NamDU “Tarix” kafedrasi oʻqituvchisi dots., t.f.n.<br>B. Xolmuratov – NamDU “Arxeologiya” kafedrasi PhD, dotsenti. |

| № | *Turkiston mintaqasidagi jadidchilikning shakllanishigi ko‘ra o‘ziga xos tomonlari* | |
|---|---|---|
| 1 | **Turkiston jadidchiligi (Toshkent, Samarqand, Farg‘ona)** | O‘lkadagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, imperiyaning xom ashyo manbayiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar |
| 2 | **Buxoro jadidchiligi** | Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlar kirgan. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiylarga bo‘lingan edi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo‘lsa ham, amirlikdagi og‘ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910 yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va «Tarbiyai atfol» maxfiy jamiyati asosida **«Yosh buxoroliklar»** (1910 – 1920) partiyasi tashkil topdi |
| **3** | **Xiva jadidchiligi** | XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart – sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning **o‘ng oqimi** xonlikda rivojlanayotgan savdo – sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Xivada jadidchilikning **so‘l oqimi** esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish maqsadini qo‘yishgan edi. Xiva jadidlari ma’rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy – siyosiy kuchga aylanib, 1914 yil avgustda jadidchilik **«Yosh xivaliklar»** partiya shaklini olgan. U o‘z faoliyatini 1921 yilda yakunladi |

**Алифболар (1902-1917)**

| № | Муаллиф | Китобнинг номи | Умумий тавсифи | Нашр йили ва жойи |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Саид Расулхўжа муфти Саид Азизхўжа ўғли. | Устоди аввл | Алифбо (биринчи қисм), ўқиш китоби (иккинчи қисм). | Тошкент, 1902-1917. 17 марта нашр этилган. |
| 2. | Маҳмудхўжа Беҳбудий | Рисолаи асбоби савод. | Алифбо (тожик тилида). | Самарқанд, 1905. |
| 3. | Мунавварқори Абдурашидхон ўғли | Адиби аввал. | Алифбо ва ўқиш китоби. | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1907-1917. 8 марта нашр этилган. |
| 4. | Муаллим Мулла Рустамбек ибн Юсуфбек ҳожи. | Таълими аввал. | Алифбо ва ўқиш китоби. | Тошкент, “Ғуломия”. 1911, 1913, 1916. |
| 5. | Комилжон ҳожи Каримий. | Алиф | Алифбодан иборат бўлиб, матн берилмаган. | Тошкент, “Ғуломия”, 1910. |
| 6. | Шокирқори ибн Домла Зокир. | Таълими аввал. | Фақат алифбодан ташкил топган. | Тошкент “Ғуломия”, 1910, 1914. |
| 7. | Ашурали Зоҳирий. | Имло | Алифбо ва ўқиш китоби. | +ўқон, “Ғайрат”, 1916. |
| 8. | Абдулваҳҳоб Ибодий Хўқандий. | Таҳсил ул-алифбо. | Ибтидоий мактабларнинг биринчи синфи учун. | Тошкент, “Ғуломия”, 1912. |
| 9. | Абдухолиқ Усмонқори. | Таълими аввал. | Алифбога ўргатиш ва ўқиш учун матн. | Тошкент, “Ғуломия”, 1914-1915. |
| 10. | Абдулла Авлоний. | Биринчи муаллим. | Алифбо ва матн. | Тошкент, “Ғуломия”, 1912-1916. 4 марта нашр этилган. |
| 11. | Дада Мирзақори ибн Абдураззоққори. | Мифтоҳ ул-аввал. | Алифбо билан танишиш. | Наманган, “Исҳоқия”, 1916. |
| 12. | Ҳожи Муин ибн Шукрулло | Раҳнамои савод. | Форсча алифбо. | Самарқанд, 1908. |
| 13. | Исматулло Раҳматулло | Раҳбари мактаб | Тожик тилида, алифбо ва ўқиш китоби. | Тошкент, “Ғуломия”, 1915. |
| 14. | Фахриддинов Муҳаммадкарим. | Раҳбари аввал. | Алифбо ва ўқиш китоби. | Тошкент, “Ғуломия”, 1917. |
| 15. | Саид Ализода. | Биринчи йил. | Биринчи синф учун алифбо ва ўқиш китоби. | Самарқанд, “Зарафшон”, 1917. |

**Бошқа турдаги дарслик ва ўқув қўлланмар (1902-1917).**

| № | Муаллифлар | Китобнинг номи | Умумий тавсифи | Нашр жойи ва йили |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Маҳмудхўжа Беҳбудий | Мадхали жуғрофияи умроний. | Жадид мактаблари учун география дарслиги | Самарқанд, 1906 |
| 2. | Маҳмудхўжа Беҳбудий | Китобат ул-атфол | Ёзма нутқ ўстиришга бағишланган ўқув қўлланма | Самарқанд, “Беҳбудия” 1908, 1914. |
| 3. | Маҳмудхўжа Беҳбудий | Мухтасари тарихи ислом | Пайғамбарлар тарихи | Самарқанд, 1909 |
| 4. | Маҳмудхўжа Беҳбудий | Амалиёти ислом | Савол-жавоб тарзида ёзилган ислом қоидалари | Самарқанд, 1909 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5. | Мунавварқори Абдурашидхон ўғли | Адиби соний | Ўқиш китоби | Тошкент,1907-1916. Беш марта нашр этилган |
| 6. | Мунавварқори Абдурашидхон ўғли | Ер юзи. | География дарслиги | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1913. |
| 7. | Мунавварқори Абдурашидхон ўғли | Ҳавойижи диния | Диний ахлоқ қоидалари | Тошкент, 1912. (уч китобдан иборат) |
| 8. | Мунавварқори Абдурашидхон ўғли | Ақоиди исломия | Диний ахлоқ қоидалари | Тошкент-Самарқанд, 1911, 1915 |
| 9. | Мунавварқори Абдурашидхон ўғли | Тажвид | “+уръон” ўқиш қоидалари | Тошкент, 1912 |
| 10. | Мунавварқори Абдурашидхон ўғли | Сабзазор | 5-синф шогирлари учун ўқиш китоби | Тошкент, 1914 |
| 11. | Абдулла Авлоний | Иккинчи муаллим | Ўқиш китоби | Тошкент, 1912-1916. Тўрт марта нашр этилган |
| 12. | Абдулла Авлоний | Мухтасари тарихи анбиё ва тарихи ислом | Диний ўқув дарслиги | Тошкент, 1913, 1916 |
| 13. | Абдулла Авлоний | Адабиёт ёхуд миллий шеърлар | Ифодали ўқиш учун қўлланма, 1-5-жузълар | Тошкент, 1909-1916. |
| 14. | Абдулла Авлоний | Мактаб гулистони | Миллий шеърлар | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1916 |
| 15. | Абдулла Авлоний | Туркий гулистон ёхуд ахлоқ | Одоб-ахлоқ дарслиги (юқори синфлар учун). | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1913, 1917 |
| 16. | Абдурауф Фитрат | Мухтасари тарихи ислом | Пайғамбарлар тарихи | Самарқанд. 1915 |
| 17. | Абдурауф Фитрат | Мавлуди шариф | Муҳаммад пайғамбар ҳаёти. | Самарқанд, “Зарафшон”, 1914 |
| 18. | Абдурауф Фитрат | Ўқу | Ўқиш китоби | Боку, Оруджиевлар матбааси, 1917. |
| 19 | Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий | Миллий ашулалар учун миллий шеърлар. | 7 жузъдан иборат. Ифодали ўқиш учун қўлланма бўлиб, 7 гул номи билан нашр этилган | +ўқон, “Ғайрат”, 1915-1917 |
| 20. | Иноятуллоҳқори ибн Домулло Мирзажон | Туҳфат ус-сибён | Ўқиш (қироат) китоби | Тошкент, 1908, 1911 |
| 21. | Иноятуллоҳқори ибн | Таълими ҳисоб | Математика дарслиги | Тошкент, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Домулло Мирзажон | | | “Мактаб кутубхонаси”, 1912. |
| 22. | Иноятуллоҳқори ибн Домулло Мирзажон. | Ҳисоб масаласи | Математикадан қўлланма | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1913 |
| 23. | Холид Саид | Раҳбари ҳисоб | Ҳисоб дарслиги | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1914. |
| 24. | Маҳкамбой. | Муамолот | Савдо қилиш қоидалари ҳақида | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1911 |
| 25. | Ҳусаин Макаев | Илми ҳол | Шариат қоидалари | Наманган, “Матбааи Исҳоқия”, 1910. |
| 26. | Исҳоқхон Ибрат | Санъати Ибрат, қалами Мирражаб Бандий | Савод ва ҳуснихатга оид ўқув қўлланма | Наманган, “Матбааи Исҳоқия”, 1908. |
| 27. | Аҳмаджон эшон ибн Абдулмўминхўжа | Насойиҳ ул-атфол | 1-жузъ. Ўқиш учун насиҳатомуз матнлар | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1912. |
| 28. | Мўминжон Муҳаммаджон ўғли-Тошқин | Насойиҳ ул-атфол | 2-жузъ. Ибратли ҳикоялар | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1912. |
| 29. | Абдухолиқ Усмонқори | Миръоти таълим | Ўқув ва ёзув китоби. | Тошкент, 1912 |
| 30. | Абдухолиқ Усмонқори | Таҳсил ул-тажвид | “+уръони карим”ни тўғри ўқиш қоидаси | Тошкент, 1914 |
| 31. | Абдулла Саид Аҳмадхўжа ўғли | Раҳбари соний | Ўқиш китоби. | Тошкент, 1916 |
| 32. | Абдуқодир Шакурий | Жомеъ ул-ҳикоят | 2-синф учун ўқиш китоби | Самарқанд, 1907, 1911 |
| 33. | Абдусамеъқори | Тажвид | “+уръон”ни қироат билан ўқишга ўргатиш | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1911, 1913 |
| 34. | Садриддин Айний | Тартил ул-+уръон | “+урон”ни тўғри, қироат билан ўқишга ўргатиш. | Бухоро, Маърифат”, 1915 |
| 35. | Садриддин Айний | Таҳзиб ус-сибён | Ўқиш китоби | Бухоро, 1910, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | 1917 |
| 36. | Ғуломиддин Акбарзода | Таълими соний | 2-синф учун ўқиш китоби | Тошкент, 1912 |
| 37. | Мажид +одирий | Ҳисоб | Арифметика дарслиги | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1913. |
| 38. | Мирзо Хўқандий Хайруллохон | Тухфат ул-атфол | Ўқиш китоби | +ўқон “Маърифат”, 1912 |
| 39. | Мирза Раҳим Мирза Бобазода | Таҳсил-ул иншо | Ёзма нутқ ўстириш бўйича қўлланма. | +ўқон, “Маърифат”, 1917 |
| 40. | Мирзо Хўқандий Хайруллохон | Рисолаи иймон | Дин аҳкомлари ҳақида | +ўқон, “Маърифат”, 1914 |
| 41. | Муҳаммад Аъламхон | Мифтоҳ ун-наҳв | Грамматика (синтаксис) қоидалари ҳақида. | Тошкент, 1915 |
| 42. | Муҳаммадамин ибн Муҳаммадкарим Фахриддинов | Жуғрофияи риёзий | География дарслиги | Тошкент, 1917 |
| 43. | Муҳаммадамин ибн Муҳаммадкарим Фахриддинов | Туркча қоида | Туркий тил грамматикаси қоидалари | Тошкент, 1913. |
| 44. | Муҳаммаджонқори ибн Раҳимжон | Одобли бола | Ифодали ўқиш учун ибратли матнлар | Тошкент, 1912 |
| 45. | Муҳаммадрасул Расулий | Болалар боғчаси | Ўқиш учун ибратли матнлар | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1915 |
| 46. | Низомиддинқори ибн Мулла Ҳусайн | Илми ахлоқ | Ахлоқий-таълимий матнлар | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1913. |
| 47. | Саидаҳмад-Сиддиқий | Тажвид ул-+уръон ил-мажид | “+уръон”ни тўғри ўқиш учун қўлланма | Самарқанд, “Зарафшон”, 1915. |
| 48. | Шокирқори ибн Домла Зокир | Таълими соний | Ўқиш китоби | Тошкент, “Ғуломия” 1910 |
| 49. | Саидаҳмад Васлий | Адиб уд-дин. | Ўқиш китоби. | Тошкент, “Ильин”, 1910. |
| 50. | Саидаҳмад Васлий. | Ақоид (таржима). | Дин ва ибодат қоидалари. | Самарқанд, 1915. |
| 51. | Шокиржон ибн Абдураҳмон | Тарихи муқаддас. | Ислом дини тарихидан. | Тошкент, “Мактаб кутубхонаси”, 1916 |
| 52 | Абулқосим Охунзода | Асос ул-ислом | Ислом дини асослари. | Самарқанд, 1905 |
| 53. | Абулқосим Охунзода. | Илми ҳисоб. | Бошланғич ҳисоб илми. | Самарқанд, 1907. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 54. | Абулқосим Охунзода. | Фуруқи ислом. | Ислом дини бўйича бошланғич таълим. | Самарқанд, 1907 |
| 55. | Бидонов Р.А. | Суллами аввал. | Рус-тузем мактабларининг иккинчи синфи учун ўқиш китоби. | Тошкент, 1909. |
| 56. | Калинин Асқарали. | Муаллими соний. | Рус-тузем мактабларининг иккинчи синфи учун ўқиш китоби. | Тошкент, 1903. |
| 57. | Ҳилватий Намангоний. | Мактаб чироғи. | Диний амаллар ҳақида. | Тошкент, 1911. |
| 58. | Муҳаммад Расул Расулий. | Раҳбари форсий. | Форс тили грамматикаси. | Тошкент, 1911, 1914, 1917. |

# TEST TOPSHIRIQLARI

| |
|---|
| Istambulda “Buxoro maorif jamiyati” bo’limi kim boshchiligida tashkil etilgan? |
| A.Firat |
| F.Xo’jayev |
| Mahmudxo’ja Behbudiy |
| Sadri Ziyo |

| |
|---|
| 1910-yilga kelib Turkistonning turli joylarida nechta jadid maktablari faoliyat yuritgan? |
| 50 ga yaqin |
| 100 ga yaqin |
| 100 dan ortiq |
| 70 ta |

| |
|---|
| 1917-yil fevral inqilobi boshlariga kelib Turkistonning turli joylarida nechta jadid maktablari faoliyat yuritgan? |
| 100 ga yaqin |
| 100 dan ortiq |
| 75 ta |
| 50 ga yaqin |

| |
|---|
| 1917-yil fevral inqilobi boshlariga kelib Farg’ona viloyatida nechta jadid maktablari faoliyat yuritgan? |
| 30 ta |
| 39 ta |
| 18 ta |
| 5 ta |

| |
|---|
| 1917-yil fevral inqilobi boshlariga kelib Sirdaryo viloyatida nechta jadid maktablari faoliyat yuritgan? |
| 39 ta |
| 18 ta |
| 5 ta |
| 30 ta |

| | |
|---|---|
| 1917-yil fevral inqilobi boshlariga kelib Yettisuv viloyatida nechta jadid maktablari faoliyat yuritgan? | |
| 18 ta | |
| 39 ta | |
| 5 ta | |
| 30 ta | |

| | |
|---|---|
| 1917-yil fevral inqilobi boshlariga kelib Samarqand viloyatida nechta jadid maktablari faoliyat yuritgan? | |
| 5 ta | |
| 18 ta | |
| 39 ta | |
| 30 ta | |

№ 347.

| |
|---|
| 1906-yil 27-iyunda “Taraqqiy” nomi bilan chiqqan o’zbek tilidagi gazetaga kim muharrirlik qildi? |
| Ismoil Obidov |
| Abdulla Avloniy |

| |
|---|
| Kabir Bakir |
| Munavvaq Qori |

| “Oyna” jurnali qayerda (1913) chop etilgan? |
|---|
| Samarqand |
| Toshkent |
| Qo’qon |
| Andijon |

| “Tujjor” gazetasi (1907) qaysi shaharda chop etilgan? |
|---|
| Toshkent |
| Qo’qon |
| Andijon |
| Samarqand |

| “Turon” teatr truppasi qaysi yillarda faoliyat yuritdi? |
|---|
| 1913-1917-yy |
| 1913-1915-yy |
| 1911-1915-yy |
| 1917-1918-yy |

| 1914-yilning 6-iyunida “Padarkush” dramasi qaysi shaharda sahnaga qo'yildi? |
|---|
| Andijon |
| Samarqand |
| Toshkent |
| Qo’qon |

| “Padarkush” dramasi dastlab qaysi shaharda sahnaga qo'yildi? |
|---|
| Samarqand |
| Toshkent |
| Qo’qon |
| Andijon |

| “Muxtasar islom tarixi” asari muallifini ko’rsating? |
|---|
| A.Fitrat |
| M.Bexbudiy |
| Munavvar Qori |
| A.Avloniy |

| “Tarixi islom” asari muallifini ko’rsating? |
|---|
| M.Bexbudiy |
| Munavvar Qori |
| A.Avloniy |
| A.Fitrat |

| 1907-yilda o’z uyida «Shuhrat» nomli gazeta nashr ettirgan ma’rifatparvarni ko’rsating? |
|---|
| A.Avloniy |
| A.Fitrat |
| M.Bexbudiy |
| Munavvar Qori |

| |
|---|
| O’lkamizda tashkil etilgan birinchi professional teatr truppasi qaysi? |
| “Turon” |
| “Sayqal” |
| “Kolizey” |
| “Toshkent” |

| |
|---|
| “Turon” nomli birinchi professional teatr qachon tashkil etildi? |
| 1913-y |
| 1915-y |
| 1912-y |
| 1916-y |

№ 358.

| |
|---|
| Turkistondagi dastlabki “Turon” nomli professional teatr asoschi bo’gan ma’rifatparvarni ko’rsating? |
| A.Avloniy |
| A.Fitrat |
| M.Bexbudiy |
| Munavvar Qori |

| |
|---|
| Turkiston matbuotida 300 dan ortiq maqolalari e’lon qilingan va Buxoro amiri tomonidan hibsga olinib, 1919-yilda Qarshi shahrida qatl etilgan ma’rifatparvarni ko’rsating? |
| M.Bexbudiy |
| Munavvar Qori |
| A.Avloniy |
| A.Fitrat |

№ 360.

| |
|---|
| 1909-yili Toslikentda «Jamiyati xayriya» uyushmasini tuzadi va «Turon» nomli jamiyatni ochgan ma’rifatparvarni ko’rsating? |
| Munavvar Qori |
| A.Avloniy |
| Ismoil Obidiy |
| Muxtor Bakir |

| |
|---|
| 1918-yilning aprelida ochilgan Turkiston xalq dorilfununining asoschisi va rektori etib saylangan ma’rifatparvarni ko’rsating? |
| Munavvar Qori |
| A.Avloniy |
| Ismoil Obidiy |
| M.Bexbudiy |

| |
|---|
| «Tarixi madaniyat» va «Mezon uz-zamon» kabi asarlarni muallifi bo’lgan ma’rifatparvarni ko’rsating? |
| Ibrat |
| Munavvar Qori |
| A.Avloniy |
| Fitrat |

| |
|---|
| Jadid maktablarida sharq va rus tillarini o’rganishda birdan bir qo’llanma sifatida foydalanib kelingan «Lug’ati sitta-alsina» asari muallifi bo’lgan ma’rifatparvarni ko’rsating? |
| Ibrat |
| Munavvar Qori |
| A.Avloniy |

| |
|---|
| Fitrat |

| |
|---|
| “Tanobchilar”, “Sayoxatnoma” asarlari muallifini ko’rsating? |
| Muqumiy |
| Zavqiy |
| Furqat |
| S.Ayniy |

| |
|---|
| Toshkentda observatoriya qaysi yili tashkil etildi? |
| 1874-yil |
| 1871-yil |
| 1872-yil |
| 1873-yil |

| |
|---|
| 1874-yilda yurtimizning qaysi shahrida observatoriya qaysi yili tashkil etildi? |
| Toshkent |
| Samarqand |
| Andijon |
| Qo’qon |

| |
|---|
| 1892-yilda Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi qaysi viloyatda 120 ta madrasa bo’lgan? |
| Farg’ona |
| Yettisuv |
| Sirdaryo |
| Samarqand |

| |
|---|
| 1898-yilda Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi qaysi viloyatda 182 ta madrasa bo’lgan? |
| Farg’ona |
| Yettisuv |
| Sirdaryo |
| Samarqand |

| |
|---|
| 1911-yilda Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Farg’ona viloyatida nechta madrasa bo’lgan? |
| 204 ta |
| 182 ta |
| 200 ta |
| 120 ta |

| |
|---|
| 1898-yilda Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Farg’ona viloyatida nechta madrasa bo’lgan? |
| 182 ta |
| 200 ta |
| 120 ta |
| 204 ta |

| |
|---|
| 1910-yilda Turkiston general-gubernatorligi markazi Toshkent shahrida nechta madrasa bo’lgan? |
| 22 ta |
| 18 ta |
| 11 ta |
| 24 ta |

| |
|---|
| 1898-yilda Turkistonda nechta madrasa mavjud bo’lgan? |

| |
|---|
| 348 ta |
| 412 ta |
| 288 ta |
| 540 ta |

| |
|---|
| Qaysi yildan musulmon ruhoniylari qo'l ostidagi vaqf mahkamalari davlat hisobiga soliq to'lashga majbur qilindi? |
| 1891-y |
| 1892-y |
| 1893-y |
| 1890-y |

| |
|---|
| Quyidagi qaysi alloma 16 ta kitobning muallifi hisoblanadi? |
| A.Donish |
| A.Fitrat |
| Abdulazim Somiy |
| Mirzo Salimbek |

| |
|---|
| "Yulduzlar jilosi", Buyuk qonun", "Globusdan foydalanish xaqida traktat" asarlarini muallifi bo'lgan allomani ko'rsating? |
| A.Donish |
| A.Fitrat |
| Abdulazim Somiy |
| Mirzo Salimbek |

| |
|---|
| "Tarixi Salimiy" nomli tarixiy asarini muallifi bo'lgan olim ko'rsating? |
| Mirzo Salimbek |
| A.Donish |
| A.Fitrat |
| Abdulazim Somiy |

| |
|---|
| "Tuhfai Shohiy" nomli tarixiy asarini muallifi bo'lgan olim ko'rsating? |
| Abdulazim Somiy |
| Mirzo Salimbek |
| A.Donish |
| A.Fitrat |

| |
|---|
| Cho`lponning **"**Turon kutubxonasi" qayerda tashkil qilgan? |
| Andijon |
| Buxoro |
| Samarqand |
| Qo'qon |

| |
|---|
| Jadid ma'rifatparvarlaridan biri A.Avloniy tomonidan chop etilgan gazeta nomini toping? |
| Shuhrat |
| Sadoi Turkiston |
| Hurshid |
| Taraqqiy |

| |
|---|
| Turkiston o'lkasiga daslatki temir yo'l qaysi shaharga kirib kelgan? |
| Samarqand |

| |
|---|
| Buxoro |
| Toshkent |
| Andijon |

| |
|---|
| Birinchi oliy ma’lumotli o‘zbek advokatini aniqlang? |
| Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev |
| Sadriddin Ayniy |
| Mirkomil Mirmo‘minboyev |
| Fayzulla Xo‘jayev |

| |
|---|
| Turkiston jadidlari, ziyolilarning fikricha, xalqni ozodlikka eltuvchi yo‘l nima bo‘lgan? |
| aholining bilimini, ma’rifatini uyg‘otish |
| xon hokimiyati, monarxiyani ag‘darish |
| hukmdorlarning hokimiyati cheklanishi, xalqning boshqaruvda ishtirok etishi |
| Barcha tabaqalarning bir paytda, bir joyda birlashib, mustamlakachilarga zarba berish |

| |
|---|
| Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning Xorazm maqomlarini asrash haqidagi farmoni nechanchi yilda e’lon qilingan edi? |
| 1882-yil |
| 1878-yil |
| 1898-yil |
| 1887-yil} |

| |
|---|
| “Padarkush” pyesasining muallifini aniqlang. |
| Mahmudxo‘ja Behbudiy |
| Hoji Hofiz |
| Abdulla Avloniy |
| Nusratilla Qudratilla |

| |
|---|
| 1911-1917- yillarda jadid teatrlarida qancha pyesa qo`yilgan edi? |
| 25 ga yaqin |
| 20 dan ortiq |
| 30 dan ortiq |
| 10 dan ortiq} |

| |
|---|
| Hozirgi O‘zbek Milliy drama teatriga kim asos solgan? |
| Mannon Uyg‘ur |
| Mahmudxo‘ja Behbudiy |
| H.H.Niyoziy |
| Abdulla Avloniy |

| |
|---|
| Teatrning tarbiyaviy ahamiyatiga yuksak baho berib, “Teatr – bu ibratxonadir” deb aytgan ma’rifatparvar kim? |
| Mahmudxo‘ja Behbudiy |
| Hamza Hakimzoda Niyoziy |
| Abdulla Avloniy |
| Mannon Uyg‘ur |

| |
|---|
| Ismoil G‘aspirali 40 kunda nechta o‘quvchining savodini chiqargan? |
| 12 ta |
| 19 ta |

| |
|---|
| 16 ta |
| 18 ta |

| |
|---|
| Butun turkiy xalqlar orasida jadidchilik g‘oyalarining tarqalishiga qaysi gazetaning o‘rni katta bo‘lgan? |
| “Tarjimon” |
| “Xurshid” |
| “El bayrog‘i” |
| “Sadoi Turkiston” |

| |
|---|
| XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda mashhur bo‘lgan Obloqul, Ibrohim Hojizov, Mo‘minjon Solihovlar qaysi soha vakillari hisoblanadi? |
| me’morchilik |
| musiqa san’ati |
| Kulolchilik |
| Zargarlik |

| |
|---|
| XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda mashhur bo‘lgan Nurmuhammad, Abdujabbor, So‘fimuhammad Niyoz, va Abdulla singari ustalar qaysi soha vakillari hisoblanadi? |
| Kulolchilik |
| me’morchilik |
| Zargarlik |
| Naqqoshlik |

| |
|---|
| 1868-yil Zarafshon okrugi tashkil qilingan bo‘lib, okrug boshlig‘i qilib kim tayinlangan edi? |
| I.F.Abramov |
| M.Chernyayev |
| F.Romanovskiy |
| K.P.Kaufman |

| |
|---|
| Abdulla Avloniy nashr etgan gazeta qanday nomlangan va qachondan chiqa boshlagan? |
| “Shuhrat” deb nomlanib, 1907- yil 1-dekabrdan chiqa boshlagan. |
| “Taraqqiy” deb nomlanib, 1907- yil 27-iyundan chiqa boshlagan. |
| “Xurshid” deb nomlanib, 1907- yil 6-sentyabrdan chiqa boshlagan. |
| “Tujjor” deb nomlanib, 1907-yil 10-avgustdan chiqa boshlagan |

| |
|---|
| Xorazmning qadimgi davridan boshlab to Muhammad Rahimxon I (1806-1825) davrigacha bo‘lgan tarixini yoritgan asarni toping? |
| “Firdavs ul-iqbol” |
| “Zubdat ut-tavorix” |
| “Riyoz ud-davla” |
| “Shohid ul-iqbol” |

.

| |
|---|
| “Firdavs ul-iqbol” asarining mualliflari kim? |
| Shermuhammad Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiy |
| Muhammad Yusuf Bayoniy va Abulg‘oziy Baxodirxon |
| Abu Rayxon Beruniy va Muhammad Rizo Ogahiy |
| Muhammad Yusuf Bayoniy va Shermuhammad Munis Xorazmiy |

| |
|---|
| “Biz musulmonlar hoxlaymizki, hech kim bizning dinimizga, millatimizga tahdid qilmasun, cheklamasun, bizning ham o’zganing mustaqilligiga tahdid istagimiz yo’q” ushbu so’zlar qaysi taraqqiyparvarga tegishli? |
| Mahmudxo’ja Behbudiy |
| Abdulla Avloniy |
| Abdurauf Fitrat |
| M. Abdurashidxonov |

# E) BAHOLASH MEZONI

## talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi

Ushbu talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i hamda shu buyruqqa asosan ishlab chiqilgan, **Namangan davlat universitetining 2018 yil 10-oktyabrdagi 3-sonli Kengashida muhokama qilingan va ma’qullangan** Namangan davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi bo‘yicha YO‘RIQNOMA asosida ishlab chiqildi.

Fan o‘qituvchisi tomonidan birinchi mashg‘ulotda Yo‘riqnoma talablari hamda nazorat turlari, soni, shakli va talabalar bilimini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.

**Nazorat turlari:**

Talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo‘limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari davomida hamda mashg‘ulotlardan keyin o‘tkaziladi.

**Talabalar mashg‘ulotlardagi faolligi fan o‘qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Seminar mashg‘ulotlarida talabalar** ishchi fan dasturida belgilangan mavzularning kamida 50 foizini o’zlashtirishlari va baholanishlari shart. Talabalarning mashg‘ulotlarda olgan baholari barchasi qo‘shiladi va olinishi shart bo‘lgan baholar soniga bo‘lgan holda o‘rtacha baho keltirib chiqariladi.

Mashg‘ulotlar jarayonida talabalar mustaqil ta’limiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda talaba belgilangan **TBBM asosida baholab boriladi.**

**Oraliq nazorat fan o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan yozma ish shaklida semestr davomida bir marta o‘tkaziladi. Yozma ish TBBM asosida baholanadi.**

**Talabani yakuniy nazoratga kiritilishi o‘quv mashg‘ulotlari (seminar mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim, ma’ruza mashg‘ulotlari yakunida olinadigan oraliq nazoratning yozma ish shakli)da olgan ballari asosida amalga oshiriladi. Bunda talabaning olgan barcha baholari umumlashtiriladi va o‘rtacha baho keltirib chiqariladi.**

Talabaning yakuniy nazorat turigacha bo‘lgan o‘rtacha bahosi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{O‘B} = \frac{\text{MO‘B} + \text{MTB} + \text{ONB}}{3}$$

bu yerda: O‘B- semestrda talabalarning olgan o‘rtacha bahosi;
MO‘B – mashg‘ulotlarda to‘plagan o‘rtacha bahosi;

MTB – mustaqil ta'limdan olgan bahosi;
ONB – oraliq nazorat turining **yozma ish shaklida** olgan bahosi.
3 – mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va oraliq nazorat shakllari

**Agar talabaning o'rtacha bahosi 3 bahoga yetmasa yakuniy nazoratga kiritilmaydi.**

**Yakuniy nazorat turi semestr yakunida talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.**
**Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasi tomonidan belgilanadi va ishlab chiqish uchun fakultet dekaniga taqdim etiladi.**
**Nazorat turlari bo'yicha materiallar 6 oy mobaynida saqlanadi.**

**Talabalar bilimini baholash mezoni (TBBM):**

| Baho | Talabalarning bilim darajasi |
|---|---|
| 5 – "A'lo" | **Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilgandayu** |
| 4 – "Yaxshi" | Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda. |
| 3 – "Qoniqarli" | Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda. |
| 2 – "Qoniqarsiz" | Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda. |

**Talabala bilimini baholash:**
Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. Bunda 5, 4 va 3 baholar nazorat turlariga kirish yoki talabalaga stipendiya tayinlash va kursdan-kursga ko'chirish uchun asos bo'lsa, 0, 1 va 2 baholar nazorat turlariga kirish uchun yetarli bo'lmaydi va belgilangan muddatlarda talaba fandan qayta topshira olmasa akademik qarzdor hisoblanadi.
Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. **Oraliq nazorat ballari yakuniy nazorat o'tkaziladigan muddatdan kamida bir hafta muddatda umumlashtirilishi va talabalarga fan o'qituvchisi tomonidan yetkazilishi shart.**
Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan yoki markazlashgan holda axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Kafedra mudiri yillik yuklamadagi fanlar bo'yicha yukuniy nazoratlarni o'tkazadigan professor-o'qituvchilar ro'yxatini shakllantiradi va ro'yxatni fakultet dekaniga tasdiqlatadi. Agar

belgilangan fan bo‘yicha mashg‘ulot o‘tgan professor-o‘qituvchi(lar)dan boshqa fan bo‘yicha mutaxassis bo‘lmagan hollarda, tegishli kafedra mudiri o‘quv yilining boshida fakultet dekaniga mutaxassis bilan ta’minlash yuzasidan yozma murojaat qiladi. Ushbu holatlarda fakultet dekani mutaxassis yetishmaydigan fan(lar) bo‘yicha mutaxassis topish uchun bevosita mas’ul hisoblanadi.

Tegishli fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan professor-o‘qituvchi yakuniy nazorat turini o‘tkazishda ishtirok etmaydi.

Talaba tegishli fan bo‘yicha yakuniy nazorat turi o‘tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo‘lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko‘ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2 martadan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o‘ta olmagan takdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o‘tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasidan norozi bo‘lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyasiya komissiyasiga apellyasiya berish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o‘qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to‘rt nafar a’zo kiritiladi.

Talaba baholash natijasidan norozi bo‘lgan takdirda, baholash natijasi e’lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyasiyasini ko‘rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko‘rib chiqib, uning natijasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o‘zlashtirgani yoki o‘zlashtira olmagani ko‘rsatiladi. Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta’minlaydi.

**Baholash natijalarini qayd etish:**

Talabalar bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o‘zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi.

Professor-o‘qituvchi qo‘shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimi “3” (qoniqarli) yoki “4” (yaxshi) yoxud “5” (a’lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Talaba nazorat turi o‘tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga “0” belgisi yozib qo‘yiladi. Agar talaba sababsiz yoki uzrli sabab bilan mashg‘ulotlarga qatnashmasa, unga yo‘q (y yoki nb) qo‘yiladi. Uzrli sabablarga kasallik, uylanish va turmushga

chiqish, yaqinlarini olamdan o‘tishi, boshqa joylarga rejalashtirilgan safar va shunga o‘xshash omillar kiritiladi.

Yakuniy nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimi “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga “0” belgisi yozib qo‘yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning Baholash daftariga yozilmaydi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRINING BUYRUG‘I

## OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH TIZIMI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3069]**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Vazir I. MADJIDOV**

Toshkent sh.,
2018-yil 9-avgust,
19-2018-son

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘iga
ILOVA

### Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi

NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini belgilaydi.

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom 2018-2019 o‘quv yilida, shuningdek keyingi o‘quv yillarida oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilingan talabalarning bilimini nazorat qilish hamda baholashda qo‘llaniladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

2. Mazkur Nizom talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq o‘quv jarayoni modul tizimiga asoslangan oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda qo‘llanilmaydi.

*(2-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)*

3. Talabalar oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tomonidan birinchi mashg‘ulotda mazkur Nizom talablari bilan tanishtirilishi shart.

4. Talabalar bilimini baholashda malakaviy amaliyot, kurs ishi, fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bo‘yicha mazkur Nizomda belgilangan baholash mezonlari qo‘llaniladi.

## 2-bob. Nazorat turlari va baholash mezonlari

### 1-§. Nazorat turlari

5. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

6. Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo‘limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘tkaziladi.

7. Oraliq nazorat turi har bir fan bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2-martagacha o‘tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat turini o‘tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

8. Oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

9. Semestr davomida haftasiga 2 akademik soatdan (tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida 4 akademik soatdan) kam bo‘lgan fanlar bo‘yicha oraliq nazorat turi o‘tkazilmaydi.

10. Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg‘ulotlardagi faolligi fan o‘qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Baholash mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

11. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida (tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida fan yakunida) tegishli fan bo‘yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

12. Yakuniy nazorat turini o‘tkazish shakli tegishli fan bo‘yicha kafedra tomonidan belgilanadi.

13. Yakuniy nazorat turi oliy ta’lim muassasasining tegishli fakultet dekani yoki o‘quv-uslubiy bo‘lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan Yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish jadvaliga muvofiq o‘tkaziladi.

14. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida oraliq va yakuniy nazorat turlari obyektiv tizimlashtirilgan klinik sinov yoki obyektiv tizimlashtirilgan imtihon shakllarida o‘tkazilishi mumkin.

### 2-§. Talabalar bilimini baholash mezonlari

15. Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a’lo) baho;
talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;
talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;
talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.
16. Nazorat turlarini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning o‘zlashtirishini xolis (obyektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi shart.

## 3-bob. Talabalar bilimini baholash

17. Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.
18. Oraliq nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimini baholash tegishli fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.
Yakuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.
Tegishli fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan professor-o‘qituvchi yakuniy nazorat turini o‘tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.
Yakuniy nazorat turini o‘tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta’lim muassasalarining tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchilari jalb qilinishi mumkin.
19. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida oraliq va yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish, shuningdek talabalarning bilimini baholash tegishli kafedra mudiri tomonidan tashkil etiladigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi.
Komissiya tarkibi tegishli fan professor-o‘qituvchilari va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.
Komissiya tarkibiga kelishuv asosida boshqa tashkilotlarning soha mutaxassislari ham jalb qilinishi mumkin.
20. Oliy ta’lim muassasasida nazorat turlarini o‘tkazilishi tegishli oliy ta’lim muassasasining ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan doimiy ravishda o‘rganib boriladi. Bunda nazorat turlarini o‘tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o‘tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli nazorat turi qaytadan o‘tkazilishi mumkin.
21. Talaba tegishli fan bo‘yicha yakuniy nazorat turi o‘tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo‘lishlari shart.
22. Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.
Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.
23. Talaba uzrli sabablarga ko‘ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

24. Bir kunda 1 tadan ortiq fan bo‘yicha yakuniy nazorat turi o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish kamida 2 kun oralig‘ida belgilanishi lozim.

25. Bitiruvchi kurs bo‘lmagan talabalar kuzgi semestr natijalari bo‘yicha 3 tagacha fandan (fanlardan) akademik qarzdorligi bo‘lgan hollarda talabaga bir oygacha, bahorgi semestr natijalari bo‘yicha 3 tagacha fandan (fanlardan) akademik qarzdorligi bo‘lgan talabaga tegishli fan (fanlar) bo‘yicha oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turlarini yangi o‘quv yili boshidan qayta topshirish uchun 1 oy muddat beriladi.

Bitiruvchi kurs talabalariga bahorgi semestr natijalari bo‘yicha o‘zlashtirmagan fandan (fanlardan) qayta topshirish uchun yakuniy davlat attestatsiyasi boshlangunga qadar ruxsat beriladi.

Fanlardan akademik qarzdorligi 4 ta va undan ko‘p bo‘lgan talabalarga qayta topshirishga ruxsat berilmaydi va ular oliy ta’lim muassasasi rektorining (boshlig‘ining, filial direktorining) buyrug‘i bilan kursdan qoldiriladi.

26. Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2-martadan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o‘ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o‘tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

27. Berilgan muddat davomida mavjud bo‘lgan qarzdorlikni topshira olmagan talaba bo‘yicha fakultet dekani bildirgi bilan oliy ta’lim muassasasi rektorini (boshlig‘ini, filial direktorini) xabardor qiladi va ushbu talaba rektor (boshliq, filial direktori) buyrug‘i asosida kursdan qoldiriladi.

28. Talaba uzrli sabablarsiz malakaviy amaliyotga qatnashmagan, shuningdek malakaviy amaliyot yakunlari bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan hollarda, u akademik qarzdor hisoblanadi va kursdan qoldiriladi.

29. Kursda qoldirilgan talaba fanni (fanlarni) o‘zlashtirmagan semestr boshidan to‘lov-kontrakt asosida mazkur o‘quv yilining tegishli semestri uchun tasdiqlangan o‘quv rejaga muvofiq o‘qishni davom ettiradi.

30. Baholash natijasidan norozi bo‘lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellatsiya komissiyasiga apellatsiya berish huquqiga ega.

31. Apellatsiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o‘qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to‘rt nafar a’zo kiritiladi.

32. Talaba baholash natijasidan norozi bo‘lgan taqdirda, baholash natijasi e’lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellatsiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellatsiya Apellatsiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim.

33. Talabaning apellatsiyasini ko‘rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

34. Apellatsiya komissiyasi talabaning apellatsiyasini ko‘rib chiqib, uning natijasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o‘zlashtirgani yoki o‘zlashtira olmagani ko‘rsatiladi.

Apellatsiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta’minlaydi.

## 4-bob. Baholash natijalarini qayd qilish

35. Talabalar bilimini baholash tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o‘zlashtirishini hisobga olish jurnalida (bundan buyon matnda Jurnal deb

yuritiladi) qayd etib boriladi. Professor-o‘qituvchi qo‘shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Professor-o‘qituvchi Jurnalda talabaga qo‘yilgan baholarni shu kunning o‘zida qayd etib boradi. Agar talabaning bilimini baholash yozma ish shaklida o‘tkazilgan bo‘lsa, bunda professor-o‘qituvchi talabalarning natijalarini 3 kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda Jurnalga qayd etishi lozim.

36. Nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimi “3” (qoniqarli) yoki “4” (yaxshi) yoxud “5” (a’lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

37. Talaba nazorat turi o‘tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga “0” belgisi yozib qo‘yiladi.

38. Jurnal tegishli fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan professor-o‘qituvchi, kafedra mudiri va fakultet dekani tomonidan imzolanadi hamda fakultet dekanatida saqlanadi. Jurnalning saqlanishi uchun fakultet dekani mas’ul hisoblanadi.

39. Talabalarning yakuniy nazorat turi bo‘yicha baholari Jurnalga qayd etilganda, shu kunning o‘zida talabaning Baholash daftariga ham yozib qo‘yilishi kerak.

40. Yakuniy nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimi “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga “0” belgisi yozib qo‘yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning Baholash daftariga yozilmaydi.

41. Jurnalning o‘z vaqtida, to‘g‘ri va to‘liq yuritilishi, shuningdek undagi baho va boshqa ma’lumotlarga asossiz o‘zgartirishlar kiritilmasligi uchun fakultet dekani va tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi mas’ul hisoblanadi.

42. Tegishli o‘quv yili yakuni bo‘yicha ishchi o‘quv rejadagi fanlar bo‘yicha “3” (qoniqarli) yoki “4” (yaxshi) yoxud “5” (a’lo) baho bilan baholangan talaba oliy ta’lim muassasasi rektorining (boshlig‘ining, filial direktorining) buyrug‘iga asosan keyingi kursga o‘tkaziladi.

43. Baholash natijalari kafedra yig‘ilishlari, fakultet va oliy ta’lim muassasasi Kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

44. O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘zlashtirishini baholash tizimini 5 baho yoki 100 ballik tizim va ilg‘or xorijiy davlatlar oliy ta’lim tizimida qo‘llaniladigan baholash tizimiga qiyosiy taqqoslash hamda ularga o‘tkazish mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq jadvallar asosida amalga oshiriladi.

## 5-bob. Yakuniy qoida

45. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta’limi vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Qurilish vazirligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati, Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan.